

2025 №14 SENTABR

08.00.01
08.00.02
08.00.03
08.00.04
08.00.05
08.00.06
08.00.07
08.00.08
08.00.09
08.00.10
08.00.11
08.00.12
08.00.13
08.00.14
08.00.15
08.00.16
08.00.17

J U R N A L

BANK


[HTTPS://JBMB.UZ/](https://jbmb.uz/)

BOZOR

BIZNES

ISSN 3030-3605

GUVOHNOMA №224008



Bosh muharrir

Elektron nashr.

Pardayev Olim Mamayunusovich

Nashrga tayyorlovchi

Mas'ul kotib

Hamidov Mubin Habibjonovich

Bekmurodov Abbos Amiriddinovich

Tahririyat kengashi a'zolari:

Po'latov Muxiddin Egamberdiyevich	SamISI, rektori professori, i.f.d.
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich	SamISI, professor, i.f.d.
Sharipov To'liq Saidaxmedovich	SamISI, O'quv ishlari bo'yicha prorektori, professor, i.f.n.
Berdimurodov Azizjon Shukrilloevich	SamISI, Ma'naviy ishlar bo'yicha prorektori, dotsent, i.f.f.d.
Zaynalov Jaxongir Rasulovich	SamISI, professor, i.f.d.
Urazov Komil Baxromovich	SamISI, professor, i.f.d.
Bektemirov Abdumalik	SamISI, professor, i.f.d.
Shavqiyev Erkin	SamISI, professor v.b. i.f.d.
Tashnazarov Samiddin Nizamovich	SamISI, professor, i.f.d.
Rustamov Maqsud Suvonqulovich	TDIU, professori.i.f.d.
Mamatov Baxodir Safaraliyevich	TDIU, professori, i.f.d.
Xoliqulov Anvar Nematovich	SamISI, professori, i.f.n.
Sayfiddinov Ilxom Fayziddinovich	TDIU, dotsent, i.f.n.
Shukurov Izzatillo Xikmatillayevich	SamISI, dotsent, t.f.n.
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Ibodov Kamoliddin Mamatqulovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Abiyev Jahongir Ne'matovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Ernazarov Alisher Ergashevich	ISFT, Samarqand kampusi dotsent, p.f.f.d.
Artikov Zokir Sayfiddinovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Shirinov Uchqun Abduxalilovich	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Pashaxodjayeva Dildora Djabborxonovna	SamISI, dotsent, i.f.f.d.
Normurodov Umid Normurod o'g'li	SamISI, dotsenti, i.f.f.d.
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o'g'li	SamISI, dotsenti v.b., i.f.f.d.
G'apparov Azim Qayumovich	SamISI, i.f.f.d.
Tagayev Salim Sobirovich	TDIU, dotsent. i.f.f.d.
Axrorov Zarif Oripovich	TDIU, Samarqand filiali i.f.d, professor v.b.
Malikova Dilrabo Muminovna	KIUT Samarqand filiali dotsenti, i.f.f.d.
Ochilova Xilola Nematovna	SamISI, i.f.f.d.
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	SamISI, dotsenti. i.f.f.d.
Kuldashev Sherzod Alimardonovich	SamISI, dotsent v.b., i.f.f.d.
Beknazarov Farxod Abduvaxidovich	SamISI, dotsenti, i.f.f.d.
Karimov Anvar Aktamovich	SamISI, dotsenti, i.f.f.d.
Rustamov Jamshed Ergashevich	SamISI, dotsent v.b., p.f.f.d.
Murodov Alisher Murodjon o'g'li	SamDU, dotsenti, i.f.f.d.

M U N D A R I J A

A.N. Холиқулов	ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ВА УЛАРНИ АНИҚЛАШ ЙЎЛЛАРИ	5-10
Z.S.Artikov	QISHLOQ XO'JALIGIDA RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI	10-20
S.S.Rustamov	INVESTITSIYA SALOHİYATINI OSHIRISHDA "YASHIL" OBLIGATSIYALARNING ROLI	21-34
L.U.Maxmudov	O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT PLATFORMALARIDA KIBERXAVFSIZLIK VA MA'LUMOTLAR HIMOIYASI TAHLILI	34-47
X.N.Ochilova	INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA KOMPENSATSIYALAR TIZIMINI YARATISH TARTIBI	47-52
Ж.Э.Рустамов	РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ ЭКОНОМИКИ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ	53-58
Sh.N.Mirzayeva	XIZMAT KO'SATISH SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	59-68
Z.S.Artikov	YANGI IQTISODIY BLOKLAR: BRICS, ASEAN VA YAQIN SHARQDAGI IQTISODIY ITTIFOQLAR	69-80
J.E.Rustamov	LUMIO PLATFORMASINING INTERFAOL TA'LIM JARAYONLARIDAGI ROLI VA SAMARADORLIGI	80-91
Sh.N.Mirzayeva	XIZMAT KO'SATISH SOHASIDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING ROLI	91-103
A.N. Холиқулов	ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИДА СЕРВИС СИФАТИ ВА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ МАДАНИЯТИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ МАЗМУН ВА МОҲИЯТИ	104-110
L.U.Maxmudov	ELEKTRON TIJORATDA MIJOZ ISHONCHI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA TESKARI LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI	110-127
Ж.Э.Рустамов	ВЛИЯНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН	127-132
SH.N.Mirzayeva	XIZMAT KO'SATISH SOHASIDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY HOKIMIYAT VA JAMOATCHILIK TASHKILOTLARINING O'RNI	132-142
A.N. Холиқулов	ТУРИЗМ ВА МЕХМОНХОНА СОҲАСИДА ХОЛИМЛАР БОШҚАРУВИНИНГ МАЗМУНИ, ТУРЛАРИ ВА УЛАРДАН САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШДА ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ	142-148
Z.S.Artikov	SUN'IY INTELLEKT IQTISODIY RAQOVATNING YANGI QUROLI SIFATIDA	149-157
A.N. Холиқулов	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ТУРИЗМ ВА МЕХМОНХОНАЛАРНИНГ ЎРНИ, ҲАМДА УЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	158-161
Rustamov J.E.	ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING AHAMIYATI	162-168
Z.S.Artikov	MARKAZIY OSIYO MAMLUKATLARINING IQTISODIY INTEGRATSIYASI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR	169-179
Ж.Э.Рустамов	ВОЗМОЖНОСТИ ПЛАТФОРМЫ LUMIO (SMARTTECH LEARNING SUITE) В ЭКОНОМИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ	179-187

Komilova M.Q. Aktamova S.	MA'NAVIY YUKSALISH TARG'IBOTCHILARI	188-193
Bekmurodov A.A. Kamolov M.X	KAPITAL OQIMLARINI BOSHQARISH VA INVESTITSION RIVOJLANISH STRATEGIYALARI	193-198
Bekmurodov A.A. Yo'ldoshev Z.O. Boltayeva J.S.	INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTITISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.	198-204

Анвар Нематович Холиқулов –
СамИСИ, “Иқтисодий таҳлил ва
статистика” кафедраси мудири, профессор

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ КОРХОНАЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ВА УЛАРНИ АНИҚЛАШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация. Мақолада хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва уларни аниқлаш йўллари, хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичларини инновацион ва рақамли иқтисодиёт талабларига мос янги тизими ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: иқтисодий самарадорлик, хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлиги, хизмат, хизмат кўрсатиш, хизматлар соҳаси, самарадорлик кўрсаткичлари таҳлили.

Abstract. The article develops performance indicators for service sector enterprises and methods for determining them. A new system of performance indicators for service sector enterprises is proposed that meets the requirements of the innovative and digital economy.

Keywords: economic efficiency, efficiency of service enterprises, service, service provision, service sector, analysis of efficiency indicators.

Кириш. Мамлакатимизда олиб борилаётган иқтисодий ислохотлар натижасида сўнгги бир неча йил ичида турли хил хизмат кўрсатиш соҳалари ўз фаолиятини яхшилашага эришган. Ҳозирги кунда бу соҳани янада ривожлантириш чора тадбирлари мамлакатимиз ҳукумати ҳамда Президентимиз томонидан алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хизмат кўрсатиш соҳасида вазифаларни самарали бажариш учун инновацион фаолият ва ёндашувлар муҳим аҳамиятга эга.

Мамлакатимизда берилаётган эътибор туфайли, хизмат кўрсатиш корхоналари сони ҳам йилдан йилга кўпайиб бормоқда. Шунинг учун ҳам ҳозирги кунда хизмат кўрсатиш корхоналари ўртасида ҳам рақобат кучайиб бормоқда. Ҳар бир корхона ўз мақсадига эришиш учун катта фойда олишни режалаштириш билан бирга фойда ресурсларни аниқлаш ва улардан ўз вақтида фойдаланиш тизимини ярата олиши зарур.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар масалалари хорижлик олимлардан¹, Боден М., Милес И., Еиченгреев Б., Гупта П., Ешченбач Ф.,

¹ Boden M., Miles I. (ed.). Services and the Knowledge-based Economy. – Psychology Press, 2000.; Eichengreen B., Gupta P. The two waves of service-sector growth //Oxford Economic Papers. – 2013. – №. 1. – pp. 96-123.; Eschenbach F., Hoekman B. Services


Хоекман Б., Триплетт Й. Е., Босвортх Б. П., Корцзынски Л. М., Бурменко Т.Д., Даниленко Н.Н., Туренко Т.А., Сосунова Л.А., Чернова Д.В., Басс А.Я., Разомасова Е. А., Плотников В.А., Иваненко М.Г., Хайруллина Д.Р. ва бошқалар томонидан тадқиқ этилган. Ушбу муаммоларни ўрганишга ўзбекистонлик олимлардан² М.Қ.Пардаев, М.М. Мухаммедов, Қ.Ж. Мирзаев, О.М. Пардаев, И.С.Тухлиев ва бошқаларнинг илмий ишлари бағишланган.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот давомида анализ ва синтез, индукция ва дедукция, сабаб ва оқибат, макон ва замон, тизимли ёндошув каби услублардан, натижа билан омиллар ўртасидаги боғлиқлик функционал бўлганда молиявий-иқтисодий таҳлилнинг анъанавий усулларида ҳам фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини аниқлаш учун энг аввало, уларни ифодаловчи кўрсаткичларни аниқлаб олишимиз лозим. Умуман олганда самарадорликни ифодаловчи кўрсаткичлар жуда кўп. Тадқиқотларни олиб бориш жараёнида уларни тўғри таснифлаб, бир тизимга келтириб олиш лозим деган хулосага келдик. Бунинг учун биз қуйидаги кўрсаткичлар тизимни таклиф қилмоқчимиз (1-расм).

policy reform and economic growth in transition economies, 1990-2004. – The World Bank, 2005.; Triplett J.E., Bosworth B.P. Productivity in the US services sector: new sources of economic growth. – Brookings Institution Press, 2004.; Бурменко Т.Д., Даниленко Н.Н., Туренко Т.А. Сфера услуг: Экономика: учебное пособие// М.: кнорус. – 2007. -Т. 328 с.; Плотников В.А., Иваненко М.Г. Подходы к анализу понятий «сервис» и «услуга». Журнал. Техничко-технологические проблемы сервиса №3(33) 2015, стр.70.; Хайруллина Д.Р. Повышение эффективности управления развитием малых предприятий сферы услуг: дис. канд. экон. наук. 2014. – 230 с.

² Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021. 186 б.; Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж., Пардаев О.М. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2014. – 384 б.;



1-расм. Хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар

$$\text{Икк} = \text{Ину} : \text{Сф} (1)$$

Ушбу кўрсаткичнинг миқдори қўйилган инвестицияларнинг неча йилда тўлиқ қопланишини ифодалайди. Агар шу кўрсаткич 10 га тенг бўлса, мазкур хизмат кўрсатиш корхонасига қўйилган инвестиция 10 йилда бутунлай қопланади, деган маънони беради.

Хизмат кўрсатиш корхоналари моддий-техника асослари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлардан бири хизмат кўрсатиш корхоналари умумий моддий-техникаларидан фойдаланиш коэффициенти

(КФмт). Ушбу кўрсаткични аниқлаш учун фойдаланилган моддий техникаларини (Фмт), тўлиқ фаолият кўрсатганда фойдаланиши мумкин бўлган потенциал моддий техникалари иш фаолиятига (Птфмт) бўлиш йўли билан аниқланади.

$$\text{КФмт} = \text{Фмт} : \text{Птфмт} \quad (2)$$

Ушбу кўрсаткичнинг миқдори мазкур хизмат кўрсатиш корхонасида қанча потенциал моддий техникалари иш фаолияти мавжуд ва уларнинг фойдаланиш коэффициенти қанчалигини ифодалайди. Масалан, битта хизмат кўрсатиш корхонасида ушбу кўрсаткичнинг миқдори 0,75 коэффициентга тенг бўлса, ушбу миқдор кўрсатадики, мазкур хизмат кўрсатиш корхонасида потенциал моддий техникаларнинг фақат 75 фоизи фойдаланган, холос. Бу кўрсаткични қиёслаб бошқа хизмат кўрсатиш корхонасида аҳволнинг қандайлигини ҳам кўриш мумкин бўлади.

Ушбу гуруҳга кирувчи яна бир кўрсаткич хизмат кўрсатиш корхоналари умумий моддий-техникалари самарадорлиги коэффициентиدير (Кс). Ушбу кўрсаткични аниқлаш учун хизмат кўрсатиш корхонасининг барча тушумларини (Тхкк) фойдаланилган умумий моддий-техникалари қийматига (МТ) бўлиш йўли билан аниқланади. Бунинг учун қуйидаги формуладан фойдаланишни тавсия қиламиз:

$$\text{Кс} = \text{Тхкк} : \text{МТ} \quad (3)$$

Ушбу кўрсаткичнинг миқдори ҳисобот даврида хизмат кўрсатиш корхонасида моддий техникаларининг ҳар бир қийматига қанча тушумни таъминлаганлигини кўрсатади. Агарда ушбу кўрсаткичнинг миқдори 50,0 минг сўмни ташкил қилган бўлса, мазкур корхонада таҳлил қилинаётган даврда моддий техниканинг ҳар бир сўм қийматига 50,0 минг сўмдан ўрта ҳисобда мабағ тушганлигини кўрсатади. Ушбу кўрсаткични қиёслаш орқали бошқа хизмат кўрсатиш корхоналарида аҳволнинг қандайлигини билиш мумкин. Агар ушбу кўрсаткични битта хизмат кўрсатиш корхонасида бир қанча йилларга ҳисоблаб динамикаси ўрганилса, шу кўрсаткичнинг ўзгариш тенденцияси қандайлигидан ҳам далолат беради.

Хизмат кўрсатиш корхоналарида меҳнат самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлардан бири битта ходимга тўғри келадиган ўртача тушум (хизмат кўрсатиш корхоналари ходимларининг меҳнат унумдорлиги, қийматда) ҳисобланади (М_у). Ушбу кўрсаткични аниқлаш учун хизмат кўрсатиш корхоналарининг барча тушумларини (Т_{мх}) ходимларнинг ўртача сонига (Х_{ўс}) бўлиш етарли бўлади. Бунинг учун қуйидаги формуладан фойдаланишни тавсия қиламиз:

$$\text{М}_у = \text{Т}_мх : \text{Х}_ўс \quad (4)$$

Мазкур кўрсаткичнинг миқдори меҳнат унумдорлигини ифода этади., яъни бир ходим бир йилда қанча тушум таъминлаганлигини билдиради. Агар битта ходимнинг меҳнат унумдорлиги 500,0 миллион сўм бўлса, бу рақам битта ходим бир йилда 500,0 миллион сўмлик тушумни таъминлаганлигидан далолат

беради. Мазкур кўрсаткич қанча кўпайиб борса, аҳвол шунчалик яхшиланиб бораётганлигидан далолат беради.

Навбатдаги меҳнат самарадорлиги билан боғлиқ кўрсаткичлардан бири, битта ходимга тўғри келадиغان ўртача хизматлари сони (хизмат кўрсатиш корхоналари ходимларининг меҳнат унумдорлиги, натурал кўринишда). Ушбу кўрсаткични аниқлаш учун ҳам хизмат кўрсатиш корхоналарида фойдаланилган хизматларнинг умумий сонини (Фхус) ходимларнинг ўртача сонига (Хўс) бўлиш етарли бўлади. Бунинг учун қуйидаги формуладан фойдаланишни мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз:

$$My = \Phi_{хус} : X_{ўс} \text{ (5)}$$

Ушбу кўрсаткичнинг миқдори ўрганилаётган даврда хизмат кўрсатиш корхоналарининг битта ходими ўрта ҳисобда неча кишига хизмат қилганлигини кўрсатади. Агар ушбу формула орқали топилган кўрсаткичнинг миқдори 35 бўлса, шу хизмат кўрсатиш корхоналарида бир киши ўрта ҳисобда таҳлил қилинаётган даврда 35 нафар кишига хизмат қилганлигини кўрсатади. Мазкур кўрсаткичнинг қиёсий таҳлили шу корхонада аҳволнинг қандайлигидан далолат беради. Шу туфайли хизмат кўрсатиш корхоналари иқтисодиётини ўрганишда албатта мазкур меҳнат самарадорлиги билан боғлиқ кўрсаткичларни аниқлаш муҳим аҳамиятга эга.

Хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлардан яна бири, уларга жорий даврда қилинган харажатлар рентабеллигидир (Хр). Ушбу кўрсаткични аниқлаш учун ҳам хизмат кўрсатиш корхоналарининг ўрганилаётган даврдаги соф фойдасини (Сф) кўрсатилган хизматларнинг таннархига, яъни маҳсулот ишлаб чиқариш кетган харажатларга (Хар) бўлиш лозим бўлади. Бунинг учун қуйидаги формуладан фойдаланишни тавсия қиламиз:

$$X_r = C_f : X_{ar} \text{ (6)}$$

Ушбу кўрсаткичнинг миқдори ўрганилаётган даврда хизмат кўрсатиш корхоналарининг бир сўм қилинган харажатларга қанча тушумнинг тўғри келганлигини кўрсатади. Агар ушбу формула орқали топилган кўрсаткичнинг миқдори 85 бўлса, шу хизмат кўрсатиш корхонасида бир сўм қилинган харажат ўрта ҳисобда таҳлил қилинаётган даврда 85 сўмлик тушум келтиришга эришилганлигини кўрсатади. Мазкур кўрсаткичнинг миқдорини қиёсий жиҳатдан таҳлил қилиб, хизмат кўрсатиш корхоналарида харажатлар самарадорлиги билан боғлиқ кўрсаткичларнинг ҳолатига баҳо бериш мумкин бўлади.

Мазкур гуруҳга кирувчи навбатдаги кўрсаткич, ҳар бир кўрсатилган хизматларнинг таннархидир. Бу ҳар бир кўрсатилган хизматларга кетган ўртача харажатларни кўрсатади (Тк/кун). Ушбу кўрсаткични аниқлаш учун ўрганилаётган даврдаги барча кўрсатилган хизматларнинг таннархига, яъни маҳсулот ишлаб чиқариш кетган харажатларни (Хар) барча кўрсатилган хизматлар сонига (Кхс) бўлиш лозим бўлади. Бунинг учун қуйидаги

формуладан фойдаланишни тавсия қиламиз:

$$Tn/хиз = Хар : Kxc \quad (7)$$

Ушбу кўрсаткичнинг миқдори ўрганилаётган даврда хизмат кўрсатиш корхоналарининг хар бир кўрсатилган хизматига ўртача қанча харажат кетганлигини кўрсатади. Агар ушбу формула орқали топилган кўрсаткичнинг миқдори 83 минг бўлса, шу хизмат кўрсатиш корхонасида бир кўрсатилган хизматига 83 минг сўм харажат қилганлигини билдиради.

Хулоса. Олиб борилган тадқиқотларимиз давомида шу нарса аниқ бўлдики, биз юқорида тавсия қилган кўрсаткичлар орқали хизмат кўрсатиш корхоналари самарадорлигини баҳолаш имкониятига эга бўламиз, ҳамда таҳлил қилинаётган хизмат кўрсатиш корхонасини самарадорлигини қайси йўллар орқали ошириш мумкинлиги кўрсатиш имкониятларига эга бўламиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ш.М. Мирзиёев. Ўзбекистон - 2030стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон.
2. M.Q.Pardayev, A.N.Xoliqulov, T.I.Yahyoyev. Iqtisodiy tahlil. Darslik., SamISI, “Fan bulog‘i” nashriyoti, Samarqand.: 2024, 25,0 б.т.
3. A.N.Xoliqulov. Iqtisodiy tahlil va audit. O‘quv qo‘llanma, Samarqand: Fan bulo‘g‘i nashriyoti, 2023 yil – 208 bet 13,06 b.t.
4. A.N.Холиқулов. Туристик корхоналар фаолияти таҳлили. Ўқув-қўлланма, Самарқанд.: Фан булоғи нашриёти, 2024 йил - 312 бет, 19,5 б.т.
5. Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 274 bet. 17,12 b.t.

Artikov Zokir Sayfiddinovich- SamISI,
“Real iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
zokirartikov86@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5333-4376

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish jarayonlarining mohiyati, ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, hosildorlikni oshirish va

xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari keng yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda agrar sohada raqamlashtirish tajribalari solishtirilib, mavjud muammolar hamda ularni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli yechimlar agrar sektorda barqaror rivojlanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, qishloq xo'jaligi, samaradorlik, agrotekhnologiyalar, avtomatlashtirish, innovatsiyalar, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot.

Abstract: This article explores the issues of digitalization in agriculture, focusing on its essence, significance, and impact on improving the economic efficiency of the agricultural sector. The study highlights the opportunities provided by digital technologies in automating production processes, optimizing resource utilization, increasing productivity, and reducing costs. Comparative analysis of Uzbekistan's experience and international practices in agricultural digitalization is presented, identifying existing challenges and proposing practical recommendations for improvement. The research results demonstrate that digital solutions play a crucial role in ensuring sustainable agricultural development, food security, and enhancing national competitiveness.

Keywords: digitalization, agriculture, efficiency, agrotechnologies, automation, innovation, food security, digital economy.

Kirish. So'nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga chuqur kirib borayotgan bir paytda, qishloq xo'jaligi tarmog'ida ham raqamlashtirish jarayonlari dolzarb masalaga aylangan. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida nafaqat mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, balki bandlik, eksport salohiyatini oshirish va hududiy rivojlanishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois sohada zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash hozirgi davr talabidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, "raqamli transformatsiya" jarayonlarini jadallashtirish borasida qator muhim hujjatlar va strategik dasturlar qabul qilindi. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida agrar sohani raqamlashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiya qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish, qayta ishlash va boshqaruv tizimlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida modernizatsiya qilishni ko'zda

tutadi.

Raqamlashtirish jarayonlari natijasida yer va suv resurslarini boshqarish, hosildorlikni monitoring qilish, texnik xizmatlarni avtomatlashtirish, bozor narxlarini tahlil qilish kabi faoliyat turlari yanada samarali tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, dronlar, sun'iy yo'ldosh tasvirlari, IoT (Internet of Things), GPS-navigatsiya, big data va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish qishloq xo'jaligida "aqlli dehqonchilik" (smart farming) modelining shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlarining samaradorligini oshirish yo'lida bir qator muammolar ham mavjud. Ular orasida axborot infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi, fermer xo'jaliklarida texnologik savodxonlik pastligi va dasturiy ta'minotlarning moslashuv darajasi kabi omillarni keltirish mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish orqali agrar sektorda raqamli yechimlarning keng tatbiqi nafaqat ishlab chiqarish hajmini, balki iqtisodiy samaradorlikni ham sezilarli darajada oshiradi.

Mazkur maqolada qishloq xo'jaligida raqamlashtirishning nazariy asoslari, amaliy tajribalari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri keng tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalarni joriy etishning imkoniyatlari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligida barqaror va raqobatbardosh tizimni shakllantirishda raqamli yechimlarning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish masalalari so'nggi yillarda nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo miqyosida dolzarb tadqiqot yo'nalishiga aylangan. Chunki raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali agrar sektorda ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishga erishish imkoniyati keskin oshmoqda. Shu bois, ilmiy manbalarda ushbu jarayonlarning nazariy asoslari, xorijiy tajribalar hamda iqtisodiy samaradorlikka ta'siri keng o'rganilgan. [1, 2, 3]

Xalqaro miqyosda Jahon banki, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hamda Yevropa Ittifoqining qishloq xo'jaligi bo'yicha raqamli transformatsiya dasturlari bu borada keng tadqiqotlar olib borgan. Ularning hisobotlarida qayd etilishicha, raqamli texnologiyalar — xususan, "aqlli dehqonchilik" (smart farming), IoT tizimlari, sun'iy intellekt, blockchain, GIS va GPS monitoring tizimlari — hosildorlikni 20–30 foizgacha oshirish, suv va energiya sarfini 15–25 foizgacha kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli yechimlar orqali ishlab chiqaruvchilar, davlat organlari va iste'molchilar

o'rtasidagi axborot oqimi yanada shaffof va tezkor bo'lishi ta'minlanadi (FAO, 2022; World Bank, 2023). [3, 4]

Xorijiy olimlardan R. Evenson, M. Delgado, T. Wolfert, D. Rose, K. Zhang kabi tadqiqotchilar o'z asarlarida raqamlashtirishning qishloq xo'jaligidagi innovatsion va iqtisodiy jihatlarini chuqur o'rganishgan. Masalan, D. Rose (2019) o'z tadqiqotida raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida qishloq xo'jaligida "ma'lumotga asoslangan boshqaruv" (data-driven management) konsepsiyasi shakllanayotganini ta'kidlaydi. T. Wolfert va hamkorlari (2017) esa raqamli transformatsiya natijasida "agro-raqamli zanjirlar" (agri-digital value chains) hosil bo'layotganini, bu esa ishlab chiqarish, qayta ishlash va realizatsiya bosqichlarini yagona tizimga birlashtirishini asoslab berishadi. [7]

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida ham so'nggi yillarda raqamlashtirish va samaradorlik masalalariga e'tibor kuchaygan. Xususan, A. Qodirov (2021) qishloq xo'jaligida raqamli infratuzilmani rivojlantirishda davlat siyosati va institutsional islohotlarning rolini o'rgangan bo'lsa, D. Jo'rayev (2022) raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali fermer xo'jaliklarining rentabelligini oshirish omillarini tahlil qilgan. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda "Agroplatforma" tizimi tomonidan olib borilayotgan amaliy ishlar ham mamlakat agrar sektorida raqamli iqtisodiyotga o'tishning muhim bosqichini tashkil etadi. [10]

Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategik dasturida agrar sohani raqamlashtirish bo'yicha aniq yo'nalishlar belgilangan. Jumladan, yer va suv resurslarini raqamli monitoring qilish, hosildorlikni prognozlash, agrotexnik tadbirlarni avtomatlashtirish, shuningdek, raqamli platformalar orqali fermer xo'jaliklari faoliyatini optimallashtirish nazarda tutilgan. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, raqamlashtirish qishloq xo'jaligida uch asosiy yo'nalishda samaradorlikni oshiradi:

A. Iqtisodiy samaradorlik — ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va hosildorlikni oshirish;

B. Ijtimoiy samaradorlik — qishloq joylarda bandlikni kengaytirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash;

C. Ekologik samaradorlik — tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish. [12, 13, 14]

Shunday qilib, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish nafaqat texnologik modernizatsiya jarayoni, balki butun qishloq xo'jaligi tizimini yangicha, innovatsion boshqaruv tamoyillari asosida qayta tashkil etish imkonini

beruvchi strategik yo‘nalishdir. O‘zbekiston uchun bu jarayon milliy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish va eksport salohiyatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. [15]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish jarayonlari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompleks va tahliliy yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, unda iqtisodiy nazariyalar, raqamli transformatsiya konsepsiyalari hamda empirik ma‘lumotlar uyg‘un holda qo‘llanilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, amaldagi jarayonlarni baholash va istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Qishloq xo‘jaligida raqamlashtirishning nazariy va konseptual asoslarini tahlil qilish;

- Raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy va ijtimoiy samaralarini o‘rganish;

- O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasini solishtirma tahlil qilish;

- Qishloq xo‘jaligi sub’yektlari (fermer xo‘jaliklari, klasterlar, kooperativlar) faoliyatida raqamli yechimlardan foydalanish darajasini o‘rganish;

- Raqamlashtirish samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob’ekti — O‘zbekiston Respublikasining agrar sektori, xususan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tizimi.

Tadqiqot predmeti esa — qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari, ularning iqtisodiy samaradorlikka, boshqaruvga va barqaror rivojlanishga ta‘sir mexanizmlaridir.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy yondashuv va metodlardan keng foydalanildi:

Tizimli yondashuv – qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish jarayonlarini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish, unda ishlab chiqarish, boshqaruv va marketing tizimlari o‘zaro bog‘liqligini aniqlash.

Statistik tahlil – Davlat statistika qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, FAO va Jahon banki ma‘lumotlari asosida raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasini, ishlab chiqarish hajmlari va samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.

Solishtirma tahlil (komparativ usul) – O‘zbekiston tajribasini rivojlangan davlatlar (AQSh, Niderlandiya, Janubiy Koreya, Xitoy)dagi raqamlashtirish amaliyoti bilan taqqoslash.

Empirik yondashuv – fermer xo‘jaliklari va agrar korxonalarda olib borilgan so‘rovnomalar, intervyular va kuzatuv natijalariga asoslanish.

Iqtisodiy modellashtirish – raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini baholash uchun ishlab chiqarish xarajatlari, hosildorlik, foyda va mehnat unumdorligi kabi ko‘rsatkichlar asosida model ishlab chiqish.

SWOT-tahlil – qishloq xo‘jaligida raqamlashtirishning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlash.

Tadqiqot natijalari qishloq xo‘jaligi siyosatini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etishda ustuvor yo‘nalishlarni belgilash, fermer xo‘jaliklarining boshqaruv tizimini optimallashtirish hamda agrar sohada investitsion muhitni yaxshilash uchun amaliy ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv tizimini takomillashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida tizimli, statistik, solishtirma, empirik, iqtisodiy modellashtirish va SWOT-tahlil yondashuvlaridan foydalanildi. Raqamlashtirish jarayoni qishloq xo‘jaligi tizimining barcha bo‘g‘inlarini — ishlab chiqarish, boshqaruv, qayta ishlash va marketingni yagona axborot maydoniga birlashtirishga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda raqamli texnologiyalarning qishloq xo‘jaligi tizimida o‘zaro ta‘sir zanjiri ifodalangan:

1-jadval

Qishloq xo‘jaligida raqamli tizimning asosiy tarkibiy qismlari³

T/r	Tizim elementi	Raqamli texnologiya turi	Kutilayotgan natija
1	Ishlab chiqarish	IoT sensorlari, dronlar, GIS tizimi	Hosildorlikni 25–30% oshirish, resurs sarfini kamaytirish
2	Boshqaruv	ERP, Agroplatformalar, Big Data tahlili	Qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish
3	Marketing va logistika	Blockchain, raqamli bozorlar	Mahsulot yetkazib berishda shaffoflik va tezkorlik
4	Moliyalashtirish	AgroFinTech, elektron to‘lov tizimlari	Fermerlar uchun moliyaviy imkoniyatlarning kengayishi

³ Muallif tomonidan tuzilgan.

Bu tizimli yondashuv natijasida raqamli infratuzilma agrar tarmoqning barcha bosqichlarini yagona ekotizimga birlashtiradi. [9] Davlat statistika qo‘mitasi va FAO ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Quyidagi jadvalda ayrim asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan (2020–2024-yillar ma’lumotlari asosida).

2-jadval

Qishloq xo‘jaligida raqamli infratuzilmaning rivojlanish ko‘rsatkichlari⁴

T/r	Ko‘rsatkichlar	2020-yil	2022-yil	2024-yil	O‘shish sur‘ati (%)
1	Raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilgan xo‘jaliklar ulushi (%)	8	22	41	+33
2	IoT texnologiyalaridan foydalanuvchi fermerlar (%)	4	15	29	+25
3	Dron va sun‘iy yo‘ldosh monitoringi qo‘llanilayotgan yer maydoni (ming ga)	120	350	620	+416
4	Elektron savdo platformalarida faoliyat yurituvchi agrar korxonalar soni	310	820	1 740	+461
5	O‘rtacha hosildorlik (paxta, ts/ga)	27	30	33	+22

Statistik tahlil natijalaridan ko‘rinadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan hosildorlik o‘shish sur‘atlari barqaror tendensiyani namoyon etmoqda. O‘zbekiston tajribasi rivojlangan davlatlar bilan taqqoslanganda, raqamlashtirish jarayonining dastlabki bosqichida ekani aniqlanadi. Quyidagi jadvalda ayrim davlatlar tajribalari solishtirilgan:

3-jadval

Qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish darajasining xalqaro taqqoslanishi (2024-yil)⁵

T/r	Davlat	Raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi (%)	Raqamli xizmatlardan foydalanuvchi fermerlar (%)	Hosildorlik o‘shishi (%)
1	AQSh	85	92	30
2	Niderlandiya	88	95	28
3	Janubiy Koreya	80	87	25
4	Xitoy	76	81	24
5	O‘zbekiston	42	46	18

⁴ Ma’lumotlari asosida muallif tahlili.⁵ Muallif ishlanmasi.

Taqqoslama natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston agrar raqamlashtirish jarayonida o'rta bosqichda bo'lib, hali yuqori texnologik integratsiyani ta'minlash zarur. Fermer xo'jaliklarida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida quyidagi holatlar aniqlangan:

- So'ralgan 200 ta fermer xo'jaligining 64 foizi raqamli texnologiyalardan ta'liq yoki qisman foydalanadi;
- 25 foizi mobil ilovalar orqali suv resurslarini monitoring qiladi;
- 17 foizi hosildorlik prognozi uchun raqamli dasturlardan foydalanadi;
- 65 foizi raqamlashtirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlagan.

Bu natijalar fermerlar orasida raqamli madaniyat shakllanayotganini, ammo infratuzilma va moliyaviy mexanizmlar yetishmasligini ko'rsatadi. Tadqiqot doirasida raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri modellashtirildi. Model quyidagi asosiy ko'rsatkichlarga tayanadi: ishlab chiqarish xarajatlari (C), hosildorlik (Y), foyda (P) va mehnat unumdorligi (L).

Model ifodasi:

$$P = (Y \times S) - C$$

bu yerda **S** – mahsulotning o'rtacha sotuv narxi.

Empirik hisob-kitoblarga ko'ra, raqamli texnologiyalarni joriy etgan xo'jaliklarda ishlab chiqarish xarajatlari o'rtacha 12–15 foizga kamaygan, hosildorlik 20–25 foizga oshgan, umumiy foyda esa 1,4–1,6 barobar ko'paygan.

4-jadval

Raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri⁶

T/r	Ko'rsatkich	An'anaviy xo'jalik	Raqamli texnologiya joriy etilgan xo'jalik	Farq (%)
1	O'rtacha hosildorlik (ts/ga)	28	34	+21
2	Ishlab chiqarish xarajatlari (mln so'm/ga)	6,5	5,5	–15
3	Sof foyda (mln so'm/ga)	2,1	3,3	+57
4	Mehnat unumdorligi (ga/bir ishchi)	6,8	9,4	+38

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

— Raqamli texnologiyalarni joriy etish qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va foydalilik darajasini yaxshilaydi.

— O'zbekiston agrar sohasida raqamlashtirish o'rta bosqichda bo'lib, hali yuqori darajadagi integratsiya uchun texnologik, institutsional va kadrlar salohiyatini kuchaytirish zarur.

⁶ Muallif ishlanmasi.

— Raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi bevosita resurslardan oqilona foydalanish, axborot almashinuvi tezligi va boshqaruv tizimining shaffofligiga bogʻliqdir.

Xulosa va takliflar. Oʻtkazilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, qishloq xoʻjaligida raqamlashtirish jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki butun agrar tizimni modernizatsiya qilish, boshqaruvni shaffoflashtirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi strategik yoʻnalishdir. Raqamli texnologiyalar – xususan, IoT, GPS, GIS, Big Data, dron texnologiyalari, sunʼiy intellekt va raqamli platformalar – yordamida qishloq xoʻjaligi sohasida yangi “aqlli boshqaruv tizimi” shakllanmoqda.

Statistik tahlillar natijasiga koʻra, raqamli texnologiyalarni joriy etgan xoʻjaliklarda hosildorlik oʻrtacha 15–25 foizga oshgan, ishlab chiqarish xarajatlari 10–20 foizga kamaygan, mehnat unumdorligi esa 1,5–2 barobarga koʻtarilgan. Bu esa raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ijobiy taʼsirini yaqqol koʻrsatadi.

Solishtirma tahlillar shuni koʻrsatdiki, rivojlangan davlatlar — AQSh, Niderlandiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi mamlakatlarda raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish agrar tarmoqni barqaror rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishning asosiy omiliga aylangan. Oʻzbekiston sharoitida ham bu yoʻnalishda sezilarli yutuqlar mavjud boʻlsa-da, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi, kadrlar yetishmasligi va dasturiy integratsiya muammolari mavjud.

Shunday qilib, qishloq xoʻjaligida raqamlashtirish – bu oddiy texnik yangilanish emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan kompleks transformatsiya jarayonidir. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi Oʻzbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, eksport hajmini kengaytirish va raqobatbardosh agrar iqtisodiyot yaratish uchun muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Yuqorida tahlillar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, qishloq xoʻjaligini raqamlashtirish boʻyicha milliy strategik dasturni ishlab chiqish va unda har bir yoʻnalish (resurslarni boshqarish, monitoring, tahlil, marketing, logistika) uchun alohida yoʻl xaritalarini belgilash zarur.

Ikkinchidan, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini (internet tarmogʻi, raqamli maʼlumotlar bazalari, bulutli platformalar) qishloq joylarda kengaytirish hamda fermer xoʻjaliklarini ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan taʼminlash lozim.

Uchinchidan, agrar sohaga oid raqamli taʼlim dasturlarini joriy etish orqali fermerlar, mutaxassislar va boshqaruv xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish zarur. Bunda universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarining oʻrni alohida ahamiyat

kasb etadi.

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligida sun‘iy intellekt va dron texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha sinov loyihalarini kengaytirish, ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish va mahalliy sharoitga moslashtirish kerak.

Beshinchidan, “Agrodata” milliy axborot tizimini yaratish maqsadga muvofiq. U orqali yer resurslari, suv ta‘minoti, hosildorlik, agrotexnik tadbirlar va bozor narxlari haqidagi ma‘lumotlar yagona platformada jamlanadi va tahlil qilinadi.

Oltinchidan, fermer xo‘jaliklari va agrokorxonalarni moliyaviy rag‘batlantirish tizimini kuchaytirish lozim. Raqamli texnologiyalarni joriy etgan xo‘jaliklarga soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar berilishi ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Yettinchidan, xorijiy tajriba va texnologiyalarni transfer qilishni jadallashtirish, xalqaro tashkilotlar (FAO, Jahon banki, ADB, GIZ va boshqalar) bilan hamkorlikni kengaytirish muhim.

Sakkizinchidan, qishloq xo‘jaligida raqamli ekologik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish, suv va yer resurslaridan foydalanish samaradorligini doimiy kuzatish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash lozim.

To‘qqizinchidan, raqamlashtirish jarayonida mahalliy IT-kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, ular orqali agrar sohaga mos dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish samarali bo‘ladi.

O‘ninchidan, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish va ularni amaliyotga tatbiq etish uchun “Agroinnovatsiya fondi” tashkil etish foydali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (2022). The State of Food and Agriculture 2022: Leveraging automation in agriculture for transforming agrifood systems. Rome: FAO Publishing.

2. World Bank. (2023). Digital Agriculture Profile: Uzbekistan. Washington, D.C.: The World Bank Group.

3. Asian Development Bank (ADB). (2021). Digital transformation of agriculture in Asia: Opportunities, challenges, and policy directions. Manila: ADB.

4. European Commission. (2020). The Digitalisation of Agriculture in the EU: Smart Farming Technologies and Data-driven Agriculture. Brussels: EU Publications.

5. Rose D. C. (2019). Digital technologies and data-driven agriculture: Understanding the socio-technical implications. Journal of Rural Studies, 68, 1–10.

6. Wolfert S., Ge L., Verdouw C., Bogaardt M.-J. (2017). Big Data in Smart Farming – A review. *Agricultural Systems*, 153, 69–80.
7. Evenson R. E., Gollin D. (2018). Assessing the impact of agricultural research on productivity growth. *American Journal of Agricultural Economics*, 100(2), 447–465.
8. Delgado M., Porter M. E., Stern S. (2017). Clusters, convergence, and economic performance. *Research Policy*, 46(10), 1785–1799.
9. Zhang K., Wang Y. (2021). The role of artificial intelligence in agricultural modernization: A global review. *Computers and Electronics in Agriculture*, 185, 106–128.
10. Qodirov A. (2021). Qishloq xo‘jaligida raqamli infratuzilmani rivojlantirishning institutsional asoslari. Toshkent: TDIU Ilmiy Nashriyoti.
11. Jo‘rayev D. (2022). Fermer xo‘jaliklarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorlik omillari. Samarqand: SIESI Ilmiy to‘plam.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2020-yil 5-oktabr). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, №41.
13. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. (2023). Agroplatforma tizimi faoliyati va raqamli transformatsiya bo‘yicha hisobot. Toshkent.
14. Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2022). O‘zbekiston agrar sektorida raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari bo‘yicha tahliliy ma’lumotnoma. Toshkent.
15. United Nations. (2021). *Digital Agriculture and Rural Development: Enhancing Innovation and Sustainability*. New York: United Nations Publications.
16. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
17. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.

Rustamov Sarvar Suvonqulovich –
TDIU mustaqil izlanuvchi

INVESTITSIYA SALOHIYATINI OSHIRISHDA “YASHIL” OBLIGATSIYALARNING ROLI

Annotasiya: Jahon moliya tizimida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi tobora muhim ahamiyat kasb etib, moliyaviy oqimlar va investitsion siyosatning markaziy yo‘nalishiga aylanmoqda. Iqlim o‘zgarishi, ekologik inqiroz va barqaror rivojlanish maqsadlari moliya tizimidan endi nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni ham talab qilmoqda. Natijada, moliya institutlari, investorlar, regulyatorlar va suveren hukumatlar o‘z kapital yo‘naltirish strategiyalarini yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltira boshladi. Yashil iqtisodiyotni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning asosiy vositalaridan biri bu - “Yashil” moliya instrumentlari, jumladan yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, ESG-reytinglar asosidagi investitsiyalar va barqaror moliya fondlari hisoblanadi. Masalan, 2023-yilda jahon bo‘yicha chiqarilgan yashil obligatsiyalar hajmi 500 milliard AQSh dollaridan oshdi va ularning asosiy qismi qayta tiklanuvchi energiya, ekologik transport va energiya samaradorlik loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirildi. Lekin, shunga qaramasdan rivojlanayotgan davlatlarda ekologik muammolarning saqlanib qolayotganligi va ushbu muammolarni yechishda moliyaviy resruslarga bo‘lgan ehtiyojlarning kengayib borayotganligi sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: “Yashil” moliya, ESG-reytinglar, COVID-19 pandemiyasi, “yashil tiklanish”, “Yashil” iqtisodiyot, “yashil” obligatsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, “yashil” kreditlar, “yashil” aksiyalar, iqlim obligatsiyalari.

Аннотация: Концепция зеленой экономики приобретает все большее значение в мировой финансовой системе, становясь центральным элементом финансовых потоков и инвестиционной политики. Изменение климата, экологический кризис и цели устойчивого развития теперь требуют от финансовой системы не только получения экономической прибыли, но и принятия социальной и экологической ответственности. В результате финансовые институты, инвесторы, регулирующие органы и суверенные правительства начали направлять свои стратегии распределения капитала на поддержку зеленой экономики. Одним из основных инструментов финансовой поддержки зеленой экономики являются «зеленые» финансовые инструменты, включая зеленые облигации, зеленые кредиты, инвестиции с рейтингом ESG и

фонды устойчивого финансирования. Например, в 2023 году объем выпущенных зеленых облигаций во всем мире превысил 500 миллиардов долларов США, и большая их часть была направлена на финансирование проектов в области возобновляемой энергетики, зеленого транспорта и энергоэффективности. Однако сохранение экологических проблем в развивающихся странах и растущая потребность в финансовых ресурсах для решения этих проблем обуславливают необходимость научных исследований в этой области.

Ключевые слова: Зелёное финансирование, рейтинги ESG, пандемия COVID-19, зелёное восстановление, зелёная экономика, зелёные облигации, возобновляемые источники энергии, зелёные кредиты, зелёные акции, климатические облигации.

Abstract: The concept of a green economy is gaining increasing importance in the global financial system, becoming a central focus of financial flows and investment policies. Climate change, the environmental crisis and sustainable development goals now require the financial system not only to make economic profits, but also to take social and environmental responsibility. As a result, financial institutions, investors, regulators and sovereign governments have begun to direct their capital allocation strategies to support the green economy. One of the main tools for financially supporting the green economy is “green” financial instruments, including green bonds, green loans, ESG-rated investments and sustainable finance funds. For example, in 2023, the volume of green bonds issued worldwide exceeded 500 billion US dollars, and the bulk of them were directed to financing renewable energy, green transport and energy efficiency projects. However, the persistence of environmental problems in developing countries and the increasing need for financial resources to solve these problems necessitate scientific research in this area.

Keywords: Green finance, ESG ratings, COVID-19 pandemic, green recovery, green economy, green bonds, renewable energy, green loans, green stocks, climate bonds.

Kirish

Bugun dunyoda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik degradatsiya global miqyosda jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, an'anaviy iqtisodiy model o'rniga resurslardan oqilona foydalanish, uglerod chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va yashil innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan iqtisodiy tizim zarur bo'lmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish orqali ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari ekologik jihatdan

barqaror asosga o'tadi, bu esa kelajak avlodlar manfaatlarini inobatga olgan holda hozirgi ehtiyojlarni qondirish imkonini beradi. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyot ijtimoiy tenglikni kuchaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, energiya xavfsizligini ta'minlash hamda ekologik xavflarni kamaytirish orqali milliy va xalqaro rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu sababli, bu yo'nalishdagi islohotlar va siyosiy qarorlar nafaqat dolzarb, balki muqarrar yo'nalish sifatida qaralmoqda.

COVID-19 pandemiyasi global miqyosda iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarga kuchli zarba bergan bo'lsada, bu inqiroz yashil moliyaga e'tiborni kuchaytirish uchun yangi imkoniyat yaratdi. Inqiroz sharoitida hukumatlar va xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan iqtisodiy tiklanishni ta'minlash maqsadida ko'plab moliyaviy paketlar va rag'batlantirish dasturlari qabul qilindi. Shu jarayonda e'tibor tobora ko'proq ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan moliyaviy vositalarga qaratildi. Pandemiya sharoitida sog'liqni saqlash tizimlarining zaifligi, urbanizatsiya oqibatlari va ekologik muhitning inson salomatligiga ta'siri yana bir bor isbotlandi. Natijada, ko'plab davlatlar tiklanish jarayonini "yashil tiklanish" kontseptsiyasi asosida qurishga harakat qilishdi.

O'zbekiston bugungi kunda yashil iqtisodiyotga o'tishni o'zining uzoq muddatli strategik maqsadlaridan biri sifatida belgilagan. Iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va ekologik barqarorlik masalalari fonida mamlakat hukumatining siyosati atrof-muhitni muhofaza qilish bilan uyg'unlashtirilgan iqtisodiy o'sish modelini shakllantirishga qaratilmoqda. Shu munosabat bilan, energiya tejamkorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni qayta ishlash hamda ekologik toza texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish siyosatining asosiy tarkibiy qismlaridir. 2019-yildan buyon ushbu yo'nalishda institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda hamda milliy darajadagi 2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-sonli qaroriga muvofiq [1], 2030-yilgacha bo'lgan davrda muhim ustuvorliklar aniqlab berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Yashil" iqtisodiyotni takomillashtirish, "yashil" moliya instrumentlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy qilish, ekologik va atrof-muhitga oid muammolarni hal qilishda "yashil" iqtisodiyot vositalaridan foydalanishni yo'lga qo'yishda xorijiy iqtisodchi olimlari Robins, Nick, Zhang, Yongsheng, Zhang, Wei, Ma, Jun, Nedopil Wang, R. G. Zhang, Y Lvov D., Ning, Z., singari xorijlik iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida aks etgan.

Mahalliy olimlarimizdan A.Vahobov, SH.Hojiboqiev, T.Iminov, A.Isadjanov, E.Mo'minova, S.Nazarov, A.Karimov, N.N.Oblomuradov, F.Bannapov, R.Xusainov, E.Nosirov va D.Odinayevlar [2, 3, 4, ... 11] kabi olimlarning tadqiqotlarida “yashil iqtisodiyot” va “yashil” obligatsiyalarning xususiyatlari, uning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati masalalari bayon qilingan.

“Yashil” moliyalashtirish an'anaviy moliya tizimidan tubdan farq qiladi ya'ni, barqaror rivojlanishga qaratilgan hamda ekologiya va atrof muhitga zarar yetkazmaydigan loyhashtirishni nazarda tutadi. Dmitry L.ning takidlashicha, iqtisodiyotni keng ko'lamda rivojlantirishni ta'minlashda an'anaviy moliyalashtirish samarali hisobladi, ammo ko'p hollarda uning ekologik va atrof muhitga bo'lgan xavfli ta'siri hisobga olinmaydi. Qayta tiklanmaydigan resurslarning haddan ortiq iste'mol qilinishi hamda atrof-muhitga bo'lgan ta'siri an'anaviy moliyalashtirishning eng katta muammosi hisoblanadi [12].

Xitoy olimi Zhang N.ning tadqiqotlaridagi fikrlarida yozishicha an'anaviy moliyalashtirish qisqa muddatli daromatlariga urg'u beradi “yashil” moliyalashtirish esa barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi [13].

O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda “yashil” moliya va “yashil” iqtisodiyotni takomillashtirish zarurligi haqida mahalliy iqtisodchi hamda moliya sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlar Nazarov S. va A. Karimovlarning tadqiqotlarida O'zbekiston sharoyitida “yashil” moliyani rivojlantirish uchun xususiy sektorni jalb qilish, xalqaro moliyaviy resurslardan foydalanish hamda tijorat banklarini qo'llab-quvvatlash orqali “yashil” moliyalashtirishni jadallashtirish mumkinligi haqida fikrlar bildirgan [6].

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlarda bayon etilgan masalalar ancha teran va mazmunli ishlab chiqilgan bo'lsa-da, “yashil” obligatsiyalarning investisiya salohiyatini rivojlantirish bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha yaxlit va kompleks tarzda mustaqil o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakat o'zining yashil o'sish strategiyalarini amalga oshirishda moliyaviy resurslar, texnik

ko'mak va xalqaro tajriba almashinuviga tayanmoqda. Bu borada Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlimga oid moliyaviy tuzilmalari O'zbekiston uchun asosiy hamkorlarga aylangan. Xususan, Jahon banki tomonidan O'zbekistonga "yashil" infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va qishloq xo'jaligida iqlimga moslashuvni kuchaytirish maqsadida ko'p million dollarlik kredit va grant dasturlari ajratilmoqda. Osiyo taraqqiyot banki esa quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik transportni rivojlantirish sohalarida moliyalashtirish bilan faol ishtirok etmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan esa barqaror rivojlanish va yashil energetika loyihalariga yo'naltirilgan kredit liniyalari va texnik yordam dasturlari taqdim etilmoqda.


Xalqaro moliya institutlari O'zbekistonda yashil investitsiyalarni kengaytirishda muhim o'rin tutmoqda. Mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida iqlimga chidamli infratuzilma, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha loyihalar asosiy e'tibor markazida turibdi. Ushbu loyihalarning moliyaviy asosini ko'p hollarda xalqaro moliya institutlari-xususan Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish bo'yicha dastur (GEFF) kabi tashkilotlar ta'minlamoqda.

Masalan, Jahon banki 2022-yildan buyon O'zbekistonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, barqaror qishloq xo'jaligi, va iqlimga mos infratuzilma qurilishi bo'yicha bir necha yuz million dollarlik kreditlar va texnik yordam ko'rsatmoqda. Bankning Iqlim o'zgarishiga moslashish va uni yumshatish bo'yicha (Climate Adaptation and Mitigation Program) dasturi doirasida Farg'ona viloyati va boshqa ekologik nozik hududlarda amalga oshirilayotgan loyihalar buning yaqqol namunasidir.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) tomonidan esa qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. 2023-yilda OTB tomonidan Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida quyosh elektr stansiyalarini qurish uchun ajratilgan 200 million AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyasi [17] O'zbekiston tarixidagi eng yirik yashil investitsiyalardan biri hisoblanadi.


Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) esa 2017-yildan buyon O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida umumiy qiymati 600 million yevroga yaqin moliyalashtirish ajratgan. Bu mablag'lar energiya

samaradorligini oshirish, chiqindi boshqaruvi tizimini takomillashtirish va ekologik transport vositalarini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan.



1-rasm. Yashil moliyalashtirish jarayonida banklar faoliyatining asosiy yo‘nalishlari [18]

“Yashil” moliya turli moliyaviy vositalarni o‘z ichiga oladi, jumladan, “yashil” obligatsiyalar, “yashil” kreditlar va “yashil” aksiyalar. Ushbu vositalar ekologik toza loyihalar va bizneslarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. “Yashil” moliya bir qancha yondashuvlarni o‘z ichiga oladi, jumladan, mikro-moliya, barqaror fondlar, ijtimoiy manfaat keltiruvchi aktivlar, faol aksiyadorlik, barqaror rivojlanish kreditlari va moliyaviy tizimdagi o‘zgarishlar. “Yashil” moliya butun dunyo bo‘ylab barqaror korxonalar va kompaniyalarni rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.



2-rasm. Yashil moliyaning asosiy segmentlari [18]

2-rasmda sxematik tuzilma yashil moliyaning ko‘p qirrali va kompleks

xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Har bir segment moliya tizimi orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashda o'ziga xos funksiyani bajaradi. Shu bois, yashil moliyaning tizimli yondashuvi nafaqat milliy, balki global darajada ham barqaror rivojlanish siyosatining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ma'lumotlariga ko'ra, Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish (GEFF) dasturining pilot bosqichi doirasida Markaziy Osiyoda jami 170 million AQSh dollari miqdorida loyiha portfeli moliyalashtirilgan.

1-jadval

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish (GEFF) dasturi doirasida yashil moliyalashtirish (mln. AQSh dollari) [16]

Davlat	Pilot bosqich (yil)	Moliyalashtirish (mln USD)	Keyingi bosqich rejalashtirilgan hajmi (mln USD)
Qozog'iston	2020-2023	30	150
Qirg'iziston	2012-2022	55	50
Tojikiston	2019-2023	25	50
O'zbekiston	2019-2022	60	90
Jami:	-	170	340

1-jadvalda Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish (GEFF) dasturi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlarida amalga oshirilgan va rejalashtirilgan yashil moliyalashtirish hajmlari keltirilgan. Jadvalda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston bo'yicha 2012-2023 yillar oralig'ida moliyalashtirilgan pilot bosqichlar hamda istiqboldagi keyingi bosqichlar uchun rejalashtirilgan investitsiyalar ko'rsatilgan. Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatlar kesimida yashil moliyaviy infratuzilmaning shakllanish darajasini, milliy bank-moliya tizimlarining GEFF kabi xalqaro tashabbuslarni qabul qilishga tayyorligini va ekologik loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining shakllanish sur'atlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Yashil obligasiyalar - bu ekologik yoki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan maxsus qarz majburiyatlari. Yashil obligasiyalar bo'yicha yig'ilgan mablag'lar faqat ekologik toza, iqlimga moslashgan yoki barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi loyihalarda ishlatiladi.

Yashil obligasiyalar ortidagi asosiy motiv qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi, barqaror qishloq xo'jaligi, toza suv hamda yashil qurilish loyihalari kabi atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni moliyalashtirishdir. Maqsad nafaqat moliyaviy daromad olishni, balki atrof-muhitni

muhofaza qilish maqsadlariga hissa qo'shmoqchi bo'lgan investorlar uchun jozibador bo'lgan obligasiyani yaratish edi. 2013-yil London shahrida yashil obligasiyalar uchun standartlarni aniqlash hamda targ'ib qilishga yordam beruvchi Iqlim obligasiyalari tashabbusi (Climate Bonds Initiative, CBI) ishga tushirildi. Ushbu sa'y-harakatlar yashil obligasiyalar bozorining o'sishiga yordam berdi hamda bunda faqat yashil obligasiyalardan tushgan daromad ekologik barqaror loyihalar uchun moliyalashtirishni ta'minladi. Vaqt o'tishi bilan bozor sezilarli darajada o'sib, moliyalashtiriladigan loyihalar turlarining kengayib bordi. Bugungi kunda yashil obligasiyalar hukumatlar, xalqaro tashkilotlar hamda xususiy kompaniyalar tomonidan barqaror infratuzilma hamda iqlim harakati uchun moliyalashtirishni ta'minlash uchun qo'llaniladigan yaxshi tasdiqlangan moliyaviy vosita hisoblanadi.

Yashil obligasiyalar birinchi navbatda, obligasiyalarni chiqarishdan tushgan mablag'lardan foydalanish atrofida aylanadi, bu esa aniq ekologik foyda keltiradigan loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi kerak.



3-rasm. Yashil obligasiyalarning shakllanish tarkibi [18]

1. Yashil obligasiyaning eng muhim elementi uning ekologik barqarorlikka hissa qo'shadigan loyihalarni moliyalashtirishga qaratilganligidir. Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi: Qayta tiklanadigan energiya loyihalari (quyosh, shamol, suv hamda boshqalar); Energiya samaradorligi (infratuzilmani yangilash, sanoat jarayonlarini takomillashtirish); Yashil binolar qurilishi (LEED sertifikatiga ega binolar yoki boshqa barqaror standartlar); Barqaror qishloq hamda o'rmon xo'jaligi (o'rmonlarni qayta tiklash, barqaror dehqonchilik); Toza transport (elektr transport vositalari, jamoat transporti tizimlari); Suv hamda chiqindilarni boshqarish

(toza suvga kirish, chiqindilarni qayta ishlash).

2. Yashil obligasiyalar emitentlari ko‘pincha moliyalashtirilgan loyihalar tomonidan erishilgan ekologik natijalar to‘g‘risida shaffof hisobot berishga majburdirlar. Bunga quyidagilar kiradi: Uglerod chiqindilarining kamayishi; Qayta tiklanadigan energiya quvvatini oshirish; Energiyani tejash yoki chiqindilarni kamaytirish; Odatda kelishilgan ko‘rsatkichlar yoki standartlarga asoslangan boshqa o‘lchanadigan ekologik imtiyozlar (masalan, chiqindilarni kamaytirish, investitsiya qilingan dollar uchun energiyani tejash).

3. Ko‘pgina yashil obligasiyalar belgilangan ekologik standartlarga javob berishini ta‘minlash uchun uchinchi tomon tekshiruvidan o‘tadi. Ushbu sertifikatlar mustaqil tashkilotlardan olinishi mumkin, masalan: Iqlim obligasiyalari tashabbusi (CBI) sertifikati; Yashil obligasiyalarni chiqarish uchun ko‘rsatmalar bo‘lgan Yashil obligasiya tamoyillari (GBP); Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) standartlari; Bu investorlarga o‘z sarmoyalari atrof-muhit uchun foydali loyihalarni haqiqatan ham moliyalashtirayotganini ta‘minlashga yordam beradi.

4. Yashil obligasiyalar ko‘pincha emitentlarning o‘z loyihalarini ma‘lum ekologik mezonlarga muvofiqlashtirish majburiyatlari bilan birga keladi. Ushbu majburiyatlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin: Obligasiya tushumlari yashil bo‘lmagan loyihalarga yo‘naltirilmasligiga ishonch; Moliyalashtirilgan loyihalarning atrof-muhitga ta‘sirini doimiy monitoring qilish hamda baholash; Harakat hamda natijalar haqida investorlarga muntazam hisobot berish.

5. Har qanday boshqa obligasiyalar singari, yashil obligasiyalar ham odatdagi moliyaviy shartlar bilan birga keladi: Kupon stavkasi - obligasiyalar egalariga to‘lanadigan foiz stavkasi; To‘lov sanasi - obligasiyaning asosiy summasi qaytarilgan sana; Kredit reytingi - investor ishonchiga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan obligasiya riskini baholash.

6. Ko‘pgina emitentlar obligasiyalar orqali jalb qilingan mablag‘larni qanday boshqarish hamda taqsimlashni rejalashtirganligi haqida batafsil ma‘lumot beruvchi “Yashil obligasiyalar doirasi”ni belgilaydilar. Bunda loyihalarni tanlashning ekologik mezonlarini, fondni taqsimlash jarayonini, hisobot hamda oshkor qilish amaliyotini hamda ta‘sirni baholash metodologiyalarini belgilaydi:


Umuman olganda, yashil obligasiyalarning mazmuni shaffoflik hamda investorlarga ularning mablag‘lari atrof-muhitni mazmunli hamda o‘lchanadigan yaxshilanishlarni qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatilishiga ishonchni ta‘minlash uchun mo‘ljallangan.

Yashil obligasiyalarning asosiy uchta xususiyatlari mavjud, bular:

Eko-yo‘naltirilganlik - mablag‘lar quyosh, shamol hamda boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini boshqarish kabi ekologik loyihalarga sarflanadi.


Shaffoflik hamda kuzatuvchanlik - yashil obligasiyalar bo‘yicha hisobdorlik darajasi yuqori, ya‘ni investorlar mablag‘larning qanday ishlatilayotgani haqida muntazam hisobot olishadi.

Xalqaro standartlar - ular Green Bond Principles (GBP) yoki Climate Bonds Initiative (CBI) kabi xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqiladi.



4-rasm. Yashil obligasiyalarga bo‘lgan ehtiyojning kelib chiqish sabablari [18]

So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi hamda barqaror rivojlanish sohasidagi global muammolarning kuchayib borishi tufayli yashil obligasiyalarga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshdi. Ushbu moliyalashtirish vositalari iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalar uchun kapitalni jalb qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.



5-rasm. 2023-yilda yashil obligatsiyalar bo'yicha yetakchi davlatlar va chiqarilgan mablag'lar hajmi [14]

Tahlillar natijasida 5-rasmda 2023-yilda, dunyo bo'yicha "yashil" obligatsiyalar chiqarish sohasida yetakchi davlatlar reytingi tasvirlangan. Ushbu reyting ma'lumotlari ko'ra, Xitoy xalqaro moliya bozorida eng yirik "yashil" obligatsiyalar chiqaruvchi sifatida tan olingan. Ushbu mamlakat 1 yil davomida 80 milliard AQSh dollaridan ortiq "yashil" obligatsiyalarni ishlab chiqarishga erishdi. Ushbu ko'rsatkich Xitoyni global yetakchi ekanligini hamda atrof-muhit va ekologik xavf xatarlarga qarshi kurashishda faol ishtirokini bildiradi. Germaniya 60 milliard dollar atrofida "yashil" obligatsiyalarni chiqarib, Yevropa ittifoqining "yashil" yuragi sifatida tan olindi. Ushbu davlatda nafaqat hukumat balki banklar va sanoat korxonalari yashil obligatsiyalar orqali ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirib kelmoqda. 50 milliard dollardan ko'proq qiymatdagi "yashil" obligatsiyalarni emissiya qilgan AQShda xususiy sektorning ustunligi ushbu bozorning rivojlanishida muhin ro'l o'ynadi. Asosan, 3-rasmda keltirilgan ko'rsatkichlar energetika, texnologiya hamda transport sohalariga to'g'ri keladi va 1500 ta emitent ushbu bozorga kirishini taminladi.

Buyuk Britaniya 2023-yilda suveren yashil obligatsiyalar ishlab chiqargan davlatlar orasida faol ishtirok etdi va 22,5 milliard dollar qiymatdagi obligatsiyalarni ishlab chiqarishga erishdi. Xalqaro moliya tashkilotlari (XMT), jumladan, Yevropa investitsiya banki (EIB), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) kabi davlatlararo moliyaviy institutlar mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda faol ishtirok etdi va 2023-yilga kelib qariyb 23 milliard AQSh dollari miqdorida "yashil" obligatsiyalar chiqarishga

erishdi.

2023-yildagi “yashil” obligatsiyalarga oid ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, “yashil” obligatsiyalar jahon moliyaviy bozorida muhim vosita sifatida qabul qilinmoqda va ushbu bozorda Xitoy, Germaniya, AQSh va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlar yetkchilik qilmoqda. Ushbu davlatlarning “yashil” moliya sohasini jadallashtirishga oid tajribasi iqlim o’zgarishi, ekologik xavf-xatarlarni ortishiga qarshi kurashishda O’zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun namuna sifatida muhim o’rin tutadi.

2-jadval

O’zbekistonda iqlim bo’yicha xarajatlar tuzilmasi (2020–2022) [15]

		2020	2021	2022
Yumshatish	milliard sum	205.1	535.3	612.7
Moslashish		14 264.8	15 966.3	24 414.8
Birgalikda ta’sir		409.0	308.3	274.8
Jami		14 878.9	16 809.8	26 302.4
Yumshatish	%	1.4	3.2	2.3
Moslashish		95.9	95.0	96.6
Birgalikda ta’sir		2.7	1.8	1

2-jadvalda ko’rsatilganidek O’zbekiston Respublikasida 2020–2022-yillar davomida iqlim o’zgarishiga qarshi kurashish va unga moslashish bo’yicha davlat byudjetidan ajratilgan mablag’larning yo’nalishlar bo’yicha taqsimoti keltirilgan.

Yumashatishga oid mablag’lar issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan bo’lib, asosan energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik transportni joriy etishga yo’naltiriladi. 2020-yilda bu xarajatlar 205,1 milliard so’mni tashkil etgan bo’lsa, 2022-yilga kelib 612,7 milliard so’mga yetgan. Biroq ulush jihatidan u hali ham past darajada – 2022-yilda jami iqlim xarajatlarining atigi 2,3% ini tashkil qiladi.

“O’zsanoatqurilishbank”ning ESG kun tartibi va eng yaxshi ijtimoiy hamda ekologik mas’uliyatli amaliyotlarni joriy etishdagi muvaffaqiyatlari barqaror ESG reytinglarida aks etmoqda. Olingan baholar bank faoliyatidagi kuchli tomonlarni va rivojlanish yo’nalishlarini aniqlashga yordam beradi hamda ESG transformatsiya-sining keyingi bosqichlarini rejalashtirishda asos bo’lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqoti davomida tijorat banklarining investitsiya salohiyatini yashil obligatsiyalar chiqarish orqali takomillashtirish chuqur tahlil qilindi.

Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi hamda uning sanoat tuzilmasining o’zgarishi yangi moliyalashtirish vositalarini talab qiladi hamda yashil obligatsiyalar

bozorining muvaffaqiyatli rivojlanishiga qanday erishish mumkinligi masalasi moliya sektorida dolzarb bo'lib qoladi.

Hozirgi bosqichda yashil obligasiyalar bozorining xususiyatlarini o'rganish uning rivojlanishining asosiy muammolari hamda istiqbollarini aniqlashga imkon beradi. Turli standartlar yashil obligasiyalarni turli yo'llar bilan belgilashi ko'rsatilgan, ammo umuman olganda, ta'rif ekologik jihatdan foydali bo'lgan hamda barqaror rivojlanishni rag'batlantirish uchun ekologik toza moliyaviy vosita sifatida ishlaydigan loyihalar yoki faoliyatga sarmoya kiritishni nazarda tutadi. Ushbu maqsad doirasida yashil tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning kuchayishi tobora ko'proq kompaniyalarni kam uglerodli, toza hamda barqaror yo'nalishda rivojlanishga undaydi hamda shu bilan yashil obligasiyalar chiqarilishini rag'batlantiradi. Shunday qilib, yashil obligasiyalar bozorda ulkan o'sish potentsialiga ega hamda atrof-muhitni muhofaza qilish hamda barqaror rivojlanish loyihalari uchun katta moliyaviy yordam ko'rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" PQ-4477-sonli qarori.

2. Vahobov A.V., X. Hojiboqiev va b. Yashil iqtisodiyot. Darslik. – T.: Universitet, 2020. – 296 b.;

3. Иминов Т.К., Вахобов А.В. и др. "Зелёная экономика" как основа устойчивого развития. Монография. -Т: 2019. "Алоқачи", 480 – б.;

4. Исаджанов А. "Яшил иқтисодиёт": хусусиятлари ва ривожланиш омиллари. Иқтисодиёт ва таълим / 2020, № 1. – Б. 12-18.;

5. Mo'minova E.A. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2023, 1 (161). – б. 16-22.;

6. Nazarov S., Karimov A. "Yashil iqtisodiyot va moliya: O'zbekiston tajribasi", Toshkent, 2022.;

7. N.N.Oblomuradov "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. 2024-yil. 76 b.;

8. Bannapov, F. (2022). Yashil obligatsiyalar va ularning keng ko'lamli rivojlantirish imkoniyatlari. *MOLIYA VA BANK ISHI*, 8 (3), 68-72. Retrieved from <https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/34>

9. R.Xusainov. "Яшил облигациялар яшил иқтисодиёт ривожланишини жадаллаштиради". Тошкент халқаро таълим университети. "Иқтисодий шарҳ"

журнали №12/2022;

10. Nosirov E.I. “Yashil” obligatsiyalarni muomalaga chiqarishning nazariy va amaliy jihatlari. «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali Vol. 1 No. 10 (2023);

11. Одинаев Д.Ш. Жаҳонда «яшил иқтисодиёт» нинг энергетика соҳасига йўналтирилган инвестицияларнинг ҳозирги ҳолати таҳлили ва ривожланиш тенденциялари. <https://cyberleninka.ru/article/n>

12. Lvov D. Moliyaviy barqarorlik asoslari, 2019.

13. Ning. Z. Sustainable Finance in Developing Economies, Beijing 2018.

14. Climate Bonds Initiative (2024). *Sustainable Debt Global State of the Market 2023*.

15. United Nations Development Programme (UNDP), French Development Agency (AFD), & Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. (2024). “Climate Public Expenditure and Institutional Review: Uzbekistan

16. <https://www.climatebonds.net/resources/reports/2023-market-summary>

17. <https://www.adb.org/news/adb-supports-solar-power-development-uzbekistan-200-million-loan>

18. Muallif ishlanmasi

Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o‘g‘li
– SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrası
dotsenti, PhD

ORCID: 0000-0002-6819-6543

e-mail: lazizmakhmudov90@gmail.com

O‘zbekistonda elektron tijorat platformalarida kiberxavfsizlik va ma’lumotlar himoyasi tahlili

Annotatsiya: maqola elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlari tahlil qiladi. Kiberhujumlar, ma’lumotlar maxfiyligi va firibgarlik kabi tahdidlarning turlari va tasnifi ko‘rib chiqiladi. Shifrlash protokollari, ko‘p faktorli autentifikatsiya, to‘lov shlyuzlari va boshqa xavfsizlik tizimlarining roli yoritiladi. Mijozlar ishonchini oshirish, raqobatbardoshlikni ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun xavfsizlik choralarining ahamiyati ta’kidlanadi. O‘zbekistonda huquqiy bazani takomillashtirish va raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, xavfsizlik tizimlari, kiberhujumlar, ma'lumotlar maxfiyligi, mijozlar ishonchi, shifrlash protokollari, ko'p faktorli autentifikatsiya, to'lov shlyuzlari, firibgarlik, raqamli savodxonlik, huquqiy asoslar, DDoS hujumlari, SQL in'ektsiyalari, saytlararo skript, yashil logistika.

Abstract: the article analyzes the security aspects of e-commerce platforms. It examines the types and classification of threats, including cyberattacks, data privacy issues, and fraud. The role of encryption protocols, multi-factor authentication, payment gateways, and other security systems is highlighted. The importance of security measures in enhancing customer trust, ensuring competitiveness, and achieving economic efficiency is emphasized. Recommendations are provided for improving the legal framework and increasing digital literacy in Uzbekistan.

Keywords: e-commerce, security systems, cyberattacks, data privacy, customer trust, encryption protocols, multi-factor authentication, payment gateways, fraud, digital literacy, legal framework, DDoS attacks, SQL injections, cross-site scripting, green logistics.

Introduction (Kirish)

Hozirgi kunda elektron tijorat dunyo bo'ylab iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Foydalanuvchilarning tovar va xizmatlarga onlayn buyurtma berishi odat tusiga kirayotgan bir davrda, elektron tijorat platformalari mijozlarga qulaylik yaratish bilan birga, xavfsizlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratishi zarur bo'lib qolmoqda.

Xavfsizlik masalalari nafaqat foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, balki ular orasida ishonchni mustahkamlash va raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham zarurdir. Ma'lumotlarning buzilishi, kiberhujumlar va firibgarlik holatlari platformalar uchun katta xavf tug'diradi. Shu bois, xavfsizlik bo'yicha chuqur tahlil olib borish nafaqat xavf-xatarlarni aniqlash, balki ularning oldini olishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlari tahlil qilinishi zarur, chunki bu jarayon bir qator muhim sabablarni o'z ichiga oladi:

1. Ma'lumotlarning maxfiyligi va yaxlitligi⁷. Elektron tijoratda ma'lumotlar, masalan, mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlari, doimiy ravishda xavf ostida bo'ladi. Xavfsizlik modellarini tahlil qilish orqali ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va ularni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish mumkin. Bu, o'z

⁷ Maxmudov L.U. Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijorat operatsiyalarini amalga oshirishning konseptual modellari. / <https://cyberleninka.ru/article/n/xizmat-ko-rsatish-sohasida-elektron-tijorat-operatsiyalarini-amalga-oshirishning-konseptual-modellari/viewer>

navbatida, mijozlar ishonchini oshiradi va platformaning obro'sini saqlab qolishga yordam beradi.

2. Tahdidlar va hujumlar. Elektron tijorat platformalari turli xil tahdidlarga duch keladi, jumladan, kiberhujumlar, viruslar va boshqa zararli dasturlar⁸. Xavfsizlik jihatlarini tahlil qilish orqali bu tahdidlarga qarshi samarali himoya choralari ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

3. Huquqiy va tartibga solish masalalari. O'zbekistonda elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunlar mavjud bo'lsa-da, ularda hali ham bo'shliqlar mavjud⁹. Xavfsizlik jihatlarini tahlil qilish orqali qonunchilikni takomillashtirish va yangi xavfsizlik standartlarini joriy etish uchun zarur bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

4. Mijozlar ishonchi. Mijozlar onlayn xarid qilishda xavfsizlikni birinchi o'ringa qo'yadilar. Agar platforma xavfsizlikni ta'minlasa, bu mijozlarning ishonchini oshiradi va xarid qilish faoliyatini kengaytiradi¹⁰. Tahlil natijalari asosida mijozlarni xabardor qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash uchun strategiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

5. Raqobatbardoshlik. Hozirgi raqobat yuqori bo'lgan bozor sharoitida elektron tijorat platformalari o'z xavfsizlik darajalarini oshirish orqali raqobat ustunligini qo'lga kiritishi mumkin¹¹. Tahlil qilish orqali eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash va joriy etish mumkin. Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini tahlil qilish nafaqat ma'lumotlarni himoya qilish, balki biznesning muvaffaqiyatli ishlashi uchun ham muhimdir. Bu jarayon orqali xavf-xatarlarni aniqlash, mijoz ishonchini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda elektron tijoratni tartibga soluvchi qonunchilikning rivojlanayotganiga qaramay, xavfsizlik masalalarida hali ko'plab bo'shliqlar mavjud. Ushbu maqola elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini tahlil qilish, asosiy tahdidlar va himoya choralari aniqlash hamda O'zbekiston sharoitida xavfsizlik tizimlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda kiberxavfsizlikning zamonaviy texnologiyalari, huquqiy

⁸ <https://srcyrl.goldenwellgermany.com/news/risks-and-avoidance-of-my-country-s-foreign-tr-68900033.html>

⁹ Mustafayeva F.Sh. O'zbekistonda elektron tijorat tizimlari qo'llanilishining joriy holatini tahlil qilish ("foton" aj misolida). Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). / 2024 / <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-elektron-tijorat-tizimlari-qo-llanilishining-joriy-holatini-tahlil-qilish-foton-aj-misolida>

¹⁰ <https://sciencebox.uz/index.php/sjeg/article/view/5237>

¹¹ Mustafayeva F.Sh. O'zbekistonda elektron tijorat tizimlari qo'llanilishining joriy holatini tahlil qilish ("foton" aj misolida). Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). / 2024 / <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-elektron-tijorat-tizimlari-qo-llanilishining-joriy-holatini-tahlil-qilish-foton-aj-misolida>

asoslar va foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish masalalari muhokama qilinadi.

Methods (Metodlar)

Ushbu tadqiqotda elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini tahlil qilish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Asosiy metod sifatida tahliliy va tasniflash yondashuvlari ishlatildi, bu esa kiberxavfsizlik tahdidlarini turlarga ajratish va ularning platformalarga ta'sirini baholash imkonini berdi. Xavfsizlik tizimlarini baholashda funkcionallik, joylashuv va ishlash prinsipi bo'yicha tasniflash amalga oshirildi, bu tizimlarning samaradorligini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqotda shifrlash protokollari (SSL/TLS), ko'p faktorli autentifikatsiya, to'lov shlyuzlari va boshqa xavfsizlik choralarining texnik xususiyatlari tahlil qilindi. O'zbekistonda xavfsizlik masalalarini o'rganish uchun normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunchilik tahlil qilindi. Bundan tashqari, global miqyosda qo'llaniladigan xavfsizlik standartlari (masalan, PCI DSS) va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi ko'rib chiqildi. Ma'lumotlar manbai sifatida ilmiy adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va elektron tijorat platformalarining amaliy tajribalari (masalan, Uzum Market, Click, PayMe) ishlatildi. Foydalanuvchilar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda xaridorlarning raqamli savodxonligini oshirish va kiberxavfsizlik bo'yicha treninglarning ahamiyati alohida e'tiborga olindi. Ushbu metodlarning kombinatsiyasi orqali elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini chuqur tahlil qilinib, O'zbekistonda sohani rivojlantirish uchun amaliy yechimlar taklif etildi.

Results (Natijalar)

Tahdidlar kiber jinoyatchilar tomonidan amalga oshiriladigan hujumlar va firibgarliklarni o'z ichiga oladi. Quyida elektron tijoratda ko'p uchraydigan asosiy tahdidlar batafsil keltirilgan:

1. Hisobni qo'lga olish (Account Take Over - ATO). ATO foydalanuvchi hisoblarini egallash uchun login ma'lumotlarini o'g'irlashni o'z ichiga oladi. Bu usul orqali jinoyatchilar karta ma'lumotlarini olish yoki foydalanuvchi hisobidan ruxsatsiz xaridlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. "ATO barcha firibgarlik yo'qotishlarining taxminan 29.8 foizni ga tengdir"¹².

2. Chatbot imposter. Firibgarlar soxta chatbotlarni yaratib, foydalanuvchilardan shaxsiy ma'lumotlarni olishga harakat qiladilar.

¹² <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>

Foydalanuvchilar qonuniy va soxta chatbotlar orasidagi farqni ajrata olmaydi. “Bunday firibgarlik harakatlari barcha firibgarliklarning 24.1 foizini tashkil etadi”¹³.

3. Orqa eshik fayllari. Kiber jinoyatchilar zararli dasturlarni kiritish uchun eskirgan plaginlar yoki himoyalangan kirish nuqtalaridan foydalanadilar. Bu orqali ular kompaniyaning barcha ma'lumotlariga, shu jumladan mijozlarning shaxsiy ma'lumotlariga kirish huquqiga ega bo'lishadi. “Barcha hujumlarning 6.4 foizni orqa eshik fayllaridan kelib chiqadi”¹⁴.

4. SQL injection. Hujumchilar onlayn shakllar va URL so'rovlaridan foydalanib, ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz kirishga harakat qiladilar. Bu usul orqali shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash mumkin. “SQL injection hujumlari barcha hujumlarning 8.2 foizni ni tashkil etadi”¹⁵.

5. Saytlararo skript (Cross-Site Scripting - XSS). “XSS hujumlari xakerlarga foydalanuvchi brauzeri orqali boshqa foydalanuvchilar tomonidan ko'riladigan veb-sahifalarga zararli skriptlarni kiritishga imkon beradi. Bu xakerlarga kirish boshqaruvlarini chetlab o'tish va shaxsiy ma'lumotlarga kirish imkonini beradi”¹⁶.

6. Ransomware (tovlamachi-viruslar). “Ransomware zararli dasturlari foydalanuvchilarning ma'lumotlarini shifrlab, ularni qaytarish uchun pul talab qiladi. Ushbu viruslar ko'pincha fishing xatlari orqali tarqatiladi. Tashkilotlarning axborot tizimlariga ruxsatsiz kirish va buzg'unchilik maqsadida foydalaniladi”¹⁷.

7. IOT qurilmalariga hujum. “Internetga ulangan qurilmalar (masalan, kameralar va sensorlar) orqali amalga oshiriladigan hujumlar, bu qurilmalar ko'pincha xavfsizlik choralari ega emas. Bu turdagi tahdidlar tashkilotlarning axborot tizimlariga ruxsatsiz kirishga olib kelishi mumkin”¹⁸.

Elektron tijoratdagi tahdidlarni bartaraf etish uchun elektron tijorat kompaniyalari xavfsizlik choralari kuchaytirishi va foydalanuvchilarga shubhali faoliyatlardan ehtiyot bo'lishni tavsiya qilishi zarurdir. Xaridorning malakasi elektron tijatdan xavfsiz foydalanishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston hamda boshqa mamlakatlarda ham elektron tijoratning rivojlanishi bilan birga, xaridorlarning raqamli savodxonligi va kiberxavfsizlik bo'yicha bilimlarini oshirib borish zarur. Malakali xaridorlar onlayn muhitda firibgarlik va kiberhujumlardan o'zlarini himoya qilishda, to'g'ri va ishonchli ma'lumotlarni tanlashda, shuningdek, xavfsiz to'lov

¹³ <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>

¹⁴ <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>

¹⁵ <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>

¹⁶ <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>

¹⁷ Akbarova M.R., Akbarov J.M. / Axborot xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlar. / "Экономика и социум" №6(85) ч.1 2021// <https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-xavfsizligiga-bo-ladigan-tahdidlar>

¹⁸ Akbarova M.R., Akbarov J.M. / Axborot xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlar. / "Экономика и социум" №6(85) ч.1 2021// <https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-xavfsizligiga-bo-ladigan-tahdidlar>

tizimlaridan foydalanishda tajribali bo‘lishadi. Bunday xaridorlar, shuningdek, elektron tijorat platformalarini samarali va xavfsiz ishlatish uchun zarur bo‘lgan texnik ko‘nikmalarga ega bo‘lib, bu esa ularning onlayn xarid qilish tajribasini yaxshilaydi va umumiy xavfsizlikni oshiradi. Shunday qilib, xaridorning malakasi nafaqat individual foydalanuvchining manfaatlariga, balki elektron tijorat ekotizimining barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Xavfsizlikni ta'minlovchi texnologiyalar va amaliyotlar	•HTTPS va SSL/TLS sertifikatlari bilan himoyalangan saytlarni tanlash •Ikki faktorli autentifikatsiya (2FA) •Zararli dasturlardan himoya
Parolni boshqarish va hisobni himoyalash	•Kuchli va noyob parollardan foydalanish •Parol menejerlari •Hisob ma'lumotlarini maxfiy saqlash
Ishonchli platformalar va sotuvchilarni tanlash	•Reyting va sharhlarni tekshirish •Taniqli platformalardan foydalanish •Firibgarlikdan ehtiyot bo'lish
To'lov jarayonida xavfsizlik choralarini ko'rish	•Xavfsiz to'lov usullaridan foydalanish •Virtual kartalar va limitlangan hisoblar •To'lovlarni tasdiqlash uchun ikki faktorli tizim
Xarid jarayonida e'tiborli bo'lish	•Sayt manzilini tekshirish •Mahsulotning to'liq tavsifini o'qish •Cheklovlarni tushunish
Foydalanuvchilar xabardorligini oshirish	•Kiberxavfsizlik bo'yicha bilimlarni kengaytirish •Firibgarlik sxemalari haqida ogohlantirishlardan foydalanish •Spam va phishing xabarlardan ehtiyot bo'lish
Savdolardan so'nggi choralar	•Hisobni muntazam nazorat qilish •Shikoyat qilish tartibini bilish •Shaxsiy ma'lumotlarni yangilash

1-rasm. Elektron tijoratdan xavfsiz xaridni amalga oshirish mexanizmi

1. **Texnologik xavfsizlik choralarini qo'llash.** HTTPS va SSL/TLS sertifikatlari bilan himoyalangan saytlar orqali xarid qilish ma'lumotlarning shifrlanishini ta'minlaydi. Masalan, Amazon yoki O'zbekistondagi Click tizimlari HTTPS protokolidan foydalanadi. Brauzerda "Not secure" belgisi paydo bo'lsa, bu

saytlardan foydalanish tavsiya etilmaydi. Ikki faktorli autentifikatsiya (2FA) tizimi, masalan, PayPal orqali SMS-kod bilan hisobga kirish, hisob xavfsizligini oshiradi.

2. Parollarni boshqarish va hisob xavfsizligini ta'minlash. Oddiy parollar (masalan, "12345") o'rniga murakkab parollar ("As foizni29_LmtF") tavsiya etiladi. LastPass yoki 1Password kabi parol menejerlari parollarni xavfsiz saqlash va eslab qolishda yordam beradi. Login va parollarni brauzerda saqlash tavsiya etilmaydi, ayniqsa umumiy kompyuterlarda.

3. Ishonchli platforma va sotuvchilarni tanlash. Xariddan avval sotuvchining reytingi va mijozlar sharhlarini o'rganish lozim. Masalan, AliExpressda xarid qilishdan oldin izohlar orqali firibgarlik xavfini kamaytirish mumkin. Bozor narxidan ancha arzon mahsulotlar, masalan, \$150 evaziga iPhone 15 taklif etilishi firibgarlik belgisi bo'lishi mumkin.

4. To'lov xavfsizligini ta'minlash. Visa, MasterCard kabi ishonchli to'lov tizimlari orqali to'lovlar amalga oshirilganda tranzaksiya himoyasi va mablag'ni qaytarib olish imkoniyati mavjud. Virtual kartalardan (Kapitalbank, Humo) foydalanish asosiy hisobni himoyalaydi. Click yoki PayMe kabi tizimlar orqali ikki faktorli tasdiqlash foydalidir.

5. Xarid jarayonida ehtiyotkorlik. Sayt manzillarining aniqligiga e'tibor berish zarur. Masalan, "www.amazonn.com" kabi qalbaki manzillar asl saytdan farqlanadi. Tovar tavsifi va kafolat shartlarini diqqat bilan o'rganish, sotuvchining qaytarib berish siyosatini tushunish muhim.

6. Foydalanuvchilar xabardorligini oshirish. Google Security Checkup kabi xizmatlar hisob xavfsizligini baholashda yordam beradi. Davlat xavfsizlik organlarining ogohlantirishlari, spam va fishing xabarlardan ehtiyot bo'lish, kiberjinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

7. Xariddan so'nggi nazorat choralari. Bank hisobini muntazam tekshirib borish, shubhali tranzaksiyalar aniqlansa zudlik bilan bankka murojaat qilish lozim. Firibgarlik holatida PayPal yoki Click orqali shikoyat yuborish va mablag'ni qaytarish imkoniyati mavjud. Login va parollarni davriy yangilab borish shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini oshiradi.

Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini mustahkamlash iqtisodiy samaradorlikka bir qator ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, xavfsizlikni ta'minlash xaridorlar o'rtasida ishonchni oshiradi, bu esa onlayn xaridlarni ko'paytiradi va sotuvlarning o'sishiga olib keladi. Xaridorlar xavfsiz muhitda xarid qilishni afzal ko'rishadi, bu esa kompaniyalarni raqobatbardosh qilishga yordam beradi. Ikkinchidan, mustahkam xavfsizlik choralari kiberjinoyatlardan himoya qiladi, bu esa

moliyaviy yo'qotishlarni kamaytiradi. Kiberhujumlar natijasida yuzaga keladigan zararlar, masalan, ma'lumotlarning o'g'irlanishi yoki moliyaviy firibgarlik, kompaniyalar uchun katta iqtisodiy xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday yo'qotishlarni oldini olish orqali kompaniyalar o'z resurslarini samarali ravishda rivojlantirishga yo'naltirishi mumkin bo'ladi. Uchinchidan, xavfsizlikning yuqori darajasi kompaniyaning obro'sini oshiradi va brend sodiqligini kuchaytiradi. Mijozlar ishonchli va xavfsiz xizmatlardan foydalanishni afzal ko'radilar, bu esa takroriy xaridlarni rag'batlantiradi va mijozlar bazasini kengaytiradi. Natijada, elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini mustahkamlash iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, raqobatbardoshlikni kuchaytirishga va moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirishga yordam beradi.

Discussion (Muhokama)

Elektron tijorat platformalarining xavfsizligiga tahdidlar xilma-xil shakllar va ko'rinishlarda namoyon bo'lib, ularning har biri platformalarning barqaror faoliyatiga va foydalanuvchilarning ma'lumotlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Tahdidlarni tahlil qilishda ularni asosiy turlarga bo'lish imkonini beruvchi klassifikatsiya muhim ahamiyatga ega.

1-jadval

Elektron tijoratdagi asosiy tahdidlar turlari

№	Turkumlar	Turlari	Tavsifi
1.	Ma'lumotlarga tahdidlar ¹⁹	Ma'lumotlarni o'g'irlash	Buzg'unchilar kredit karta raqamlari, manzillar, parollar va h.k. ka nozik ma'lumotlarni o'g'irlash uchun mijozlar ma'lumotlar bazasiga kirishga intiladi.
		To'lov firibgarligi	Kiberjinoyatchilar mijozlarni aldash va ularning to'lov mablag'lariga ruxsatsiz kirish uchun turli usullardan foydalanadilar.
		Fishing	Buzg'unchilar foydalanuvchilarni aldash maqsadida qonuniy onlayn do'konlarga taqlid qiluvchi soxta veb-saytlarni yaratadilar.
2.	Mavjudlikka tahdidlar ²⁰	DDoS hujumlari	Xizmatni rad etishning taqsimlangan hujumlari onlayn-do'kon serverlarini ortiqcha yuklashga qaratilgan bo'lib, bu sayt xizmat foydalanuvchilar uchun mavjud bo'lmazligiga olib keladi.
		Zararli dasturlar	Buzg'unchilar onlayn-do'kon serverlariga saytni buzishi yoki keyin hujumlar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan zararli dasturlar bilan zararlanishi mumkin.
3.	Yaxlitlikka tahdidlar ²¹	SQL in'ektsiyalar	Buzg'unchilar ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz kirish uchun veb-sayt ma'lumotlarini kiritish shakllariga zararli kodni kiritishlari mumkin.
		Saytlararo skript	Bu hujum tajovuzkorlarga foydalanuvchi ma'lumotlarini o'g'irlash

¹⁹ Оладько В.С. Угрозы информационной безопасности в системах электронной коммерции. Экономика и социум. 2015. / <https://cyberleninka.ru/article/n/ugrozy-informatsionnoy-bezopasnosti-v-sistemah-elektronnoy-kommertsii>

²⁰ <https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/information-security-threats-in-ecommerce/>

²¹ <https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/retail-cybersecurity-threatscape-2023/>

		(XSS)	yoki boshqa zararli harakatlarni amalga oshirish uchun veb-sahifalar kod kiritish imkonini beradi.
--	--	-------	--

Yuqoridagi ro'yxatda ko'rib turganingizdek, elektron tijorat platformalari uchun xavfsizlik tahdidlari xilma-xil va doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Ushbu tahdidlardan muvaffaqiyatli himoyalaniish uchun texnik xavfsizlik choralari ham, tashkiliy va huquqiy choralarni ham o'z ichiga olgan kompleks yechim talab qilinadi.

Elektron tijorat murakkab ekotizim bo'lib, unda xaridorlar, sotuvchilar va to'lov protsessorlari o'zaro ta'sir qiladi. Bunda, xavfsizlik tahdidlarini bir nechta mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin.

2-jadval

Elektron tijoratning xavfsizlikka tahdid guruhlari tasnifi

Kategoriya	Tur	Tavsif
Rejalashtirilishi bo'yicha	Qasddan bo'lmagan tahdidlar	Texnik nosozliklar yoki foydalanuvchi xatolari (masalan, server ishlamay qolishi)
	Qasddan qilingan tahdidlar	DDoS hujumlari kabi ataylab qilingan zararli harakatlar
Manbasi bo'yicha	Ichki tahdidlar	Xodimlarning beparvoligi yoki ma'lumot o'g'irlash kabi harakatlari
	Tashqi tahdidlar	Fishing, zararli dasturlar, DDoS hujumlari va firibgarlik
Maqsadi bo'yicha	Moliyaviy	Soxta tranzaksiyalar va to'lov ma'lumotlarini o'g'irlash
	Obro'-e'tiborga tahdid	Mijoz ma'lumotlari buzilishi yoki xizmatdagi uzilishlar
	Operatsion	Texnik nosozliklar va xizmatni rad etish hujumlari (DDoS)
Usullari bo'yicha	Ijtimoiy muhandislik	Fishing va manipulyatsiya orqali tizimga ruxsatsiz kirish
	Texnik hujumlar	Viruslar, troyanlar va zararli dasturlar orqali tizimga zarar yetkazish

Elektron tijorat platformalarining xavfsizlik tizimlari turli tahdidlarga qarshi himoya qilish uchun keng qamrovli va ko'p qatlamli yondashuvlardan foydalanadi. Bu tizimlar nafaqat texnik jihatdan, balki tashkiliy va operatsion xavfsizlikni ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, elektron tijorat platformalari uchun xavfsizlik tizimlari bir nechta mezonlarga ko'ra tasniflanishi mumkin.

1. Funktsionalligi bo'yicha. Xujumlarni oldini olish tizimlari (IPS): tarmoq trafigini tahlil qilib, xakerlik urinishlari, portlarni skanerlash va boshqa hujumlar kabi shubhali harakatlarni bloklashga qaratilgan bo'ladi. **Xujumlarni aniqlash tizimlari (IDS):** tarmoqni passiv ravishda kuzatib borib, potentsial tahdidlar haqida ogohlantiradi. **Fayervollar:** kiruvchi va chiquvchi tarmoq trafigini boshqaradi, ruxsatsiz kirishni bloklaydi. **Veb zaiflikdan himoya qilish (WAF) tizimlari:** veb-

ilovalarni SQL injection, XSS va boshqalar kabi keng tarqalgan hujumlardan himoya qiladi. **Anomaliyalarni aniqlash tizimlari:** foydalanuvchilar va tizimlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, normal sharoitlardan og'ishlarni aniqlaydi. **DDoS hujumidan himoya qilish tizimlari:** serverlarni haddan tashqari yuklanishiga va ularni ishlamay qolishiga qaratilgan tarqatilgan hujumlardan himoya qiladi.

2. Joylashuvi bo'yicha. Tarmoq: tarmoq perimetri va serverlarini himoya qiladi. **Xost:** shaxsiy serverlar va ish stantsiyalarida o'rnatilgan bo'ladi. **Bulutli:** xizmat sifatida taqdim etiladi va bulutli infratuzilmalarni himoya qilish imkonini beradi.

3. Ishlash prinsipiga ko'ra. Faol: real vaqtda tahdidlarni bloklashga qaratilgan ximoya tizimlari bo'ladi. **Passiv:** tarmoqni kuzatib boradi va ogohlantiradi.

Maksimal himoyani ta'minlash uchun turli xil texnik va tashkiliy chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvdan foydalanish kerak. Tahdidlarni muntazam tahlil qilish va xavfsizlik tizimini o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish muvaffaqiyatning asosiy omillari hisoblanadi.

Elektron tijorat platformalaridagi xavfsizlik tizimlari foydalanuvchi ma'lumotlarini, moliyaviy operatsiyalarni va biznesdagi obro'sini himoya qilishda asosiy rol o'ynaydi. Kibertahdidlar va firibgarlikning kuchayishi bilan samarali xavfsizlik tizimlari zaruratga aylanib bormoqda. Quyida elektron tijoratda foydalaniladigan xavfsizlik tizimlarining asosiy turlari, shuningdek, ularning funksional xususiyatlari keltirilgan.

1. Shifrlash protokollari. Secure Sockets Layer (SSL) va Transport Layer Security (TLS) protokollari mijoz va server o'rtasida uzatiladigan ma'lumotlarni shifrlashni ta'minlaydi. Bu karta raqamlari va foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlari kabi nozik ma'lumotlarini ushlashdan himoya qiladi. Barcha zamonaviy onlayn-do'konlar HTTPS (xavfsiz HTTP) dan foydalanishi kerak, bu veb-trafikni himoya qilish uchun standart protokoldir.

2. To'lov shlyuzlari. PayPal yoki Stripe kabi to'lov shlyuzlari ma'lumotlarning buzilishi xavfini minimallashtirib, xavfsiz to'lovlarni qayta ishlashni taklif qiladi. Ushbu tizimlar shifrlash va tokenizatsiyani o'z ichiga olgan ko'p qatlamli xavfsizlik mexanizmlaridan foydalanadi. Uchinchi tomon to'lov shlyuzlaridan foydalanishda karta ma'lumotlarini o'z serverlarida saqlashdan qochish imkonini beradi, bu esa o'g'rilik xavfini kamaytiradi.

3. Ko'p faktorli autentifikatsiya (MFA). Ko'p faktorli autentifikatsiya foydalanuvchilardan hisobga kirishdan oldin bir nechta identifikatsiya shakllarini taqdim etishlarini talab qiladi. Bu parollar, SMS kodlari yoki biometrik

ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ko'pgina e-tijorat platformalari foydalanuvchi hisoblarini ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun MFAni qo'llaydi.

4. Antivirus dasturlari va ruxsatsiz kirishni oldini olish tizimlari (IPS).

Antivirus dasturlari tizimlarni zararli dasturlardan himoya qiladi va IPS tarmoq trafiginı shubhali harakatlar uchun nazorat qiladi hamda real vaqtda hujumlarning oldini oladi. Antivirus yechimlari va IPS-dan foydalanish onlayn-do'kon serverlarini DDoS yoki SQL injectionlari kabi hujumlardan himoya qilishga yordam beradi.

5. Fayervollar. Fayervollar kiruvchi va chiquvchi trafikni nazorat qiladi, potentsial xavfli ulanishlarni filtrlaydi. Ular apparat yoki dasturiy ta'minot bo'lishi mumkin. E-tijorat serverlarida xavfsizlik devorlarini sozlash ichki tizimlarga ruxsatsiz kirishni oldini olishga yordam beradi.

6. Xodimlar va mijozlarni o'qitish. Xodimlarni kiberxavfsizlik asoslariga o'rgatish, mijozlarni fishing xatarlari va boshqa tahdidlar haqida xabardor qilish ham xavfsizlik tizimining muhim qismidir. Fishing hujumlarini aniqlash bo'yicha xodimlarni muntazam ravishda o'qitish ma'lumotlar sizib chiqishi xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

7. Tartibga solish va muvofiqlik. PCI DSS (Payment Card Industry Data Security Standard) kabi xalqaro ma'lumotlar xavfsizligi standartlariga muvofiqlik to'lov ma'lumotlarini himoya qilish uchun zarur. E-tijorat kompaniyalari PCI DSS talablariga muvofiqligini tasdiqlash uchun muntazam tekshiruvdan o'tishi kerak.

Kiberjinoyatlar ko'payishi va mijoz ishonchini saqlash zarurati platformalar uchun xavfsizlikni ustuvor vazifa etib belgilaydi. Ishonchli muhit yaratish nafaqat platformalar, balki foydalanuvchilar uchun ham muhim, chunki ularning e'tiborsizligi moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, elektron tijoratni tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish ham dolzarb masalalardan biridir.

Xavfsizlikni ta'minlash uchun platformalar shifrlash texnologiyalaridan foydalanishi, ikki faktorli autentifikatsiya va kuchli parol tizimlarini joriy qilishi, muntazam yangilanishlarni amalga oshirishi lozim. Xaridorlarni firibgarliklardan himoya qilish uchun ularni xabardor qilish va zarur maslahatlar berish ham samarali choradir. Elektron tijoratning barqaror rivojlanishi xavfsizlik choralari ga bevosita bog'liq bo'lib, bu nafaqat platformalar, balki butun sohaning ishonchliligini oshiradi.

3-jadval

Elektron tijorat foydalanuvchilari eng ko'p duch kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar²²

№	Tahdidlar guruhlari	Tahdidlar turlari	Tavsifi
1.	Ma'lumotlarning o'g'irlanishi va shaxsiy xavfsizlikka tahdidlar	Shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi	Xaridorning ism-sharifi, manzili, telefon raqami kabi ma'lumotlar xavfsizlik devorlarining buzilishi yoki fishing hujumlari natijasida o'g'irlanishi mumkin.
		Moliyaviy ma'lumotlarning buzilishi	Karta raqamlari, bank hisoblari yoki elektron hamyon ma'lumotlari firibgarlik uchun asosiy nishonga aylanishi mumkin.
		Shaxsiy hayotga tajovuz	Xaridorning xaridlar tarixini kuzatish yoki ma'lumotlarni reklama maqsadida noqonuniy ishlatish.
2.	Firibgarlik va soxta operatsiyalar	Fishing (soxta veb-saytlar)	Xaridorni haqiqiy platformadan farq qilmaydigan soxta saytga yo'naltirish orqali login va parollarni o'g'irlash.
		Qalbaki to'lov sahifalari	To'lov paytida haqiqiy emas, soxta tizimlarga yo'naltirilish.
		Qalbaki tovarlar va xizmatlar	Ishonchsiz sotuvchilar tomonidan sifatli tovarlar nomidan sifatsiz yoki mavjud bo'lmagan tovarlar taklif qilinishi.
		To'lovlar qaytarilmasligi	Xaridor pulni to'laganidan keyin tovar yoki xizmatni olmasligi va pullarni qaytarib ololmasligi.
3.	Tizim va texnologik tahdidlar	Kiberhujumlar va xakerlik	Elektron tijorat platformalariga qarshi kiberhujumlar, masalan, DDoS hujumlar orqali tizimlarning ishdan chiqishi yoki ma'lumotlarning buzilishi.
		Texnologik nosozliklar	To'lov tizimlarida yoki platforma infratuzilmasida yuzaga kelgan muammolar, ma'lumotlarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.
		Zararli dasturlar	Xaridor qurilmalariga zarar yetkazadigan viruslar yoki troyan dasturlar orqali ma'lumotlarni o'g'irlash.
4.	Yetkazib berish va kafolat bilan bog'liq muammolar	Sifatsiz yoki noto'g'ri tovar yetkazib berish	Xaridor tomonidan buyurtma qilingan tovarning sifat yoki miqdor jihatdan talabga javob bermasligi.
		Yetkazib berilmagan tovarlar	To'lov amalga oshirilgan bo'lsa ham, tovar yetkazilmasligi.
		Kafolat va qo'llab-quvvatlashning yetarli emasligi	Xaridorlar muammoga duch kelganida platforma tomonidan yordam yoki muammo hal qilinmasligi.
5.	Xaridorlarni chalg'ituvchi axborot va	Noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar	Tovar yoki xizmatning real tavsifi bilan mos kelmaydigan axborot berilishi.
		Reklama va baholar	Tovarlar haqida soxta ijobiy baholar berilishi yoki

²² Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

	noto'g'ri baholashlar	bilan aldash	kamchiliklarni yashirish uchun yolg'on reklama ma'lumotlarining taqdim etilishi.
6.	Huquqiy va siyosiy tahdidlar	Xalqaro operatsiyalar bilan bog'liq muammolar	Turli mamlakatlarda xarid qilishda bojxona qoidolari yoki soliqlar bilan bog'liq murakkabliklar.
		Huquqiy himoya yo'qligi	Xaridorning qonuniy huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlarning mavjud emasligi yoki samarali ishlamasligi.
7.	Ijtimoiy va psixologik tahdidlar	Ijtimoiy muammolar	Xarid qilish jarayonida manipulyatsiya qiluvchi reklama texnologiyalari sabab xaridor o'zi istamagan narsani xarid qilishga majbur bo'lishi.
		Psixologik bosim	Foydalanuvchining qarorlarini boshqarish uchun yaratilgan sun'iy chegirmalar yoki vaqt cheklovlari orqali xarid qilishga majbur qilish.

Ushbu barcha tahdidlar elektron tijoratda foydalanuvchilar xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyojni oshiradi va bu borada xavfsizlik choralarini kuchaytirish muhimligini ta'kidlaydi.

Xaridorlar o'zlarini tahdidlardan himoya qilish uchun ehtiyotkorlik choralarini ko'rish zarur. Shu bilan birga, platformalar o'z mijozlariga xavfsiz muhit yaratishni ustuvor vazifa qilib belgilashlari kerak. Kiberxavfsizlik sohasidagi islohotlar va ilg'or texnologiyalarni joriy etish elektron tijoratning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akbarova M.R., Akbarov J.M. Axborot xavfsizligiga bo'ladigan tahdidlar / M.R. Akbarova, J.M. Akbarov // Экономика и социум. – 2021. – №6(85), ч.1. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-xavfsizligiga-bo-ladigan-tahdidlar>.

2. Maxmudov L.U. Xizmat ko'rsatish sohasida elektron tijorat operatsiyalarini amalga oshirishning konseptual modellari / L.U. Maxmudov // Raqamli iqtisodiyot. – 2024. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/xizmat-ko-rsatish-sohasida-elektron-tijorat-operatsiyalarini-amalga-oshirishning-konseptual-modellari/viewer>.

3. Mustafayeva F.Sh. O'zbekistonda elektron tijorat tizimlari qo'llanilishining joriy holatini tahlil qilish ("Foton" AJ misolida) / F.Sh. Mustafayeva // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2024. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-elektron-tijorat-tizimlari-qo-llanilishining-joriy-holatini-tahlil-qilish-foton-aj-misolida>.

4. Оладько В.С. Угрозы информационной безопасности в системах электронной коммерции / В.С. Оладько // Экономика и социум. – 2015. – №2(15). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ugrozy-informatsionnoy-bezopasnosti-v-sistemah-elektronnoy-kommertsii>.

5. Risks and avoidance of my country's foreign trade e-commerce platform under cross-border e-commerce model / Goldenwell Germany. – 2024. – URL: <https://srcyrl.goldenwellgermany.com/news/risks-and-avoidance-of-my-country-s-foreign-tr-68900033.html>.
6. Top e-commerce attacks, fraud, and security / Martech Zone. – 2024. – URL: <https://uz.martech.zone/top-ecommerce-attacks-fraud-security/>.
7. Uslubiy qo'llanma: O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarb masalalari / ScienceBox. – 2023. – URL: <https://sciencebox.uz/index.php/sjeg/article/view/5237>.
8. Информационная безопасность в электронной коммерции / Positive Technologies. – 2023. – URL: <https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/information-security-threats-in-ecommerce/>.
9. Киберугрозы в розничной торговле 2023 / Positive Technologies. – 2023. – URL: <https://www.ptsecurity.com/ru-ru/research/analytics/retail-cybersecurity-threats-threatscape-2023/>.

Xilola Nematovna Ochilova

SamISI "Menejment" kafedrası dotsenti v.b., PhD
xilolaochilova74@gmail.com

INSON RESURLARINI BOSHQARISHDA KOMPENSATSIYALAR TIZIMINI YARATISH TARTIBI

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson resurslarini boshqarishda kompensatsiyaning o'рни, kompensatsiya tizimini yaratish tartibi, kompensatsiya tizimini shakllantirish jarayoni, kompensatsiya tizimini yaratishda qo'llaniladigan tamoyillar va ularning izohlari yoritib berilgan. Inson resurslarini boshqarishda kompensatsiyalar tizimini yaratish tartibi bo'yicha bir qancha takliflar berildi.

Kalit so'zlar: inson resurslarini boshqarish, kompensatsiya, imtiyoz, kompensatsiya tizimini yaratish tartibi, kompensatsiya tizimini shakllantirish jarayoni, boshqaruv samaradorligi.

Abstract. This article discusses the role of compensation in human resource management, the procedure for creating a compensation system, the process of forming a compensation system, the principles used in creating a compensation system and their explanations. Several proposals are made on the procedure for creating a compensation system in human resource management.

Keywords: human resource management, compensation, benefits, procedure for

creating a compensation system, the process of forming a compensation system, management efficiency.

Kirish. Inson resurslarini boshqarish zamonaviy tashkilotlarning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Uning muhim yoʻnalishlaridan biri kompensatsiyalar tizimini yaratish va takomillashtirishdir. Mazkur tizim xodimlarning mehnat motivatsiyasi, samaradorligi va tashkilotga sodiqligini oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham ushbu mavzuni ilmiy-nazariy asosda oʻrganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kompensatsiya tushunchasi bu xodimning mehnatiga nisbatan moddiy va nomoddiy mukofotlar majmuasi boʻlib, ish haqidan tashqari qoʻshimcha ragʻbatlantirish shakllarini ham oʻz ichiga oladi. Bundan maqsad xodimlarni ishga jalb qilish, ularning mehnat unumdorligini oshirish va tashkilotga sodiqligini mustahkamlashdir. Boshqaruv jarayonini olib borishda kompensatsiyalar tizimi tashkilot strategiyasi, mehnat bozorida sharoit va xodimlarning ehtiyojlari bilan uygʻun holda shakllantiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasining 2022 yilda qabul qilingan “Mehnat kodeksi”ning 285 moddasida kompensatsiya toʻlovlari tushunchasi "Mehnat toʻgʻrisidagi qonunchilikda va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda xodimlar tomonidan mehnat majburiyatlarining yoki boshqa majburiyatlarning bajarilishi bilan bogʻliq xarajatlarning oʻrnini qoplash maqsadida belgilangan pul toʻlovlari kompensatsiya toʻlovlaridir”²³ deb, keltirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kompensatsiya va imtiyozlarning mazmuni, mohiyati va ahamiyatiga oid masalalar bilan chet el olimlaridan Mitrabinda Nayak oʻzining 2019-yilda nashrdan chiqargan “Compensation & benefit management”²⁴ nomli oʻquv qoʻllanmasida keng yoritib bergan. Bundan tashqari mamlakatimiz olimlari tomonidan inson resurslarini boshqarish, toʻlovlar berish boʻyicha M.Q.Pardayev,²⁵ K.B.Urazov, M.E.Poʻlatov²⁶, O.M.Pardayeva, S.A.Babanazarova²⁷ kabilar shugʻullanib kelmoqdalar. Mehnatni toʻgʻri taqsimlash va qonun doirasida yuritish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasining 2022 yilda “Mehnat kodeksi” qabul qilingan²⁸. Ushbu mualliflar tomonidan bir qancha

²³ Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2022 yil 28 oktyabr. <https://lex.uz/docs/6257288>

²⁴ <https://abit.edu.in/wp-content/uploads/2022/07/3rd-sem-CBM.pdf>.

²⁵ M.Q.Pardayev, B.Sh.Usmonov Innovatsion yondashuvlar orqali inson rerurslarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yoʻllari. “Servis” ilmiy-amaliy jurnali, 2024 yil 4/1-son, - 17-22 betlar.

²⁶ Urazov K.B., Poʻlatov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi”, 2021 . – 560 bet.

²⁷ M.Q.Pardayev, O.M.Pardayeva, S.A.Babanazarova. Inson resurslari analitikasi (tahlili) fanining vazifalariga oid fikrlar. “Servis” ilmiy-amaliy jurnali, 2025 yil 1-son, - 177-182 betlar.

²⁸ Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2022 yil 28 oktyabr. <https://lex.uz/docs/6257288>

adabiyotlar va ilmiy maqolalar nashr qilingan. Unda asosan inson resurslarini boshqarish, uni tahlil qilish va hisobini yuritish yo'llari kabi masalalar yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada kompensatsiya va imtiyozlar fanining mazmuni, mohiyati va ahamiyati bo'yicha induksiya va deduksiya, makon va zamon, mantiqiy, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Kompensatsiya tizimining nazariy asoslari tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda ikki jihatda talqin qilinadi:

1. **Iqtisodiy kategoriya sifatida** xodim mehnati qiymatini qoplovchi hamda uning ishchi kuchi bozoridagi talab va taklif munosabatlariga moslashgan daromad shakli.

2. **Menejment kategoriyasi sifatida** xodimni rag'batlantirish, unumdorlikni oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash vositasi.

Shu ma'noda, kompensatsiya tizimi mehnat iqtisodiyoti, motivatsiya nazariyalari va HR boshqaruvining kesishgan nuqtasida o'rganiladi.

Kompensatsiyalar tizimini yaratish tartibi zamonaviy mehnat bozorida tashkilotning raqobatbardoshligi, avvalo, uning kadrlar salohiyatidan samarali foydalanishi bilan belgilanadi. Inson kapitali — iqtisodiy taraqqiyotning asosiy drayveri sifatida kompensatsiya va imtiyozlar siyosati orqali qo'llab-quvvatlanishi lozim. Shu bois, kompensatsiya tizimini yaratish masalasi HR-menejment va iqtisodiy tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi.

Kompensatsiya tizimini shakllantirish jarayoni quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. **Maqsadlarni aniqlashda** kompensatsiya siyosati tashkilotning umumiy strategiyasi bilan uyg'un bo'lishi lozim. Masalan, innovatsion tashkilotlarda ijodkorlikka asoslangan bonuslar tizimi qo'llanilsa, xizmat ko'rsatish sohasida mijoz qoniqishiga bog'liq mukofotlar samarali hisoblanadi.

2. **Ichki tahlil** jarayonida mavjud to'lov tizimi, xodimlar qoniqishi, moliyaviy imkoniyatlar va ichki adolat mezonlari tahlil etiladi.

3. **Tashqi tahlil** jarayonida esa mehnat bozoridagi tendensiyalar, raqobatchilar siyosati va davlat tomonidan belgilangan tartib-qoidalar o'rganiladi.

4. **Tizim modelini ishlab chiqish** bosqichida kompensatsiyaning asosiy qismlari (bazaviy maosh, qo'shimcha to'lovlar, mukofotlar, imtiyozlar) va ularning o'zaro nisbati aniqlanadi. Ilmiy nuqtai nazardan, bazaviy ish haqi va o'zgaruvchan to'lovlar nisbati xodim motivatsiyasida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

5. Kompensatsiya **joriy etish jarayonida bu bo'yicha qarorlar qabul qilinadi**, xodimlar xabardor qilinadi va bajarilishining shaffofligini ta'minlaydi.

6. **Monitoring va baholash jarayonida** tizim samaradorligi KPI ko'rsatkichlari, xodimlar qoniqishi indeksi, mehnat unumdorligi va kadrlarning sodiqligi orqali baholanadi.

Boshqaruv jarayonida samarali kompensatsiya tizimini yaratishda bir qancha tamoyillar qo'llanilgan. Ulardan asosiylariga quyidagilarni keltirib o'tamiz:

Kompensatsiya tizimini yaratish tamoyillari	Kompensatsiya tizimini yaratish tamoyillarining mazmuni
Adolatlilik	Ish haqi va mukofotlar xodimlarning mehnatiga, malakasiga, mas'uliyatiga va natijasiga mos bo'lishi kerak. Bir xil ishni bajarayotgan xodimlar o'rtasida katta tafovutlar bo'lmasligi muhim.
Raqobat-bardoshlik	Kompensatsiya tizimi bozordagi o'rtacha ish haqi darajasidan orqada qolmasligi kerak. Bu malakali kadrlarni jalb qilish va saqlab qolishga yordam beradi.
Motivatsiya va rag'batlantirish	Tizim xodimlarni samaradorlikni oshirishga, natijalarga erishishga va yangi g'oyalar taklif qilishga undashi kerak. Buning uchun bonuslar, mukofotlar, qo'shimcha imtiyozlar beriladi.
Ochiqlik va shaffoflik	Xodimlar kompensatsiya tizimining qoidalari, hisob-kitob usullari va baholash mezonlari haqida ochiq ma'lumotga ega bo'lishlari shart.
Ixtiyoriylik va moslashuvchanlik	Tizim turli lavozimlar, vazifalar va xodimlarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashishi mumkin bo'lishi zarur. Masalan, ayrim xodimlar uchun pulli rag'batlantirish muhim bo'lsa, boshqalar uchun qo'shimcha ta'lim yoki ta'til imkoniyati muhim bo'lishi mumkin.
Qonunchilikka muvofiqlik	Kompensatsiya tizimi mehnat qonunchiligi va normativ-huquqiy hujjatlarga zid bo'lmasligi kerak.
Samaradorlik	Tizim kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlariga to'g'ri kelishi va ortiqcha harajatlarga olib kelmasligi zarur.

Bu tamoyillarga qisqagina tuxtaladigan bo'lsak adolatlilik tamoyilini qo'llaganda bir xil ishni bajarayotgan, o'xshash malakaga ega xodimlar o'rtasida ish haqida katta tafovut bo'lmasligini inobatga olinadi. Ish jarayonida bir xil stavkada ishlaydi. Faqat qo'shimcha bonuslar xizmat ko'rsatish sifatidan yoki hajmidan kelib chiqib beriladi.

Raqobatbardoshlik tamoyili esa ish haqi bozordagi o'rtacha darajadan orqada

qolmasligi, aks holda xodim boshqa ishga o'tib ketishi mumkingini nazarda tutib qo'llaydi. Misol uchun korxonaga o'xshash ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish korxonasida o'rtacha 4–5 mln. so'm berilayotgan bo'lsa, siz ham shundan kam qo'ymasligingiz zarur.

Motivatsiya va rag'batlantirish tamoyilida esa xodimlar samaradorligi va natijalariga qarab rag'batlantirishlar beriladi. Bunda “eng yaxshi ishchi”, eng ko'p samara keltirgan xodimga nisbatan qshllaniladi.

Kompensatsiyani qo'llanilishda ochiqlik va shaffoflik tamoyili xodim ish haqi va bonuslar qanday hisoblanishini, nimalarga ahamiyat berilganligini bilishi kerak. Misol uchun korxona rahbari xodimlariga oylikning 70% stavka, 30% foiz (mijozlar soni va sotilgan mahsulotdan) asosida hisoblanishini ochiq aytadi.

Ixtiyoriylik va moslashuvchanlik tamoyilida har bir xodimga bir xil imtiyoz emas, balki shaxsiy ehtiyojini inobatga olib mos imkoniyatlardan foydalanib qo'llaniladi. Kimdir qo'shimcha ta'tilni yaxshi ko'radi. Unga pul o'rniga qo'shimcha dam olish kunlari berish lozim. Kimdir ta'lim olishni, malakasini oshirishni xohlaydi. Korxona va tashkilotlar ularning o'qishlari uchun kurs to'lovini qoplab beradi.

Qonunchilikka muvofiq tamoyili mehnat shartnomalari, minimal ish haqi, soliq va ijtimoiy to'lovlar qonunga muvofiq bo'lishi. Misol uchun qonun bo'yicha xodimga har yili kamida 15 kunlik mehnat ta'tili berilishi shart. Buni kompensatsiya tizimida e'tiborga olish zarur.

Kompensatsiya tizimining samaradorlik tamoyilida kompaniyaning harajatlari bilan xodimlarning ish unumdorligi o'rtasida balans bo'lishi lozim. Agar xizmat ko'rsatish korxonasida xodimga 5 mln. so'mdan yuqori ish haqi berish daromaddan ohsa, tizimni o'zgartirish lozim. Asosiy oylik 3,5 mln + xizmat ko'rsatgan mijoz soniga qarab foiz qo'shiladi.

Bulardan tashqari kompensatsiya tizimini o'rganishda bir qancha tahliliy usullar qo'llaniladi. Bularga iqtisodiy-statistik tahlil usulini qo'llaganda mehnat haqi dinamikasi, qiymat indeksini aniqlaydi. Sotsiologik so'rovnoma usulida esa xodimlarning qoniqishini va motivatsiya darajasini aniqlab olinadi. Qiyosiy yoki taqqoslama tahlil usulida xalqaro va mahalliy amaliyotni solishtirish, jarayonda xodimlar faoliyatini solishtirish mumkin. Modellashtirish usulida esa turli kompensatsiya sxemalarining samaradorligini prognoz qilishga yordam beradi.

Kompensatsiya tizimini yaratish — bu faqat moddiy rag'batlantirish masalasi emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, korporativ madaniyat va inson kapitali rivojlanishiga ta'sir etuvchi murakkab jarayondir. Ilmiy yondashuv kompensatsiya siyosatida adolat va motivatsiyani ta'minlab, tashkilotning strategik maqsadlariga

erishishga xizmat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda kompensatsiya tizimlari xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan. Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida ish haqidan tashqari sog'liqni saqlash sug'urtasi, ta'lim imkoniyatlari, pensiya jamg'armalari kabi ijtimoiy paketlar keng qo'llaniladi. Yaponiya tajribasida esa xodimlarning umrboqiy bandligi va sodiqligi kompensatsiya tizimining asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Mamlakatimizda kompensatsiya tizimi Mehnat kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xizmatlar sohasida, xususan, ayollar tadbirkorligi rivojlanishida moddiy va nomoddiy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bugungi kunda davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, ijtimoiy kafolatlar orqali qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmoqda.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali kompensatsiya tizimi xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish, tashkilotning raqobatbardoshligini ta'minlash va inson kapitaliga investitsiya sifatida katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda kompensatsiya tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- mehnat haqi va mukofotlash tizimida adolat tamoyilini kuchaytirish;
- nomoddiy kompensatsiyalarni keng joriy etish;
- xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish;
- ayollar tadbirkorligi va xizmatlar sohasiga alohida e'tibor qaratish.

Shuni aytish mumkinki, kompensatsiya tizimi inson resurslarini boshqarishda asosiy strategik vosita bo'lib, u xodimlar samaradorligi, tashabbuskorligi va sodiqligini oshirish orqali tashkilotning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2022 yil 28 oktyabr. <https://lex.uz/docs/6257288>
2. <https://abit.edu.in/wp-content/uploads/2022/07/3rd-sem-CBM.pdf>.
3. M.Q.Pardayev, B.Sh.Usmonov Innovatsion yondashuvlar orqali inson resurslarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo'llari. "Servis" ilmiy-amaliy jurnali, 2024 yil 4/1-son, - 17-22 betlar.
4. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi", 2021. – 560 bet.
5. M.Q.Pardayev, O.M.Pardayeva, S.A.Babanazarova. Inson resurslari analitikasi (tahlili) fanining vazifalariga oid fikrlar. "Servis" ilmiy-amaliy jurnali, 2025 yil 1-son, - 177-182 betlar.

Рустамов Жамшид Эргашевич,
Самаркандский институт экономики и
сервиса, доцент, доктор философии по
педагогическим наукам (Ph.D),
rustamovjam7@gmail.com.

**Роль информационных технологий в повышении качества
преподавания экономики в высшей школе**

Аннотация: в статье рассматривается роль информационных технологий в процессе преподавания экономических дисциплин в высшей школе. Подчеркивается актуальность цифровизации образования в условиях реализации национальных и международных стратегий, в частности «Стратегии цифрового Узбекистана – 2030». В исследовании использованы методы анализа научной литературы и нормативных документов, сравнительно-аналитический подход, педагогический эксперимент и социологическое анкетирование. Полученные результаты показали, что применение цифровых инструментов способствует повышению учебной мотивации студентов, увеличению эффективности усвоения материала, расширению возможностей интерактивного взаимодействия и доступности образовательных ресурсов. Сравнительный анализ контрольной и экспериментальной групп выявил рост успеваемости на 12 % и почти двукратное увеличение уровня учебной мотивации. Сделан вывод о том, что информационные технологии выступают ключевым фактором повышения качества преподавания экономики и обладают значительным потенциалом для дальнейшей трансформации образовательного процесса.

Ключевые слова: информационные технологии; цифровизация образования; экономическое образование; педагогический эксперимент; интерактивные платформы; учебная мотивация; качество обучения; высшая школа.

Abstract: This article examines the role of information technology in teaching economic disciplines in higher education. It emphasizes the relevance of educational digitalization in the context of implementing national and international strategies, particularly the "Digital Uzbekistan Strategy – 2030." The study employs methods of scientific literature and regulatory document analysis, comparative-analytical approach, pedagogical experiment, and sociological survey. The obtained results demonstrated that the use of digital tools enhances student learning motivation,

increases the effectiveness of material assimilation, expands opportunities for interactive engagement, and improves the accessibility of educational resources. A comparative analysis of the control and experimental groups revealed a 12% improvement in academic performance and an almost twofold increase in the level of learning motivation. It is concluded that information technology is a key factor in improving the quality of economics education and possesses significant potential for further transformation of the educational process.

Keywords: information technology; digitalization of education; economic education; pedagogical experiment; interactive platforms; learning motivation; quality of education; higher education.

Введение (Introduction)

Современное высшее образование переживает период интенсивной цифровой трансформации. Процессы глобализации, ускоренного развития информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и цифровой экономики выдвигают новые требования к подготовке специалистов в области экономики. Традиционные методы обучения, основанные на лекциях и печатных материалах, постепенно уступают место интерактивным, мультимедийным и виртуальным форматам преподавания.

В условиях Узбекистана данная тенденция закреплена в ряде государственных программ и нормативных актов, в частности, в «Стратегии цифрового Узбекистана – 2030», где цифровизация образования названа приоритетным направлением модернизации системы высшего образования. Это подтверждает актуальность исследования роли информационных технологий в преподавании экономических дисциплин.

Цель исследования заключается в выявлении и обосновании роли информационных технологий в повышении качества преподавания экономики в высшей школе.

Задачи исследования:

1. Определить сущность и классификацию информационных технологий, применяемых в экономическом образовании.
2. Проанализировать их значение для повышения качества образовательного процесса.
3. Выделить эффективные направления внедрения ИТ в преподавание экономики.

Методы исследования (Methods)

В работе использован комплекс методов, обеспечивающий достоверность

и полноту анализа.

1. Анализ научной литературы и нормативных документов.

Для выявления теоретических основ и нормативно-правовой базы цифровизации образования были исследованы труды отечественных и зарубежных авторов, отчёты международных организаций (ЮНЕСКО, ОЭСР, UNCTAD), а также национальные документы, включая «Стратегию цифрового Узбекистана – 2030». По данным ЮНЕСКО (2023), более 90 % университетов мира внедряют цифровые технологии на уровне отдельных курсов или целых программ, что отражает глобальный характер процесса. В Узбекистане, согласно данным Министерства высшего образования, науки и инноваций (2024), свыше 65 % образовательных программ уже включают элементы дистанционного или цифрового обучения.

2. Сравнительно-аналитический метод.

Было проведено сопоставление традиционных и цифровых методов преподавания экономических дисциплин. Сравнение охватывало 120 студентов (контрольная и экспериментальная группы). В контрольной группе (традиционное обучение) средний уровень успеваемости составил 72 балла по 100-балльной системе, тогда как в экспериментальной группе (с использованием мультимедийных и интерактивных материалов) данный показатель достиг 81 балла, что отражает прирост эффективности на 12,5 %.

3. Педагогический эксперимент.

Экспериментальная работа проводилась в течение одного семестра на занятиях по «Микроэкономике» и «Макроэкономике». В обучении принимали участие 60 студентов. Использовались мультимедийные презентации, онлайн-тестирование через платформы Lumio и Google Classroom, а также цифровые симуляторы экономических процессов. Результаты показали, что 74 % студентов отметили лучшее понимание абстрактных экономических категорий благодаря визуализации, а 68 % — рост собственной вовлечённости в учебный процесс.

4. Социологические методы.

Проведено анкетирование 80 студентов 2–3 курсов экономического факультета. На вопрос о предпочтительных формах обучения 62 % опрошенных выбрали смешанное обучение (традиционные лекции в сочетании с цифровыми платформами), 25 % — преимущественно онлайн-формат, 13 % — исключительно традиционные методы. Кроме того, 71 % студентов подчеркнули, что ИТ облегчают доступ к учебным материалам, а 54 % — что

они способствуют развитию самостоятельности в обучении.

Результаты исследования (Results)

Анализ педагогического эксперимента и анкетирования студентов показал, что использование информационных технологий оказывает существенное положительное влияние на качество преподавания экономических дисциплин. Результаты исследования отражены в нескольких ключевых направлениях.

1. Учебная мотивация.

Согласно анкетированию 80 студентов 2–3 курсов, 78 % респондентов отметили, что применение мультимедийных материалов, онлайн-тестов и интерактивных заданий стимулирует их активность и повышает интерес к учебному процессу. Для сравнения, среди студентов контрольной группы ($n = 40$), обучавшихся в рамках традиционной лекционно-семинарской системы, этот показатель составил лишь 41 %. Данный результат свидетельствует о почти двукратном росте учебной мотивации при использовании цифровых технологий.

2. Эффективность усвоения материала.

Успеваемость студентов экспериментальной группы ($n = 40$), в ходе занятий активно использовавших цифровые платформы и симуляторы, увеличилась на 12 % по сравнению с контрольной группой. Средний балл по итогам промежуточного тестирования составил 81,4 (по 100-балльной шкале) против 72,3 в контрольной группе. При этом доля студентов, получивших высокие оценки (от 85 баллов и выше), возросла с 28 % до 46 %.

3. Интерактивность и вовлечённость.

Использование платформ для визуализации данных (например, Lumio, интерактивных диаграмм и симуляторов экономических процессов) позволило студентам глубже понять сложные абстрактные категории. По данным опроса, 74 % студентов отметили, что визуальные инструменты значительно облегчают восприятие и запоминание теоретического материала. В контрольной группе положительные ответы на аналогичный вопрос дали лишь 39 % опрошенных.

4. Доступность и гибкость обучения.

Цифровые платформы и электронные образовательные ресурсы обеспечили студентам возможность многократного обращения к материалам вне аудитории. Около 71 % респондентов подчеркнули, что они пользовались учебными материалами повторно через онлайн-доступ, при этом 56 % студентов отметили, что это способствовало самостоятельному изучению и

закреплению знаний. В контрольной группе данный показатель составил лишь 32 %.

Анализ статистических данных, полученных в ходе педагогического эксперимента и социологического анкетирования, выявил закономерность между использованием информационных технологий и ростом качества образовательного процесса при преподавании экономических дисциплин. Применение цифровых инструментов обеспечивает не только увеличение уровня учебной мотивации и вовлечённости студентов, но и способствует более глубокому усвоению учебного материала. Сравнительный анализ контрольной и экспериментальной групп показал наличие устойчивого положительного эффекта от внедрения информационных технологий, что свидетельствует о закономерной результативности их применения в образовательной среде. Полученные данные позволяют утверждать, что цифровые инструменты функционируют как один из ключевых факторов повышения эффективности современного высшего экономического образования.

Обсуждение (Discussion)

Полученные результаты согласуются с исследованиями международных организаций. Согласно данным UNESCO (2023), применение цифровых технологий в образовательном процессе способствует росту вовлечённости студентов на 15–25 %, а также повышает эффективность усвоения материала до 20 %. Аналогичные тенденции наблюдаются и в странах СНГ, где внедрение национальных образовательных платформ показало положительный эффект в подготовке экономистов.

Вместе с тем, широкое внедрение информационных технологий сталкивается с рядом ограничений. Среди них – необходимость повышения цифровой грамотности преподавателей, модернизация технической базы университетов и обеспечение равного доступа студентов к современным устройствам и интернету. Кроме того, чрезмерная зависимость от цифровых технологий может снизить развитие аналитического и критического мышления при отсутствии методически продуманного сопровождения.

Тем не менее, проведённое исследование подтверждает, что использование ИТ не заменяет преподавателя, а усиливает его роль, создавая условия для интерактивного и личностно-ориентированного обучения.

Заключение (Conclusion)

Таким образом, информационные технологии выступают одним из ключевых факторов повышения качества преподавания экономики в высшей

школе. Их использование позволяет:

- повысить мотивацию и вовлечённость студентов;
- обеспечить доступность образовательных ресурсов;
- расширить возможности для визуализации и моделирования экономических процессов;
- оптимизировать оценивание знаний за счёт онлайн-тестирования.

Перспективы дальнейших исследований связаны с интеграцией адаптивных систем обучения, использованием искусственного интеллекта и развитием национальных образовательных платформ, в частности Lumio (SmartTech Learning Suite) и аналогичных систем, которые могут стать фундаментом цифровой трансформации экономического образования в Узбекистане.

Список литературы

1. Базаров Б. Цифровизация образования: тенденции и перспективы. – Ташкент: Fan, 2023.
2. Digital Economy Report 2023. – UNCTAD, Geneva, 2023.
3. UNESCO. Education for the Digital Age. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
4. Strategy "Digital Uzbekistan – 2030". – Tashkent, 2020.
5. OECD. Digital Education Outlook 2023. – Paris: OECD, 2023.

MIRZAYEVA SHIRIN NODIROVNA

SamISI, "Real iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

elektron manzili: mirzayevashirin502@gmail.com

ORCID raqami: <https://orcid.org/0009-0005-0035-636X>

XIZMAT KO'SATISH SOHASIDA XOTIN-QIZLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Mamlakatimizda ayollarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ularni iqtisodiy jihatdan mustaqil shaxs sifatida shakllantirish hamda ularning mehnat bozoridagi o'rnini mustahkamlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan xotin-qizlarning mehnat samaradorligini oshirish, ularga moliyaviy va huquqiy ko'mak ko'rsatish, raqamli iqtisodiyot sharoitida ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish bo'yicha strategik takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar, tahliliy usullar hamda xalqaro tajribalardan foydalanilgan bo'lib, natijalar mamlakat iqtisodiyotida xotin-qizlar faolligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, xotin-qizlar, iqtisodiy faollik, bandlik, tadbirkorlik, raqamli iqtisodiyot, strategiya, innovatsion rivojlanish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения экономической активности женщин в сфере услуг. Освещаются проводимые в стране реформы, направленные на вовлечение женщин в предпринимательскую деятельность, укрепление их экономической независимости и повышение роли на рынке труда. Особое внимание уделено мерам по повышению производительности труда женщин, занятых в сфере услуг, их финансовой и правовой поддержке, а также развитию цифровых компетенций для укрепления конкурентоспособности. В исследовании использованы статистические данные, аналитические методы и международный опыт, что позволяет выработать эффективные стратегии дальнейшего развития женской занятости и предпринимательства в экономике.

Ключевые слова: сфера услуг, женщины, экономическая активность, занятость, предпринимательство, цифровая экономика, стратегия, инновационное развитие.

Abstract. This article explores strategies to enhance the economic activity of women in the service sector. It highlights the ongoing reforms in Uzbekistan aimed at

promoting women's entrepreneurship, strengthening their economic independence, and expanding their role in the labor market. The study proposes strategic measures to improve the productivity of women employed in services, provide financial and legal support, and enhance their competitiveness in the context of the digital economy. Using statistical data, analytical methods, and international experience, the research offers recommendations that contribute to increasing women's participation and leadership in the national economy.

Keywords: service sector, women, economic activity, employment, entrepreneurship, digital economy, strategy, innovative development.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning iqtisodiy hayotdagi faolligini oshirish, ularni mehnat bozoriga keng jalb etish, tadbirkorlikni rivojlantirishda ularning rolini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki ayollarning iqtisodiy faolligi nafaqat oilaviy farovonlikning kafolati, balki mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy adolatning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasi bugungi kunda iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan va inson omiliga asoslangan tarmoqlaridan biri sifatida xotin-qizlar mehnat salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatini yaratmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sektori ayollar bandligini ta'minlashda, ularning daromad manbalarini kengaytirishda, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy mustaqillikka erishishda muhim o'rin tutadi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasida ham bu sohada gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularni moliyaviy, huquqiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash" davlat dasturi, "Ayollar daftari" tizimi, "Ayollar tadbirkorligi" jamg'armasi hamda mikromoliyalashtirish dasturlari orqali minglab ayollarning o'z biznesini yo'lga qo'yishiga sharoit yaratilmoqda.

Biroq mavjud ijobiy natijalarga qaramay, xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini cheklovchi omillar hanuz mavjud. Ular orasida mehnat bozoridagi gender tafovutlar, moliyaviy resurslarga yetarli kirish imkoniyatining yo'qligi, kasbiy tayyorgarlik darajasining pastligi, raqamli savodxonlik yetishmasligi hamda ijtimoiy stereotiplar alohida o'rin tutadi. Shu sababli, bu sohada kompleks strategiyalar ishlab chiqish, yangi yondashuvlar asosida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala

bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilinadi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi baholanadi hamda milliy sharoitga mos strategik takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari ayollar bandligini kengaytirish, ularning iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish masalasi xalqaro miqyosda keng o'rganilgan bo'lib, ko'plab ilmiy tadqiqotlarda ayollarning mehnat bozori, bandlik siyosati, tadbirkorlik faoliyati va xizmat ko'rsatish sohasidagi o'rnini chuqur tahlil qilingan. Xususan, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Gender tengligi va ayollarni iqtisodiy jihatdan kuchaytirish" bo'yicha hisobotlarida ayollar iqtisodiy faolligini oshirish mamlakatlar rivojining asosiy drayverlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Ushbu manbalarda xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, ularning moliyaviy resurslarga kirishini kengaytirish, ta'lim va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishning dolzarbligi qayd etiladi. [1, 2, 3]

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ayollarning xizmat ko'rsatish sektoridagi faol ishtiroki xizmat sifati, innovatsion yondashuvlar va mijozlar ehtiyojlariga mos xizmatlarni yaratishda muhim omil bo'ladi (Porter M., 2011; Sen A., 1999). Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ayollar bandligi ko'rsatkichining yuqoriligi xizmatlar eksporti hajmini oshirgan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida esa xotin-qizlar mikrobiznesni rivojlantirish orqali xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini sezilarli darajada kengaytirgan. [4]

O'zbekiston olimlari tomonidan ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, A. Vohidov, G. Qodirova, N. Tursunova, M. Jo'rayev kabi tadqiqotchilarning ishlarida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi, ularning bandligi va xizmat ko'rsatish sohasidagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha muhim ilmiy xulosalar ilgari surilgan. Tadqiqotlarda ayollar tadbirkorligini rag'batlantirishning institutsional asoslarini mustahkamlash, soliq va kredit imtiyozlarini kengaytirish, mahalliy darajada qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi. [5, 6, 7, 8]

Shu bilan birga, ayrim ilmiy manbalarda ayollar iqtisodiy faolligiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida mehnat bozoridagi gender tafovutlar, oila va ish o'rtasidagi muvozanatni saqlashdagi qiyinchiliklar, raqamli savodxonlikning yetarli emasligi hamda stereotip qarashlar ko'rsatiladi (OECD Gender Data Portal, 2023). Xususan,

xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi ayollar orasida yuqori malaka talab etuvchi yo'nalishlarda ulushi pastligi hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish strategiyasini ishlab chiqishda kompleks yondashuv zarur. Bunda nafaqat iqtisodiy omillar, balki ta'lim, axborot texnologiyalari, ijtimoiy himoya va huquqiy kafolatlarni o'z ichiga oluvchi tizimli mexanizmlar muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan, milliy va xalqaro tajribani uyg'unlashtirgan holda xotin-qizlar faolligini oshirishning zamonaviy strategiyalarini ishlab chiqish tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilab beradi. [9, 10, 11, 12]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqish va ularning amaliy natijalarini aniqlash maqsad qilingan. Maqolaning metodologik asosi iqtisodiy nazariya, gender iqtisodiyoti, mehnat bozori tahlili hamda xizmat ko'rsatish sektori rivojlanishining zamonaviy yondashuvlariga tayanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan strategik yo'nalishlar va samarali mexanizmlarni ishlab chiqish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini taklif etishdir. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy vazifalar bajarildi:

1. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligiga ta'sir etuvchi asosiy ichki va tashqi omillarni aniqlash;

2. Xizmat ko'rsatish sohasida ayollar bandligi va mehnat unumdorligi holatini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish;

3. Jahon tajribasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirishda qo'llanilayotgan samarali model va mexanizmlarni o'rganish;

4. O'zbekiston sharoitida xizmat ko'rsatish sektorida xotin-qizlarning raqamli iqtisodiyotdagi ishtirokini kengaytirish yo'llarini aniqlash;

5. Ayollar tadbirkorligi, innovatsion tashabbuslari va xizmatlar sifatini oshirish orqali iqtisodiy faolligini kuchaytirishga qaratilgan strategik takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti — O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy tizimi va unda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar qatlamidir.

Tadqiqot predmeti — xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar, mexanizmlar hamda strategik yo'nalishlardir. [13]

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy uslublar qo'llanildi:

A. Tahlil va sintez usuli — xizmat ko'rsatish sohasidagi holatni aniqlash va umumiy xulosalar chiqarish uchun;

B. Taqqoslama tahlil — O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasini solishtirish maqsadida;

C. Statistik va iqtisodiy tahlil — ayollar bandligi, daromadi, xizmat turlaridagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlarni o'rganish uchun;

D. Induksiya va deduksiya — xotin-qizlarning iqtisodiy faolligiga oid nazariy asoslardan umumiy strategik xulosalar chiqarishda;

E. SWOT tahlil — xizmat ko'rsatish sohasida ayollar faolligini kuchaytirishdagi kuchli, zaif, imkoniyat va tahdid omillarini aniqlash uchun.

Tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Amaliy jihatdan esa bu natijalar ayollar bandligini kengaytirish, ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotda faol ishtirokini ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi so'nggi yillarda eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotida (YaIM) uning ulushi 2024-yil holatiga ko'ra 47,3 foizni tashkil etdi. Aholi bandligining qariyb 45 foizi aynan shu sohada faoliyat yuritmoqda, ularning yarmidan ortig'ini esa xotin-qizlar tashkil etadi. Bu holat xizmatlar sektori ayollar iqtisodiy faolligini oshirishda muhim platforma bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Biroq mavjud holat tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar mehnat bozoridagi faolligi miqdor jihatdan yuqori bo'lsa-da, sifat jihatidan hali yetarli darajada samarali emas. Xotin-qizlar ko'proq past daromadli, an'anaviy xizmat turlarida — tikuvchilik, maishiy xizmat, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi yo'nalishlarda to'plangan. Yuqori texnologiyali, innovatsion va raqamli xizmatlar yo'nalishida ularning ishtiroki nisbatan past. Bu esa gender tafovutining iqtisodiy ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston tajribasini xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda ayollar xizmat ko'rsatish sohasining 60–70 foizini tashkil etadi, bu ko'rsatkich O'zbekistonda esa 46 foiz atrofida. Quyidagi jadvalda ayrim davlatlar tajribasi keltirilgan:

Xizmat ko'rsatish sohasida ayollar ulushining xalqaro taqqoslamasi²⁹

T/r	Davlat	Xizmat ko'rsatish sohasida ayollar ulushi (%)	Bandlik siyosatidagi yondashuv xususiyati
1	O'zbekiston	46	Bandlikni oshirishga doir davlat dasturlari
2	Janubiy Koreya	63	"Smart Women Economy" raqamli tashabbuslari
3	Turkiya	58	Mikrokreditlar orqali ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash
4	Germaniya	72	Gender tenglik siyosatining institutsional asoslari
5	Qozog'iston	52	Ayollar uchun maxsus startap grantlari dasturi

Bu taqqoslashdan ko'rinadiki, O'zbekistonda xotin-qizlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi faolligini oshirish uchun innovatsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar ulushi 49,6 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, ularning atigi 18 foizi rahbarlik yoki o'rta boshqaruv lavozimlarida ishlamoqda. Qishloq joylarda bu ko'rsatkich yanada past — 11 foiz atrofida. Raqamli iqtisodiyotga oid xizmatlar, IT, moliyaviy konsalting va marketing yo'nalishlarida ayollar ulushi 12–15 foiz oralig'ida bo'lib, bu sohalarda ularning salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) va Jahon bankining 2023–2024-yillar hisobotlariga ko'ra, ayollar iqtisodiy faolligining 10 foizga oshishi mamlakat YaIM o'sish sur'atini o'rtacha 0,7–1 foizga ko'tarishi mumkin. Shu bois O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi ishtirokini kuchaytirish iqtisodiyotning umumiy barqarorligiga bevosita ta'sir etadi. Tahlil natijalariga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini cheklovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi – ayollar mikrokreditlar va investitsiyalarga murojaat qilganda yuqori garov talablari tufayli ko'p hollarda rad javobini oladilar;

²⁹ Muallif ishlanmasi

2. Kasbiy tayyorgarlik va raqamli savodxonlikning pastligi – bu raqamli xizmatlar, onlayn savdo, marketing va innovatsion platformalarga kirish imkonini toraytiradi;

3. Gender stereotiplari va ijtimoiy bosim – ayrim hududlarda ayollarning faol ish yuritishi yoki rahbarlik lavozimiga intilishi hanuz ijtimoiy to'siqlarga duch kelmoqda;

4. Qo'llab-quvvatlash infratuzilmasining yetarli emasligi – masalan, bolalar bog'chalari, masofaviy ish tizimi, oilaviy xizmat markazlari kabi xizmatlar ayollar faoliyatini yengillashiruvchi muhim shartlardan biridir.

So'nggi yillarda ayollarning xizmat turlaridagi ishtiroki quyidagi yo'nalishlarda sezilarli darajada ortmoqda:

2-jadval

O'zbekistonda xizmat turlari bo'yicha xotin-qizlar bandligining o'sish dinamikasi (2020–2024)³⁰

T/r	Xizmat turi	2020-yil (%)	2024-yil (%)	O'sish sur'ati (%)
1	Maishiy xizmatlar	38	44	+6
2	Ta'lim va tarbiya	58	63	+5
3	Sog'liqni saqlash	54	59	+5
4	Turizm va mehmondo'stlik	25	33	+8
5	Axborot texnologiyalari xizmati	11	20	+9

Ushbu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, raqamli texnologiyalar, turizm va xizmat sifati bilan bog'liq tarmoqlarda ayollar soni tez sur'atda ortmoqda. Bu esa ayollar iqtisodiy faolligining yangi bosqichga o'tayotganini bildiradi.

Shunga qaramay, mamlakatda xotin-qizlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi faolligini oshirish borasida bir qator ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. So'nggi yillarda "Ayollar tadbirkorligi" jamg'armasi orqali 200 mlrd so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratilgan, "Ayollar daftari" tizimi doirasida minglab ayollar kasb-hunarga o'qitilgan va o'z biznesini yo'lga qo'ygan. Raqamli iqtisodiyot dasturlari, "Ayollar IT maktablari", "Start-up ayollar" tashabbuslari orqali xizmat sohasining yangi, innovatsion yo'nalishlarida ayollarning ishtiroki ortmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, agar ayollar xizmat sohasida o'z salohiyatini to'liq namoyon etishlari

³⁰ Muallif ishlanmasi

uchun zarur iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy sharoitlar yaratilsa, bu mamlakat YaIMning kamida 2–3 foizga oshishiga zamin yaratadi. Shu sababli, xotin-qizlarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi iqtisodiy faolligini oshirish nafaqat ijtimoiy adolatni ta’minlash, balki iqtisodiy o‘shishning barqaror drayveri sifatida ham qaralishi lozim.

3-jadval

Xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar (SWOT tahlil)³¹

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlar
Ayollarning ta’lim darajasi yuqori, xizmat madaniyati shakllangan, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mavjud	Moliyaviy resurslarga kirish cheklangan, yuqori lavozimlarda ayollar ulushi past, raqamli savodxonlik yetarli emas.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
Xizmatlar eksporti kengaymoqda, onlayn ish o‘rinlari ortmoqda, startap ekotizimi rivojlanmoqda.	Mehnat migratsiyasi, gender stereotiplari va iqtisodiy beqarorlik xavfi mavjud.

Bu tahlil asosida ayollarni xizmat ko‘rsatish sohasida qo‘llab-quvvatlash uchun institutsional islohotlar, mikromoliyaviy dasturlar va raqamli platformalarga kirishni kengaytirish zarur. Xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligining rivojlanishining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’sirini o‘rganish natijasida, tahlil qilishdan ko‘rinib turibdiki, bu sohada ko‘plab imkoniyatlar mavjud bo‘lsa-da, shu bilan birga, bir qator zaif tomonlar va tahdidlar ham mavjud. [14] Tadbirlarni amalga oshirishda moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, ta’lim va malaka oshirish tizimini rivojlantirish va gender stereotiplarini bartaraf etish zarur. Shuningdek, innovatsion imkoniyatlar va xalqaro hamkorlikni kengaytirish xotin-qizlar tadbirkorligining iqtisodiy o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ушбу маданиятлар тизимида **сервис фаолияти маданияти** алоҳида иқтисодий маданиятнинг бир тури сифатида намоён бўлади. Ҳар қандай тушунчага, хусусан, сервиси фаолияти маданиятига ҳам таъриф беришда уларнинг ички табиатини ва инсонларга (мижозларга, харидорларга) таъсир доирасини очиб беришга ҳаракат қилиш керак. Чунки маданият том маънода, жамиятнинг, ижодий кучларнинг ва инсон қобилятининг яшаш даражасига мос равишда қулай имкониятларни яратиши билан белгиланади. Шундай экан хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси фаолиятининг маданияти ҳам инсонларга (мижозларга, харидорларга) қулайлик туғдириши нуқтаи назаридан қарашни тақозо қилади.

Ҳақиқатда сервис бир кишига кўрсатилади. Бир киши дунёнинг турли мамлакатлар вакиллари бўлиши мумкин. Ушбу шахс қаерда бўлса ўзига хос ва мос хизматдан баҳраманд бўлишни тақозо қилади. Шу туфайли хизмат маданияти жуда юқори ва ҳаммага мос бўлиши учун у дунё миқёсида эришилган ютуқ ва тажрибаларни умумлаштирган ва ўзида мужассам этган бўлишлари лозимдир.

Ушбу назарий қарашлардан келиб чиқадиган бўлсак, сервис фаолияти маданиятига қуйидагича таъриф бериш мумкин. **Сервис фаолияти маданияти дейилганда, унинг истеъмолчиларига қулай бўлган, бу борадаги миллий ва умуминсоний қадриятларга таянган ва инсоният тамаддунида эришилган ютуқлардан фойдаланган ҳолда сервис хизматини аъло даражада кўрсатиш жараёнининг мажмуи тушунилади.** Кўриниб турибдики, сервис бевосита унинг истеъмолчиларига (инсонлар, корхона ва бошқа хўжалик юритувчи субъектлар, жамият ва давлат) қаратилган. Уларнинг сервисга бўлган талабини фақат қондирибгина қолмасдан, уларга юқори савияда хизмат қилиш орқали, уларнинг барча талабларини ҳар томонлама қондирган ҳолда ижро этилиши тушунилади. Булар, жамиятнинг иқтисодий ва ижтимоий барқарорлигини таъминлашда сервис хизматларининг ҳам ўзига хос ўрни борлиги тўғрисида тегишли, хулоса қилишимиз учун асос бўлади.

Хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси фаолияти маданияти маданиятлар

тизимида ўз ўрнига эга тушунча бўлиб, қуйидаги таркибий қисмларни қамраб олади:

- давлат томонидан инсонларнинг юқори сифат даражасида яшашини таъминлашга қаратилган ва улар учун яратиладиган сервис фаолияти;
- хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси фаолияти маданиятини ўзида мужассам этган сервисга оид фанларнинг мавжудлиги ва уларнинг реал ҳаётимизни яхшилашдаги ўрни;
- инсонлар онгида хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси фаолияти маданиятининг шаклланиши, яъни инсонлар онгида ғоялар, қарашлар, ҳис-туйғулар, фикрлар, кайфиятлар тизимининг шаклланиши ва уларнинг яшаш тарзига айланиши;
- илгари эришилган хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси фаолияти маданияти бўйича кенг тажриба ва ютуқларнинг бугунги ҳаётимизга жорий қилиниши ва улардан самарали фойдаланиш йўлларининг ишлаб чиқилганлиги;
- хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси фаолияти маданиятини баҳолаш, рағбатлантириш бўйича меъёрий ҳужжатларнинг ишлаб чиқилганлиги ва уларнинг ҳаётда беками-кўст ишлашини таъминлаш механизмнинг мавжудлиги;
- одамларда хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси фаолияти маданиятини баҳолайдиган меъзонларнинг бўлиши ва улардан шуларни талаб қиладиган савиянинг мавжудлиги;
- хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси фаолиятининг сертификатланганлиги ва лицензия зарур бўлган ҳолларда у билан таъминланиш даражасининг йўлга қўйилганлиги.

Буларнинг ҳаммаси хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси фаолияти маданиятининг муҳим қисми бўлиб ҳисобланади. Аммо ҳар қандай фаолият сингари сервис фаолияти ҳам доимий равишда такомиллашиб, ҳаётимизга мослашиб боради. Шу туфайли ушбу соҳани ҳам доимий равишда модернизация қилиб боришга тўғри келади. Бугунги кун талабидан келиб чиққан ҳолда хизмат кўрсатиш корхоналари сервисига қуйидагича таъриф бериш мумкин. **Хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси маданияти деганда унинг хизмат кўрсатиш корхоналари мижозларига қулай бўлган, уларни қаноатлантирадиган, миллий ва умуминсоний кадриятларга таянган ва инсоният тамаддунида эришилган ютуқлардан фойдаланган ҳолда сервис хизмати аъло даражада кўрсата оладиган малакали ходимлар хизматларининг мажмуи тушунилади.**

Хулоса ва таклифлар. Хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси сифатини оширишда, унинг фаолиятида сервис маданиятини оширишга эришиш йўллари тадқиқ қилиб қўйидаги хулосаларга келинди ва илмий-назарий ва амалий аҳамиятга молик тавсиялар ишлаб чиқилди.

1. Хизмат кўрсатиш корхоналари сервисининг маданияти ҳам доимий ва барқарор эмас. Ҳар сафар унинг сифат даражаси турлича бўлиши мумкин. Аммо маданиятсиз хизмат мижозларни қочиради, субъектнинг нуфузини туширади. Шу туфайли хизмат маданияти масаласини доимий равишда назорат қилиб туриш лозим бўлади.

2. Ишлаб чиқариш корхоналарида яратилган маҳсулотни назорат қилиш учун махсус техник назорат бўлими фаолият кўрсатади. Аммо хизматнинг жуда кўп турлари борки, уни бирор нарса билан ўлчаш қийин. Шу туфайли хизматни назорат қилиш учун уни кўрсатилаётган паллада кузатиш керак бўлади. Амалиётда бунинг имконияти чекланган. Чунки шундай назорат турини амалга ошириш лозим бўлса, ҳар бир хизмат кўрсатувчига биттадан назоратчи қўйишга тўғри келади. Шу туфайли, биринчи галда ҳар бир ходим ўзини - ўзи назорат қиладиган малакага ва савияга эга бўлиши лозим. Акс ҳолда, билиб-билмасдан жуда кўп нуқсонларга йўл қўйилиши мумкин.

Хизмат кўрсатиш корхоналари сервиси маданиятини аниқлаш ва уни доимий равишда такомиллаштириб бориш учун мазкур субъектда махсус ижодий гуруҳ бўлишини тақозо қилади. Ушбу гуруҳ ҳар ҳафтанинг бир кунида сервис сифати билан боғлиқ масалаларни муҳокама қилиб, тегишли хулосалар чиқариб, уни такомиллаштириш масаласи бўйича тегишли тавсиялар ишлаб чиқмоғи ва уларни навбатдаги ҳафтадан бошлаб амалиётга жорий қилмоғи лозим. Чунки ҳозирги шароитда ҳар куни барча соҳаларда рўй бераётганлиги сингари хизмат соҳасида ҳам, унинг янги-янги турлари кундалик ҳаётимизга кириб келмоқда. Бу янгиликлар асосан фан ва техниканинг ривожланиши билан боғлиқ. Масалан мустақилликгача уяли телефон мамлакатимиз учун эртак бўлган бўлса, бугунги кунда у кундалик ҳаётимизнинг ажралмас қисмига айланиб қолди. Худди шундай ҳолатни компьютер техникаси бўйича ҳам айтиш мумкин. Булардан фойдалангандан кейин, уларга хизмат қиладиган ва таъмирлайдиган хизматнинг янги турлари ҳам пайдо бўлади. Бундай жараёндан орқада қолиш бугунги рақобат шароитида кўп нарсалардан ютқазиб қўйишлари мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ш.М. Мирзиёев. Ўзбекистон - 2030 стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон.
2. M.Q.Pardayev, A.N.Xoliqulov, T.I.Yahyoyev. Iqtisodiy tahlil. Darslik., SamISI, “Fan bulog‘i” nashriyoti, Samarqand.: 2024, 25,0 б.т.
3. A.N.Xoliqulov. Iqtisodiy tahlil va audit. O‘quv qo‘llanma, Samarqand: Fan bulo‘g‘i nashriyoti, 2023 yil – 208 bet 13,06 b.t.
4. A.N.Холиқулов. Туристик корхоналар фаолияти таҳлили. Ўқув-қўлланма, Самарқанд.: Фан булоғи нашриёти, 2024 йил - 312 бет, 19,5 б.т.
5. Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 274 bet. 17,12 b.t.

Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o‘g‘li SamISI
Real iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD
lazizmakhmudov90@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6819-6543

**Elektron tijoratda mijoz ishonchi va samaradorlikni oshirishda teskari
logistikani rivojlantirishning innovatsion yo‘llari**

Annotatsiya: Maqola O‘zbekistonda elektron tijoratda teskari logistikani innovatsion modellar orqali optimallashtirish va samaradorlikni oshirish yo‘llariga bag‘ishlangan. Tadqiqot teskari logistikani hududiy moslashuvchan model asosida tashkil etish, raqamli texnologiyalarni (blokcheyn, geolokatsiya, mobil ilovalar) joriy etish va xalqaro logistika operatorlari bilan hamkorlik qilishni muhokama qiladi. Qaytarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mahalliy hamkorlar (pochta, do‘konlar) tarmoqlaridan foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlash taklif etiladi. Maqola O‘zbekistonning infratuzilma cheklovlari, qonunchilik bo‘shliqlari va mahalliy mentalitetni hisobga olgan holda teskari logistikani rivojlantirish strategiyalarini taqdim etadi, bu esa mijozlar ishonchini oshirish va iqtisodiy foyda keltirishga xizmat qiladi.

Asosiy soʻz va iboralar: Elektron tijorat, teskari logistika, hududiy moslashuvchan model, raqamlashtirish, blokcheyn texnologiyasi, geolokatsiya, mobil ilovalar, ekologik barqarorlik, xalqaro logistika, mahalliy hamkorlik.

Abstract: The article focuses on enhancing efficiency in Uzbekistan's e-commerce through the application of innovative reverse logistics models. The study discusses organizing reverse logistics based on a regionally adaptive model, adopting digital technologies (blockchain, geolocation, mobile apps), and collaborating with international logistics operators. It proposes automating return processes, leveraging local partner networks (postal services, stores), and ensuring environmental sustainability. The article presents strategies for developing reverse logistics, considering Uzbekistan's infrastructure limitations, legislative gaps, and local mentality, thereby fostering customer trust and economic benefits.

Key words: E-commerce, reverse logistics, regionally adaptive model, digitization, blockchain technology, geolocation, mobile applications, environmental sustainability, international logistics, local partnership.

Kirish. Elektron tijoratda tovarlarni qaytarish tizimlarini (teskari logistika) boshqarish tizimini takomillashtirish bugungi kunda yanada dolzarb masalaga aylangan. Internet orqali xaridlar ortib borishi bilan, mijozlar uchun qulay va samarali qaytarish jarayonlari taqdim etish ehtiyoji kuchaygan. Qaytarish siyosati va jarayonlarining aniq, oson va tezkor boʻlishi mijozlar qonoqish darajasini yaxshilaydi, ular oʻzlarini xavfsiz (aldanishdan qoʻrqish hissi boʻlmaydi) his qiladi va bu orqali brendga boʻlgan ishonchni oshiradi. Shu bilan birga, qaytarish jarayonlarini optimallashtirish bizneslar uchun xarajatlarni kamaytirish, zaxira va logistika jarayonlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Natijada, nafaqat mijozlarning qoniqishini taʼminlash, balki kompaniyaning umumiy operatsion samaradorligini oshirish ham mumkin boʻladi. Shunday qilib, elektron tijoratda qaytarish tizimlarini boshqarishni takomillashtirish, brendning raqobatbardoshligini oshirish va mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni mustahkamlash uchun zarurdir.

Elektron tijoratda sotilgan tovarlarning qaytarilish foizi mamlakat va bozorga qarab farq qiladi. Masalan, "AQShda 2023-yilda elektron tijorat bozorida sotilgan 761 milliard AQSh dollarlik tovardan 152 milliard AQSh dollarligi, ya'ni taxminan 20 foizni qaytarilgan"³⁹. Boshqa mamlakatlarda, masalan, Xitoyda esa qaytarish foizi 30 foizni gacha yetishi mumkin⁴⁰. Oʻzbekistonda esa bu koʻrsatkich haqida aniq statistik maʼlumotlar mavjud emas, lekin global trendlar asosida elektron tijoratda

³⁹ Soliyev Bahromjon Nabijonovich, and Ismoilova Muyassarxon Raxmatali Qizi. "Elektron tijoratda qaytarilishlarni optimallashtirish va ularning natijalari" *Al-Fargʻoniy avlodlari*, no. 4, 2024, pp. 418-421. doi:10.5281/zenodo.14555469

⁴⁰ <https://daryo.uz/2023/09/26/ozbekistonda-elektron-tijorat-kecha-va-bugun>

qaytarish darajasi odatda 15-25 foizni oralig'ida⁴¹ bo'lishi kutiladi. Bu qaytarish tizimlarini samarali boshqarish zaruratini kuchaytiradi, chunki mijozlar uchun qulaylik va ishonchni ta'minlash muhimdir.

“Teskari logistika — bu iste'molchidan ishlab chiqaruvchiga yoki ta'minot zanjirining boshqa nuqtasiga teskari yo'nalishda tovarlar oqimini boshqarish jarayonidir. An'anaviy logistikadan farqli o'laroq, teskari logistika tovarlarni qaytarish, ta'mirlash, qayta tiklash, qayta ishlash yoki utilizatsiya qilish kabi faoliyatlar bilan shug'ullanadi”⁴².

Metodologiya (Methods)

Ushbu tadqiqotda elektron tijoratda teskari logistika tizimlarini samarali tashkil etish hamda ularni hududiy jihatdan moslashtirish bo'yicha ilmiy-metodik yondashuvlar qo'llanildi. Metodologik asos sifatida tizimli tahlil, innovatsion modellashtirish va amaliy tajriba asosidagi yondashuvlar tanlab olindi. Tadqiqotda O'zbekiston hududida elektron tijoratda qaytarish jarayonlarini yaxshilashga doir mavjud infratuzilma, texnologik imkoniyatlar va ijtimoiy-iqtisodiy omillar chuqur o'rganildi.

Tahlil metodlari sifatida bir necha yondashuvlardan foydalanildi:

- **SWOT-tahlil** yordamida teskari logistika tizimini joriy etishning kuchli va zaif tomonlari, tashqi imkoniyatlar va tahdidlar aniqlandi;

- **Taqqoslovchi tahlil** orqali ichki va xalqaro teskari logistika modellari o'rtasidagi asosiy farqlar baholandi;

- **Scenario tahlili** orqali turli alternativ logistik yondashuvlarning istiqbollari va ularning elektron tijoratga ta'siri tahlil qilindi;

- **Empirik metodlar** yordamida ilg'or xorijiy tajribalardan (Amazon, Alibaba, eBay) olingan real misollar asosida O'zbekiston sharoitida mos modellar ishlab chiqildi;

- **Innovatsion model tahlili** orqali "hududiy moslashuvchan teskari logistika modeli" taklif qilinib, uning bosqichma-bosqich ishlash mexanizmi ishlab chiqildi.

Shuningdek, tahlil jarayonida raqamli texnologiyalarni logistika xizmatlariga integratsiyalash imkoniyatlari, geolokatsion yechimlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va mobil ilovalar asosida teskari logistika xizmatlarini soddalashtirish va mijozlar uchun qulaylashtirish imkoniyatlari baholandi. Natijalarda esa hududiy ehtiyojlarga mos innovatsion modellar asosida elektron tijorat samaradorligini oshirish yo'llari aniqlandi.

⁴¹ <https://capitaloneshopping.com/research/average-retail-return-rate/>

⁴² <https://logos3pl.com/uz/blog/reverse-logistics-101-the-complete-guide-to-circular-supply-chain/>

Natijalar (Results)

Elektron tijoratda teskari logistika jarayonlarini samarali tashkil etish O'zbekistonda barcha hududlarning o'ziga xos jihatlari hisobga olgan holda kompleks yondashuvni talab qiladi. Asosiy maqsad – yirik shaharlardan tortib eng olis qishloqlargacha bo'lgan hududlarda samarali va tezkor ishlaydigan yagona tizimni yaratishdir. Teskari logistika jarayonlarini qamrab olishni kengaytirish uchun turli usullarning kombinatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Biz bu jarayonda **hududiy moslashuvchan teskari logistika modelidan** foydalanish samarali bo'ladi deb hisoblaymiz. Bunda teskari logistikaning boshlanish nuqtasi 3 ta asosiy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

1. Statsionar qabul punktlari (pochta bo'limlari, hamkor do'konlar) bilan bir qatorda mobil yig'ish punktlari (avtomobillar, dronlar)ni yo'lga qo'yish mumkin. Bu hududlarning qamrab olish imkoniyatini oshiradi.

2. Xaridorlarga qaytarish jarayonini osonlashtirish uchun tovarlarni o'zlari uchun qulay bo'lgan joyga (pochta bo'limi, buyurtma berish punktlari) olib kelish imkoniyatini taqdim etish zarur.

3. Yirik shaharlar va viloyat markazlarida kuryer xizmatlaridan foydalanish qaytarish jarayonlarini tezlashtiradi.

Xaridor va kompaniya o'rtasidagi jarayonlarni shaffoflashtirish hamda tezkor qilish uchun bir xilda ishlaydigan tartiblarni joriy etish zarur. Ya'ni, tovarni qaytarish, uni qadoqlash va jo'natish jarayonlari uchun aniq hamda tushunarli yo'riqnomalarni ishlab chiqish va qaytarilayotgan tovarlarning holati hamda jarayonini kuzatishga imkon beradigan dasturlar orqali jarayonni boshqarish imkoniyati bo'lishi kerak.

Qishloq va olis hududlarda qaytarish jarayonini samarali tashkil etish uchun mahalliy hamkorlardan foydalanish yuqori samara beradi, deb o'ylaymiz. Bular:

- pochta xizmatlari bilan hamkorlik: pochta bo'limlarining keng tarmoqlaridan qaytarish jarayonida foydalanish;

- do'konlar bilan sheriklik: mahalliy do'konlarda tovarlarni qabul qilish punktlarini tashkil etish;

- logistika kompaniyalari bilan hamkorlik: maxsus xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega logistika kompaniyalari yordamida tovarlarni yig'ish va qaytarish tizimini rivojlantirish bo'lishi mumkin.

Teskari logistikaning barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mumkin. Masalan, mobil ilovalar orqali qaytarish jarayonini boshqarish (ariza yaratish, holatini kuzatish)

uchun maxsus mobil dasturlar ishlab chiqishni tashkil etish, qulay va tezkor boshqaruv imkonini beruvchi onlayn platformalar yaratish hamda kuryerlar va mobil yig'ish punktlari uchun eng qisqa hamda qulay marshrutlarni aniqlashda foydalanish imkonini beruvchi geolokatsiya tizimlarini tadbiq etish mumkin.

Teskari logistika tizimini tashkil etishda hududlarning o'ziga xos imkoniyatlarini hisobga olish zarur:

- Toshkent shahri va viloyat markazlarida: katta hajmdagi qaytariladigan tovarlarni tezkor qayta ishlash uchun katta qaytarish markazlarini (xab) yaratish mumkin.

- tuman markazlari va qishloq hududlarida: o'rta hajmdagi logistika markazlari orqali qaytarish jarayonlarini tezkor tashkil etish yoki kichik punktlar va mobil yig'ish stansiyalari orqali qishloq aholisi uchun qulay xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tovarlarni qaytarish jarayonining muhim bosqichi – xaridorlarning pul mablag'larini qaytarish bosqichidir. Xaridordan qaytarilgan tovar qabul qilingandan so'ng, texnik tekshiruvdan o'tgach avtomatlashtirilgan qaytarish tizimlari orqali pul mablag'lari avtomatik tarzda qaytarilishini ta'minlash zarur. Bu yerda asosiy jixat, pul mablag'larini qaytarish bo'yicha aniq vaqt belgilashdir, bu mijozlarning ishonchini oshiradi.

Hududiy moslashuvchan teskari logistika modelining operatsiyalar ketma-ketligi mexanizmining asosiy maqsadi mijozlar uchun qulaylik yaratish va jarayonlarni soddalashtirishdir. Bu mexanizmni samarali amalga oshirish, shuningdek, tovarlarning qaytarilishiga doir turli hududlarning maxsus sharoitlarini inobatga olishni talab qiladi. Bunday yondashuv, nafaqat teskari logistika jarayonlarini tezlashtirishga yordam beradi, balki raqamli texnologiyalar yordamida xarajatlarni kamaytiradi va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

Hududiy moslashuvchan teskari logistika modelining afzalligi, hududiy sharoitlarni hisobga olgan holda ishlaydi va qishloqdan shahargacha bo'lgan turli logistika ehtiyojlariga moslashadi. Standartlashtirilgan jarayonlar va zamonaviy raqamli texnologiyalar mijozlarga vaqt va kuchni tejash imkonini beradi. Hamkorlik dasturlari orqali hattoki uzoq va chekka hududlarda ham teskari logistika imkoniyati yaratiladi. Yo'nalishlarni optimallashtirish va mahalliy imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali logistika xarajatlari sezilarli darajada kamayadi. Qaytarilgan tovarlar bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilinib, jarayonlarni takomillashtirish va mijozlarga yaxshiroq xizmat ko'rsatish yo'llarini izlash, logistika jarayonlariga jalb etilgan xodimlar uchun maxsus o'quv dasturlarini tashkil etish,

ularni mijozlarga xizmat ko'rsatish sohasida rivojlantirish, qaytarish jarayonlarini sodda va aniq tushuntirish orqali mijozlarda ishonch va qoniqish hissini oshirish, katta o'lchamli, nozik yoki o'ziga xos tovarlar uchun alohida qaytarish tartiblarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ushbu modelning o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi.



1-rasm. Hududiy moslashuvchan teskari logistika modelining operatsiyalar ketma-ketligi⁴³

Ushbu modelning eng katta ustunligi – uning moslashuvchanligi va

⁴³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

universalligidadir. Modelni O'zbekistonning har bir hududi uchun individual tarzda moslashtirish orqali mijozlar ehtiyojlarini qondirish, xizmat sifatini yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Natijada elektron tijoratda mijozlarning qoniqish darajasi oshadi va soha barqaror rivojlanadi.

Hududiy moslashuvchan teskari logistika modelini xalqaro elektron tijorat bilan bog'lash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Xalqaro logistika operatorlari bilan hamkorlik qilish. Xalqaro darajada teskari logistika jarayonlarini samarali tashkil etish uchun global logistika operatorlari (masalan, DHL, UPS, FedEx) bilan hamkorlik qilish kerak. Bu operatorlar:

- tovarlarni chet eldan qaytarishda standartlashtirilgan jarayonlarni taqdim etadi;
- qaytariladigan tovarlarning bojxona hujjatlarini rasmiylashtirishni osonlashtiradi;
- katta hajmdagi xalqaro yuklarni qayta ishlash bo'yicha tajribaga ega.

2. Raqamli platformalar orqali integratsiya. Xalqaro bozorda ishlaydigan platformalar, masalan, **Amazon, eBay**, yoki **Alibaba**, allaqachon samarali teskari logistika tizimlariga ega. Ushbu platformalar bilan quyidagi yo'nalishlarda integratsiya qilish mumkin:

• **API integratsiyasi:** mahalliy teskari logistika platformasini global tizimlar bilan bog'lash. Bu mijozlar uchun buyurtmalarni qaytarish jarayonlarini bir xil standartda tashkil qilishga imkon beradi.

• **global kuzatuv tizimlari:** tovarlarning xalqaro tranzit jarayonini real vaqtda kuzatish imkoniyatini yaratish.

• **to'lov tizimlari integratsiyasi:** xalqaro mijozlarga pulni qaytarish jarayonini tezlashtirish uchun Stripe, PayPal va boshqa to'lov tizimlaridan foydalanish.

3. Qayta ishlash va qayta eksport qilish markazlari tashkil etish. O'zbekistonda xalqaro bozordan qaytarilgan tovarlar uchun maxsus qayta ishlash markazlarini tashkil etish:

- ushbu markazlarda tovarlar sinchkovlik bilan tekshiriladi, ularning holati baholanadi;
- qayta sotilishi mumkin bo'lgan tovarlar xalqaro bozorga eksport qilinadi;
- ishlatib bo'lmaydigan tovarlar ekologik jihatdan xavfsiz tarzda utilizatsiya qilinadi yoki qayta ishlanadi.

4. Mahalliy va xalqaro bojxona jarayonlarini moslashtirish. Xalqaro teskari logistika jarayonlarida bojxona rasmiylashtiruv muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston bojxona tizimida quyidagi chora-tadbirlarni joriy etish kerak:

• **soddalashtirilgan bojxona jarayonlari:** teskari logistika uchun alohida bojxona yondashuvini ishlab chiqish. Masalan, qaytarilayotgan tovarlarga bojxona yig'imlarini minimallashtirish.

• **elektron deklaratsiyalar:** tovarlarning kirib kelishi va chiqib ketishini avtomatlashtirilgan tizimlar orqali boshqarish.

5. Global mijozlar bilan ishlashni soddalashtirish. Xalqaro elektron tijoratda mijozlar uchun teskari logistika jarayonlarini osonlashtirish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

• **Ko'p tilli xizmat:** Qaytarish jarayonlari uchun bir nechta tilda ishlaydigan mijozlarga xizmat ko'rsatish markazlari.

• **Moslashuvchan to'lov tizimlari:** Har bir mintaqadagi mijozlarning qulayligi uchun xalqaro va mahalliy to'lov tizimlarini taklif etish.

• **Standart qaytarish siyosati:** Xalqaro mijozlar uchun bir xil, tushunarli va shaffof qaytarish qoidalarini joriy etish.

6. Ekologik barqarorlikni ta'minlash. Xalqaro teskari logistika jarayonlarida atrof-muhitni himoya qilish muhim:

• **Qayta ishlash va qayta foydalanish:** O'zbekiston hududida qaytarilgan tovarlarni qayta ishlash va yana xalqaro bozorga chiqarish strategiyasi.

• **Transport tizimlarini ekologik modernizatsiya qilish:** Elektr transport vositalari yoki karbon chiqindilarini kompensatsiyalash dasturlaridan foydalanish.

7. Teskari logistika jarayonlarini tezlashtirish. Xalqaro mijozlar bilan ishlash jarayonini tezlashtirish uchun:

• **Regional qaytarish markazlari:** Tovarlarni vaqtincha saqlash va qayta ishlash uchun hududiy markazlar yaratish.

• **Tovarlarni avtomatlashtirilgan qayta saralash:** Texnologiyalar yordamida xalqaro yuklarni darhol qayta ishlash va mijozlarga qayta jo'natish imkoniyatini yaratish.

• **Ekspress qaytarish xizmati:** Tezkor mijoz talablarini bajarish uchun express xizmatlar.

Ushbu strategiyalar xalqaro elektron tijoratni O'zbekiston teskari logistika modeli bilan muvaffaqiyatli bog'lash imkonini beradi. Bu nafaqat mahalliy logistika samaradorligini oshiradi, balki O'zbekistonni xalqaro elektron tijoratning muhim bo'lagi sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Elektron tijoratda hududiy moslashuvchan teskari logistika modelining joriy etilishi kompaniyalar uchun nafaqat operatsion samaradorlikni oshirish, balki moliyaviy natijalarni yaxshilash imkonini ham yaratadi. Innovatsion yondashuvlar

asosida tovarlarni qaytarish va yetkazib berish jarayonlarining optimallashtirilgan boshqaruvi transport xarajatlarini sezilarli kamaytiradi, ayniqsa mahalliy logistika tarmoqlaridan foydalanish kichik hududlarda xarajatlarni tejashga yordam beradi. Shuningdek, tovarlarni qayta ishlash, tiklash va ikkilamchi bozorda realizatsiya qilish orqali resurslardan oqilona foydalaniladi. Bu esa nafaqat chiqimlarning oldini oladi, balki qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, tez va shaffof qaytarish tizimining joriy etilishi mijozlar ishonchini mustahkamlab, ularning xarid qilish faoliyatini rag‘batlantiradi, natijada kompaniyaning brend qadriyati va bozor ulushi ortadi.

Teskari logistika tizimining ekologik va ijtimoiy afzalliklari ham alohida e‘tiborga loyiq. Qaytarilgan tovarlarni ekologik xavfsiz tarzda utilizatsiya qilish, ularni qayta ishlanadigan materiallarga aylantirish yoki zararsiz tarzda yo‘q qilish orqali kompaniyalar atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo‘shadi. Bu jarayonlar korxonalarining ijtimoiy mas‘uliyatini oshiradi va brend obro‘cini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, qaytarish tizimlarining samarali faoliyati yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy kadrlarning malakasini oshirish va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish bilan ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda bunday modelni tatbiq etish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, resurslardan tejamkor foydalanish va elektron tijorat sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi kompleks innovatsion yechim sifatida qaralishi mumkin.

Muhokama (Discussion)

Elektron tijoratda sotilgan tovarlarning qaytarilishiga bir nechta sabablar bo‘lishi mumkin. Eng ko‘p uchraydiganlari quyidagilardir:

1. Tovar sifatining kutilgan darajaga javob bermasligi. Mijozlar tovarni onlayn ko‘rganlarida, uni real hayotda ko‘rganlarida yoki ishlatganlarida kutgan sifatni topmasliklari mumkin. Bu, ayniqsa kiyim-kechak va elektronika tovarlari uchun keng tarqalgan sababdir.

2. Notog‘ri o‘lcham yoki dizayn mos kelmasligi. Maxsus kiyim-kechak, oyoq kiyimlari yoki boshqa tovarlarda o‘lchamlar mos kelmasligi, mijozlarning tovarni qaytarishiga olib keladi. Kiyim va aksessuarlar uchun noto‘g‘ri o‘lchamlar qaytarishning eng keng tarqalgan sabablaridan biridir.

3. Yetkazib berishdagi muammolar. Tovar yetkazib berishda zarar ko‘rgan yoki kechikkan bo‘lsa, mijozlar uni qaytarishga qaror qilishi mumkin. Yetkazib berishdagi kechikishlar yoki noto‘g‘ri manzilga yetkazib berish ham qaytarish sabablaridan biridir.

4. Funktsional muammolar. Elektronika yoki texnik tovarlar ishlashda

muammolar yuzaga kelishi mumkin, bu esa mijozlarni qaytarishga uchun majbur qiladi.

5. Boshqa tovarni tanlashni afzal ko'rish. Mijozlar ba'zan faqatgina tovarni sinab ko'rish uchun sotib olishadi va keyinchalik boshqa tovarni tanlashni afzal ko'rishadi. Bu holat, ayniqsa, aksiyalar yoki chegirmalar vaqtida ko'proq yuz beradi.

6. Xizmat sifatining pastligi. Ba'zi mijozlar sotuvchining mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatidan norozi bo'lishi mumkin. Mijozlarga yordam berishda kechikishlar yoki mijozlarni qoniqtirmagan sotuvchining siyosati qaytarishning sabablaridan biri bo'lishi mumkin. Bu sabablar elektron tijoratda qaytarish darajasini oshirishi mumkin, ammo samarali qaytarish tizimlari orqali bu muammolarni kamaytirish mumkin.

Teskari logistika jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqich muhim ahamiyat kasb etadi:

1. **Qaytarish:** iste'molchi tovarni qaytarish istagini bildiradi va tovar belgilangan joyga qaytariladi.

2. **Qabul qilish va tekshirish:** tovar qabul qilinib, uning holati tekshiriladi. Agar tovar qaytarish siyosatiga mos bo'lsa (zarar yetmagan bo'lsa yoki foydalanilmagan bo'lsa), xaridorga pul qaytariladi. Pul dastlabki to'lov usuliga mos ravishda qaytariladi va odatda 5-10 ish kuni davomida amalga oshiriladi.

3. **Saralash:** tovarlar holatiga qarab to'rt guruhga ajratiladi: qayta sotish, ta'mirlash, qayta ishlash yoki utilizatsiya uchun ajratiladi.

4. **Ta'mirlash yoki qayta tiklash:** ta'mirlanishi mumkin bo'lgan tovarlar sozlanib, foydalanishga yaroqli holatga keltiriladi yoki yangilanadi.

5. **Qayta ishlash:** ishlatib bo'lmaydigan tovarlar qayta ishlanadi va ularning materiallari boshqa maqsadlarda qo'llaniladi.

6. **Utilizatsiya:** qayta ishlashga yaroqsiz tovarlar ekologik talablar asosida utilizatsiya qilinadi.

7. **Tahlil va zaxira boshqaruvi:** qaytarish jarayonidan olingan ma'lumotlar asosida tovar sifati, logistika jarayonlari va mijozlar bilan aloqalar tahlil qilinadi hamda muammoli nuqtalar yaxshilanadi.

Iste'molchilar tovarni qaytarish istagini bildiradilar	• Mahsulotlar do'kon, ombor yoki belgilangan joyga qaytariladi
Qabul qilish va tekshirish	• Mahsulotni qabul qilish • Holatni tasdiqlash • Pulni qaytarish
Saralash	• Mahsulotlar turiga qarab saralanadi (qayta sotish, ta'mirlash, qayta ishlash yoki utilizatsiya)
Ta'mirlash yoki qayta tiklash	• Ta'mirlanadigan mahsulotlar texnik ko'rikdan o'tkazilib, foydalanishga yaroqli holatga keltiriladi • Qayta tiklash jarayonida mahsulot yangi sifatga ega bo'ladi
Qayta ishlash	• Yaroqsiz yoki chiqindiga aylangan mahsulotlar qayta ishlanadi • Bu bosqichda mahsulot materiallari boshqa maqsadlar uchun ishlatilishi mumkin
Utilizatsiya	• Qayta ishlashga yaroqsiz mahsulotlar ekologik standartlarga muvofiq ravishda utilizatsiya qilinadi
Zaxira boshqaruvi va ma'lumotlarni tahlil qilish	• Qaytarish jarayonidan to'plangan ma'lumotlar asosida korxonalar mahsulot sifatini, logistika jarayonlarini va mijozlar bilan aloqalarni yaxshilaydi

2- rasm. Teskari logistika jarayoni bosqichlari⁴⁴

Ushbu bosqichlarning har biri teskari logistikani samarali tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi va kompaniyaning barqaror rivojlanishi hamda daromadini oshirishga yordam beradi.

Teskari logistika jarayonida quyidagi qiyinchiliklarga duch kelinishi mumkin:

- qaytarib berishning murakkabligi;
- qaytarilgan tovarlarning holatini baholash;
- turli tovarlar uchun eng mos joylashtirish usulini aniqlash;
- qoidalarga rioya qilishni ta'minlash⁴⁵.

Teskari logistika zamonaviy biznes operatsiyalarining dinamik jihati bo'lib, barqarorlik va mijozlar tajribasini yaxshilashga yordam beradi. Elektron tijoratda bu jarayonning samarali boshqarilishi korxonalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Elektron tijoratda qaytarish tizimlarini boshqarish tizimini qulaylashtirish bir qator ijobiy natijalar beradi. Avvalo, qaytarish jarayonini soddalashtirish va

⁴⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

⁴⁵ <https://simpleglobal.com/uz/news/how-ecommerce-and-the-sharing-economy-are-reshaping-logistics/>

tezlashtirish iste'molchilarga qulaylik yaratadi, bu esa ularning qoniqishini oshiradi, mijozlar kutilmagan holatlar yuzaga kelganda tovarni qaytarish imkoniyatiga ega bo'lishlari bilan o'zlarini xavfsiz his qilishadi. Samarali qaytarish tizimi brendga bo'lgan ishonchni kuchaytiradi, chunki mijozlar oson va shaffof qaytarish jarayonini ko'rganlarida brendni takroran tanlashga moyil bo'lishadi. Bu esa sotuvlarni oshiradi, chunki iste'molchilar qaytarish imkoniyatini hisobga olgan holda ko'proq tovarlarni sotib olishga tayyor bo'lishadi. Shuningdek, qaytarish tizimlarini boshqarishni takomillashtirish orqali logistika jarayonlari yanada samarali bo'ladi, bu qaytariladigan tovarlarni tezda qayta ishlash va zaxirani yaxshilash imkonini beradi. Qaytarish jarayonlari orqali to'plangan ma'lumotlar kompaniyalarga mijozlarning xulq-atvorini tahlil qilish va tovar sifatini yaxshilash uchun foydali bo'lishi mumkin. Nihoyat, samarali qaytarish tizimlari kompaniyani raqobatchilaridan ajratib turadi, chunki yaxshi qaytarish siyosati iste'molchilar uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu natijalar elektron tijoratda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, kompaniyalar uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Yirik elektron tijorat platformalari mijozlar uchun qulaylikni oshirish va operatsion samaradorlikni yaxshilash maqsadida turli qaytarish tizimlarini qo'llaydi. Masalan, **Amazon** kengaytirilgan qaytarish tizimini taklif etadi, bunda mijozlarga qaytarish etiketkasini tezda yaratish va aksariyat tovarlar uchun bepul yetkazib berish taqdim etiladi. Foydalanuvchilar tovarni 30 kun ichida sababsiz qaytarish imkoniga ega. **eBay** qaytarish tizimi sotuvchilarga qaytarish qoidalarini moslashtirish imkoniyatini beradi. Xaridorlar tovarni olganidan keyin ma'lum bir muddat ichida qaytarish so'rovini yuborishlari mumkin, tizim esa avtomatik xabarlar va hisobotlar orqali jarayonni boshqarishga yordam beradi. **Shopify** qaytarishlarni boshqarish uchun keng qamrovli vositalarni taqdim etadi, masalan, qaytarish jarayonini avtomatlashtirish va logistika hamkorlari bilan integratsiya qilish, bu esa ortga jo'natishni va kuzatishni soddalashtiradi. **Alibaba** qaytarish tizimini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa B2B va B2C segmentlari uchun maxsus ishlab chiqilgan platformalar orqali qaytarilgan buyurtmalarni va teskari logistika jarayonlarini boshqarishni ta'minlaydi. Ushbu tizimlar sotuvchilar va xaridorlar uchun qulaylik va samaradorlikni ta'minlaydi, bu esa umumiy elektron tijorat tajribasini yaxshilaydi.

Elektron tijoratda tovarlarni qaytarishlarni boshqarish – bu murakkab jarayon bo'lib, tizimli yondashuvni talab qiladi. Kompaniyalar bu jarayonni optimallashtirish uchun bir nechta asosiy yondashuvlardan foydalanadilar.

1-jadval

Elektron tijoratda tovarlarni qaytarish tizimlarining asosiy yondashuvlari

№	Yondashuvlar	Tavsifi
1.	Proaktiv yondashuv	Bu yondashuv qaytarishlarni sodir bo'lishini oldini olishga qaratilgandir. Bunda, yuqori sifatli fotosuratlar va videolarni turli tomonlardan ko'rsatish mijozga tovar haqida to'liqroq tasavvur beradi. Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar mijozlarga faqat ular uchun kerakli bo'lgan tovarlarni tanlashda yordam beradi. Qaytarishlar bo'yicha oldingi ma'lumotlarni tahlil qilish, qaysi tovarlar ko'proq qaytarilishi mumkinligini aniqlash va oldini olish uchun choralarni ko'rish imkonini yaratadi.
2.	Reaktiv yondashuv	Bu yondashuv sodir bo'lgan qaytarishlarni samarali boshqarishga qaratilgandir. Qaytarish jarayonining oddiy va tushunarli bo'lishi, mijozga tovarni tez va oson qaytarish imkonini beradi. Qaytarish so'rovini ko'rib chiqish va mijozga pulni qaytarish jarayonini maksimal darajada tezlashtiradi. Mijozlarga qaytarishning turli variantlarini (pochta, qabul qilish punktlari, kuryerlik xizmati) taqdim etiladi. Qaytarilgan tovarni jo'natish xarajatlarini qaytarish yoki keyingi xarid uchun kuponlar taqdim etish mumkin.
3.	Integratsiyalashgan yondashuv	Bu yondashuv proaktiv va reaktiv yondashuvlarning elementlarini birlashtiradi. U qaytarishlarni oldini olish uchun choralarni hamda qaytarishlarni samarali ko'rib chiqish tizimini o'z ichiga oladi.

Elektron tijoratda qaytarish tizimlarini boshqarish uchun bir nechta yondashuv va tizimlar mavjud. Birinchidan, zaxirani boshqarish tizimlari (IMS) tovarlarning mavjudligini real vaqt rejimida kuzatishga yordam beradi, bu esa qaytariladigan tovarlarni tezda qayta ishlash imkonini beradi⁴⁶. Ikkinchidan, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari (CRM) mijozlarning fikr-mulohazalarini to'plash va qaytarish jarayonida shaxsiylashtirilgan yordam ko'rsatishga imkon yaratadi⁴⁷. Uchinchi yondashuv sifatida, buyurtmalarni bajarish tizimlari (Fulfillment Systems) tovarlarni qadoqlash va yetkazib berish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi, bu esa qaytarish jarayonini soddalashtiradi. Shuningdek, to'lovni qayta ishlash tizimlari (Payment Processing Systems) xavfsiz to'lovlarni amalga oshirish va qaytarish jarayonida moliyaviy operatsiyalarni boshqarishga yordam beradi⁴⁸. Bularning barchasi elektron tijoratda qaytarish jarayonlarini yanada samarali va qulay qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobot berish tizimlari orqali kompaniyalar qaytarilish sabablari va tendensiyalarini aniqlab, tovar sifatini yaxshilash bo'yicha qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi⁴⁹. Ushbu yondashuvlar birgalikda elektron tijoratda qaytarish tizimlarini boshqarishni takomillashtirishga yordam beradi.

Qaytarishlarni boshqarish uchun turli tizimlar va vositalar qo'llaniladi.

⁴⁶ <https://intereuroconf.com/index.php/MSRAIDP/article/download/4677/3478/3477>

⁴⁷ <https://uzconferences.org/index.php/magistr/article/view/5>

⁴⁸ https://tami.uz/matnga_qarang.php?id=229


⁴⁹ <https://cyberleninka.ru/article/n/elektron-tijoratning-samaradorligini-oshirish-vositallari-va-usullari>

• **elektron tijorat platformalaridagi o‘rnatilgan tizimlar:** ko‘plab mashhur platformalar (Shopify, Magento, WooCommerce) qaytarishlarni boshqarish uchun o‘rnatilgan vositalarni taqdim etadi, bu esa qaytarish qoidalarini yaratish, qaytarish holatini kuzatish va mijozlar bilan muloqot qilish imkonini beradi;

• **maxsus dasturiy yechimlar:** maxsus dasturlar qaytarishlarni boshqarish uchun kengroq funktsionallikni taqdim etadi, jumladan boshqa tizimlar bilan integratsiya, ma’lumotlarni tahlil qilish va jarayonlarni avtomatlashtirishdir;

• **jadval protsessorlari va CRM tizimlari:** murakkab bo‘lmagan variantlar bo‘lib, ular qaytarishlarni hisobga olish va mijozlar bilan muloqot qilishni ta’minlaydi, lekin ma’lumotlarni qo‘lda kiritishni talab qiladi.

Elektron tijoratda qaytarish tizimini samarali boshqarish turli komponentlarni o‘z ichiga oladi, ularning har biri muhim rol o‘ynaydi. Ular aniq ko‘rsatmalar, muddatlar va qaytarish shartlarini o‘z ichiga oladi, bu esa qaytarish jarayonini kamroq muammoli qiladi. Bu komponentlar birgalikda samarali qaytarishlarni boshqarishni ta’minlaydi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi va mijozlarga yaxshiroq tajriba taqdim etadi.



3-rasm. Samarali qaytarish tizimi boshqaruvining asosiy komponentlari⁵⁰

Qaytarishlarni boshqarish tizimini tanlashga ta'sir qiluvchi omillarga biznesning hajmi, tovar assortimenti va korxona byudjeti katta ta'sir o'tkazadi. Masalan, kichik onlayn do'konlar uchun elektron tijorat platformalarining o'rnatilgan vositalari yetarli bo'lishi mumkin, katta kompaniyalar uchun esa maxsus dasturiy yechimlar kerak bo'ladi. Yuqori qaytarish ehtimoli bo'lgan tovarlar (masalan, kiyim-kechak, poyafzal) uchun moslashuvchan tizim zarur. Tizimni joriy etish va qo'llab-quvvatlash xarajatlari byudjetga bog'liq bo'ladi.

⁵⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Elektron tijoratda teskari logistikani ichki va xalqaro yo'nalishlar uchun alohida shakllantirish muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayonlar o'zaro sezilarli darajada farq qiladi. Quyida bu ikki yo'nalishning asosiy jihatlari keltirilgan:

Ichki teskari logistika:

1. Huquqiy tartiblar: ichki bozorda qaytarish jarayoni odatda milliy qonunchilikka asoslanadi, bu esa jarayonni soddalashtiradi va yagona tartibda amalga oshiriladi.

2. Logistika va transport: tovarlarni qaytarish qisqa masofalarga amalga oshirilgani bois tez va arzon kechadi.

3. Xarajatlar va soliqlar: ichki qaytarish jarayonlarida qo'shimcha bojxona yoki soliq to'lovlari talab qilinmaydi, bu esa jarayonni soddalashtiradi.

4. Mijozlar bilan muloqot: mahalliy mijozlar bilan bir xil til va vaqt zonasi doirasida ishlash mijoz tajribasini yaxshilaydi.

Xalqaro teskari logistika:

1. Bojxona va eksport-import qoidalari: tovarlarni boshqa davlatlardan qaytarishda qo'shimcha deklaratsiyalar, ruxsatnomalar va bojxona rasmiylashtiruvi talab etiladi.

2. Yetkazib berish muddati: masofalar uzoqligi sababli tovarni qaytarish jarayoni ko'proq vaqt oladi.

3. Xarajatlar: xalqaro qaytarish transport xarajatlari, bojxona to'lovlari va boshqa tariflar tufayli ancha qimmatga tushadi.

4. Qonunchilik farqlari: har bir davlatning qaytarish va iste'molchilar huquqlari bo'yicha o'ziga xos talablari jarayonni murakkablashtiradi.

5. Til va madaniyat farqlari: turli davlatlardan bo'lgan mijozlar bilan ishlash uchun ko'p tilli xizmat ko'rsatish va madaniy o'ziga xosliklarni inobatga olish zarur.

Ichki va xalqaro elektron tijorat uchun samarali teskari logistika tizimini tashkil qilishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

- qaytarish siyosatlari: ichki va xalqaro mijozlar uchun alohida qaytarish siyosatlarini ishlab chiqish, ularning muddati, shartlari va xarajatlarini aniq belgilash;

- qaytarish markazlari: sotuvlar hajmi va geografik joylashuvga qarab markazlashgan yoki bo'linma qaytarish markazlarini tashkil etish;

- hamkorlik: xalqaro qaytarish jarayonlarini soddalashtirish uchun logistika kompaniyalari va bojxona brokerlari bilan hamkorlik qilish.

Ichki va xalqaro teskari logistikani alohida shakllantirish kompaniyaga jarayonlarni optimallashtirish, mijozlarni qoniqtirish darajasini oshirish va xarajatlarni kamaytirishda yordam beradi. Shu bilan birga, bu qadam korxonaning

barqaror rivojlanishi va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda elektron tijorat sohasida teskari logistikani tashkil etishning o'ziga xos tomonlari mamlakatning infratuzilmasi, qonunchiligi, va iste'molchilar xulq-atvori bilan chambarchas bog'liq. Bu jarayon rivojlanish bosqichida bo'lsa-da, unga mahalliy ehtiyojlar va sharoitlarni hisobga olgan holda yangicha yondashuv talab qilinadi. O'zbekistonda teskari logistikaning o'ziga xos jihatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Infratuzilmaning cheklanganligi. O'zbekistonning ayrim hududlarida, ayniqsa qishloq joylarda logistika xizmatlari yetarlicha rivojlanmagan. Tovarni qaytarish jarayoni ko'pincha murakkab va ko'p xarajatli bo'lib, bu nafaqat kompaniyalar uchun, balki mijozlar uchun ham qo'shimcha noqulaylik tug'diradi. Yo'l-transport tizimining rivojlanishi va logistika markazlarining yetishmasligi bu jarayonni sekinlashtiradi.

Qonunchilikdagi bo'shliqlar. Elektron tijorat sohasida tovarlarni qaytarish va qayta ishlashga doir aniq qoidalar yo'qligi muammolarni yanada murakkablashtiradi. Mijozlar tovarni qanday va qachon qaytarish mumkinligini yaxshi bilmaydi, kompaniyalar esa bu jarayonda o'z mas'uliyatlarini aniqlashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Mahalliy mentalitet va mijozlarning odatlari. O'zbekiston aholisi orasida elektron tijoratga nisbatan to'liq ishonch hali shakllanmagan. Ko'pchilik mijozlar tovarni qaytarishdan ko'ra, uni ta'mirlash yoki boshqa maqsadlarda ishlatishni afzal ko'radi. Shu sababli, teskari logistika jarayoni nafaqat texnik, balki psixologik jihatdan ham qiyin kechadi.

Teskari logistika jarayonining xarajatlari. Ko'pgina kompaniyalar uchun tovarlarni qaytarib olish va qayta ishlash jarayonlari yuqori xarajatlarni talab qiladi. Bu, ayniqsa, kichik biznes vakillari uchun jiddiy moliyaviy yuk bo'lishi mumkin. O'zbekiston sharoitida, tovarni qaytarish uchun maxsus xizmatlar hali keng tarqalmagan.

Ekologik barqarorlik masalalari. Teskari logistika jarayonlari orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash hali keng qamrab olinmagan. Tovarlarni qayta ishlash markazlarining yo'qligi, chiqindilarni kamaytirish bo'yicha mexanizmlarning yetarli emasligi bu sohada rivojlanishga to'siq bo'lib turibdi.

O'zbekistonda teskari logistikani rivojlantirishda mahalliy sharoit va ehtiyojlarni hisobga olish orqali samarali va ekologik barqaror tizimni yaratish mumkin. Infratuzilmani rivojlantirish, qonunchilikni takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali kompaniyalar mijozlarga yuqori darajadagi xizmat

ko'rsatib, o'z raqobatbardoshligini oshirish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki O'zbekistonni barqaror rivojlanish yo'liga olib chiqadi.

O'zbekistonda elektron tijoratda teskari logistikani samarali boshqarish uchun shahar va qishloq hududlarida bir xil ishlaydigan, xaridorlar ishonchini oqlaydigan bir nechta innovatsion model va uslublarni joriy etish mumkin.

2-jadval

O'zbekistonda elektron tijorat teskari logistikasini samarali boshqarishning innovatsion model va uslublari

№	Model va uslublari	Tavsifi	Natija
1.	Kombinatsiyalangan logistika modeli (Hub-and-Spoke modeli)	Shahar va qishloq hududlarida qaytarish jarayonini qulay va tejamli tashkil qilish uchun markaziy ombor (hub) va mahalliy qaytarish punktlari (spoke) tarmog'ini tashkil etishni zarurat qiladi.	Qishloq joylaridagi mijozlar uchun qaytarish jarayonini soddalashtiradi. Mahalliy qaytarish punktlari orqali tezkor xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi.
2.	Ko'p kanalli (Omnichannel) qaytarish tizimi	Xaridorlar tovarni qaytarish uchun onlayn va oflayn (ya'ni savdo nuqtalari orqali) xizmatlardan foydalanishi mumkin bo'lgan tizim.	Xaridorlar o'zlariga qulay usulni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tovarlarini qishloq joylarda savdo do'konlari yoki mahalliy logistika xizmatlari orqali qaytarish imkoniyati.
3.	Mahalliy kooperatsiya asosidagi qaytarish tizimi	Qishloq hududlarida tadbirkorlar yoki kichik biznes subyektlari bilan hamkorlik qilib, qaytarish jarayonini tashkil qilish.	Mahalliy tadbirkorlar ishtirokida tovarlarni qaytarish jarayonini qulaylashtirish. Mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash.
4.	O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish punktlari (Self-service kiosks)	Qishloq va shahar hududlarida o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminallarini o'rnatish orqali tovarlarni qaytarish imkoniyati.	Doimiy va tezkor xizmat ko'rsatish. Xaridorlar tovarni o'zlariga qulay vaqtda qaytarish imkoniga ega bo'ladi.
5.	Blokcheyn asosidagi shaffof qaytarish tizimi	Blokcheyn texnologiyasidan foydalangan holda qaytarish jarayonining barcha bosqichlarini shaffof kuzatib borish.	Xaridorlar qaytarish jarayonining holatini real vaqt rejimida kuzatishi mumkin. Jarayonning adolatli va ishonchli ekanligini ta'minlaydi.
6.	Iste'molchilar ehtiyojiga moslashgan qaytarish tizimi (Personalized Return Services)	Xaridorlar uchun individual yondashuv asosida qaytarish shartlarini taklif qilish (masalan, bepul qaytarish yoki muqobil tovar taklif qilish).	Xaridorlar ehtiyojiga mos xizmat ko'rsatish orqali ishonchni oshirish. Qishloq joylarda qaytarish jarayonini soddalashtirish.
7.	Raqamli platformalardan foydalanish (Mobile Returns Management)	Mobil ilovalar orqali tovarni qaytarish jarayonini avtomatlashtirish.	Xaridorlar uchun tezkor va qulay xizmat ko'rsatish. Qishloq joylarda internet orqali masofaviy boshqaruv imkoniyati.

Ushbu model va uslublari qishloq va shahar hududlarida xaridorlarga bir xil

sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlab, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishga ko'mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832-son Qarori: "Logistika tizimini rivojlantirish va transport xizmatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". – 2018 yil 17 iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. – 2021 yil 20 aprel. – O'RQ-682.
4. Хашимова, З. Б. **Тескари логистика ва унинг иқтисодий самарадорлиги** // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – 2022. – №6. – Б. 87–93.
5. Тўхтаева, Д. **O'zbekiston sharoitida logistika tizimini rivojlantirish masalalari** // TDIU Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №2. – В. 45–51.
6. Rasulov, A. **Elektron tijoratda iste'molchi ishonchini oshirish omillari** // Marketing va Raqobat. – 2024. – №3. – В. 22–29.
7. Tohirova D. O'zbekiston sharoitida logistika tizimini rivojlantirish // TDIU, 2023.

Рустамов Жамшид Эргашевич,
Самаркандский институт экономики и сервиса,
доцент, доктор философии по педагогическим
наукам (Ph.D), rustamovjam7@gmail.com.

Влияние информационных технологий на повышение качества образовательного процесса при преподавании экономических дисциплин

Аннотация: в статье рассматривается влияние информационных технологий на повышение качества образовательного процесса при преподавании экономических дисциплин. На основе педагогического эксперимента и социологического анкетирования выявлено, что использование цифровых платформ и электронных образовательных ресурсов способствует росту учебной мотивации, вовлечённости студентов и более глубокому усвоению учебного материала. Сравнительный анализ контрольной и экспериментальной групп показал устойчивый положительный эффект от применения информационных технологий, что подтверждает их значимость как ключевого инструмента модернизации современного высшего образования.

Ключевые слова: информационные технологии; цифровые платформы; экономическое образование; мотивация студентов; качество усвоения знаний; педагогический эксперимент.

Abstract: The article examines the impact of information technologies on improving the quality of the educational process in teaching economic disciplines. Based on a pedagogical experiment and a sociological survey, it was revealed that the use of digital platforms and electronic educational resources contributes to increased learning motivation, student engagement, and a deeper assimilation of educational material. A comparative analysis of the control and experimental groups showed a consistent positive effect from the use of information technologies, confirming their significance as a key tool for modernizing modern higher education.

Keywords: information technologies; digital platforms; economic education; student motivation; quality of knowledge assimilation; pedagogical experiment.

Введение

Современные тенденции цифровизации образования усиливают роль информационных технологий (ИТ) в учебном процессе и делают их одним из ключевых факторов развития высшего образования. По данным ЮНЕСКО (2023), более 90 % университетов мира уже интегрировали цифровые платформы либо в отдельные курсы, либо в полные образовательные программы, что отражает глобальный характер происходящих изменений. В отчёте ОЭСР (2023) указывается, что использование цифровых инструментов повышает эффективность усвоения учебного материала на 15–20 % за счёт индивидуализации обучения и расширения интерактивных форм преподавания.

Особое значение цифровизация приобретает при преподавании экономических дисциплин, которые предполагают не только овладение теоретическим знанием, но и практическое применение аналитических и исследовательских инструментов. Результаты международных сравнительных исследований (UNCTAD, 2022) свидетельствуют о том, что студенты, обучающиеся с использованием цифровых симуляторов и интерактивных экономических моделей, демонстрируют в среднем на 18 % более высокие показатели по аналитическим заданиям по сравнению с обучающимися традиционными методами.

В национальном контексте Узбекистан также активно движется в сторону цифровизации образования. Согласно данным Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан (2024), свыше 65 % образовательных программ включают элементы электронного или дистанционного обучения, а около 40 % вузов внедрили собственные цифровые

образовательные платформы. В рамках реализации «Стратегии цифрового Узбекистана – 2030» предполагается довести этот показатель до 90 % к 2030 году, что подтверждает стратегическую значимость ИТ для образовательной системы страны.

В этой связи интеграция информационных технологий в образовательную среду становится неотъемлемым условием повышения качества подготовки специалистов, формирования у студентов устойчивой учебной мотивации, развития аналитического и критического мышления, а также обеспечения их конкурентоспособности в условиях глобальной цифровой экономики.

Методы

Для анализа влияния информационных технологий в преподавании экономических дисциплин были применены методы педагогического эксперимента и социологического анкетирования. В исследовании приняли участие 120 студентов экономического факультета, разделённых на две группы: контрольную (60 человек), где обучение осуществлялось преимущественно традиционными методами (лекции, семинарские занятия, печатные материалы), и экспериментальную (60 человек), в которой активно использовались цифровые платформы и электронные образовательные ресурсы, включая мультимедийные презентации, онлайн-тесты и симуляционные модели.

Для получения объективных результатов сравнение проводилось по трём ключевым показателям: **учебная мотивация, уровень вовлечённости в образовательный процесс и качество усвоения материала**. Анкетирование охватило более 95 % студентов обеих групп, что обеспечило репрезентативность выборки. Согласно данным предварительного опроса, базовый уровень мотивации студентов в контрольной и экспериментальной группах был сопоставим (разница не превышала 3 %), что позволило обеспечить корректность сравнительного анализа.

В ходе эксперимента применялись статистические методы обработки данных: расчёт средних значений, определение относительных приростов и сравнение динамики изменений в контрольной и экспериментальной выборках. Например, уровень вовлечённости измерялся по шкале активности участия в занятиях (от 0 до 10 баллов), а качество усвоения фиксировалось по итоговым результатам текущих и итоговых тестирований. Такой подход позволил выявить не только общие тенденции, но и числовые различия между исследуемыми группами.

Результаты

Анализ статистических данных подтвердил, что применение информационных технологий оказывает устойчивое положительное воздействие на качество образовательного процесса. В экспериментальной группе 71 % студентов отмечали регулярное повторное обращение к материалам посредством онлайн-доступа, тогда как в контрольной группе данный показатель составил лишь 32 %. Разница почти в 40 процентных пунктов указывает на значительное преимущество цифровой среды в обеспечении доступности учебного контента.

Особое внимание заслуживает фактор самостоятельности в обучении: 56 % студентов экспериментальной группы сообщили, что использование цифровых ресурсов стимулировало их к углублённому изучению материала и закреплению знаний без прямого участия преподавателя. Для сравнения, в контрольной группе этот показатель составил 28 %, что почти в два раза ниже.

Результаты также выявили рост учебной мотивации: по итогам анкетирования 74 % респондентов из экспериментальной группы оценили собственную вовлечённость в образовательный процесс как «высокую» или «очень высокую», тогда как среди студентов контрольной группы аналогичный показатель достиг только 46 %. Анализ итоговой успеваемости также подтвердил положительный эффект внедрения информационных технологий: средний балл студентов экспериментальной группы оказался на 11 % выше, чем у их сверстников, обучавшихся традиционными методами.

Сравнительный анализ результатов, полученных в ходе исследования, свидетельствует о том, что систематическое применение информационных технологий оказывает комплексное воздействие на образовательный процесс, выражающееся в повышении учебной мотивации, росте вовлечённости студентов и улучшении качества усвоения материала. Зафиксированные статистические различия между контрольной и экспериментальной группами подтверждают устойчивость выявленных тенденций и демонстрируют воспроизводимость положительного эффекта. В совокупности эти данные позволяют рассматривать цифровые инструменты не как вспомогательный элемент учебного процесса, а как значимый и эмпирически обоснованный фактор повышения эффективности современного экономического образования, обладающий потенциалом дальнейшего масштабирования и интеграции в образовательные практики.

Обсуждение

Полученные результаты свидетельствуют о закономерной и

статистически подтверждённой результативности применения информационных технологий в образовательном процессе. Их внедрение позволяет органично сочетать традиционные формы преподавания с интерактивными методами, что обеспечивает более глубокое усвоение учебного материала. В экспериментальной группе рост средней успеваемости составил 11 % по сравнению с контрольной, а уровень вовлечённости студентов увеличился более чем на 25 процентных пунктов. Данные анкетирования также подтвердили, что 74 % студентов экспериментальной группы оценили мотивацию к обучению как «высокую» или «очень высокую», тогда как в контрольной группе аналогичный показатель не превысил 46 %.

В условиях подготовки специалистов в области экономики цифровые инструменты приобретают особую значимость. Международные отчёты подтверждают выявленные тенденции: по данным ОЭСР (2023), внедрение цифровых технологий позволяет повысить результативность образовательного процесса в среднем на 15–20 % за счёт индивидуализации обучения и повышения интерактивности. В исследованиях ЮНЕСКО (2023) отмечается, что более 90 % университетов мира используют элементы цифрового обучения, а в странах с активной цифровизацией (например, Южная Корея и Сингапур) успеваемость студентов по экономическим дисциплинам возросла на 18–22 % после внедрения мультимедийных симуляторов и онлайн-платформ.

В национальном контексте данные Министерства высшего образования, науки и инноваций Узбекистана (2024) показывают, что свыше 65 % образовательных программ включают цифровые модули, а у студентов, использующих онлайн-курсы и симуляционные программы, фиксируется в среднем на 12 % более высокий результат тестирования. Это подтверждает не только эффективность цифровых инструментов, но и их стратегическую роль в формировании профессиональных компетенций будущих экономистов.

Применение цифровых технологий в образовательной среде проявляется не только в повышении качества усвоения материала студентами, но и в расширении возможностей учебного процесса. Цифровые инструменты обеспечивают моделирование реальных экономических процессов, создавая условия для практико-ориентированного обучения. Их использование позволяет проводить аналитические расчёты в интерактивной форме, что способствует развитию у студентов навыков критического мышления и аналитической интерпретации данных. В условиях глобальной цифровой экономики подобные возможности приобретают стратегическое значение, так

как формируют у будущих специалистов конкурентоспособные профессиональные компетенции, необходимые для успешной деятельности в динамично изменяющейся социально-экономической среде.

Заключение

Таким образом, информационные технологии выступают одним из ключевых факторов повышения качества современного высшего экономического образования. Их интеграция способствует развитию самостоятельности студентов, росту мотивации и формированию практико-ориентированных навыков, что делает образовательный процесс более эффективным и соответствующим требованиям цифровой экономики.

Список литературы

1. Базаров Б. Цифровизация образования: тенденции и перспективы. – Ташкент: Fan, 2023.
2. Digital Economy Report 2023. – UNCTAD, Geneva, 2023.
3. UNESCO. Education for the Digital Age. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
4. Strategy "Digital Uzbekistan – 2030". – Tashkent, 2020.
5. OECD. Digital Education Outlook 2023. – Paris: OECD, 2023.

Mirzayeva Shirin Nodirovna SamISI
“Real iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi
mirzayevashirin502@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0005-0035-636X>

XIZMAT KO‘SATISH SOHASIDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY HOKIMIYAT VA JAMOATCHILIK TASHKILOTLARINING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlari hamda jamoatchilik tashkilotlarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlikka jalb etish hamda ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashda hududiy boshqaruv tizimining muhim vazifalari yoritilgan. Shuningdek, mahalliy hokimiyat va jamoatchilik tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar, grantlar, treninglar hamda mentorlik loyihalarining amaliy samaradorligi o‘rganilgan. Maqolada ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish, ularni moliyaviy, axborot va

institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar tadbirkorligi, xizmat ko'rsatish sohasi, mahalliy hokimiyat, jamoatchilik tashkilotlari, iqtisodiy faollik, gender tenglik, hududiy rivojlanish.

Abstract. This article explores the role and significance of local authorities and public organizations in promoting women's entrepreneurship in the service sector. The research highlights key aspects of increasing women's economic activity, engaging them in entrepreneurial initiatives, and supporting their business projects at the local level. The effectiveness of various government and community programs, grants, training initiatives, and mentoring projects aimed at empowering women entrepreneurs is analyzed. The article also provides recommendations for creating favorable socio-economic conditions, strengthening financial, informational, and institutional support mechanisms to enhance women's participation in the service economy.

Keywords: women's entrepreneurship, service sector, local government, public organizations, economic activity, gender equality, regional development.

Kirish. Hozirgi davrda xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va bandlikni oshiruvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bu sohada xotin-qizlarning faolligini kuchaytirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayollar tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki ijtimoiy barqarorlik, oilaviy farovonlik va mahalliy jamoalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator davlat dasturlari, qonun hujjatlari va mahalliy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Ayollar daftari" tizimi, "Ayollarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" faoliyati, "Har bir ayol – tadbirkor" dasturi, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tashkil etilayotgan biznes-treninglar, grantlar va subsidiyalar ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda nafaqat davlat boshqaruvi, balki jamoatchilik tashkilotlari, nodavlat notijorat sektor va mahalliy hamjamiyatlarning ham faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi, ayniqsa, ayollar uchun tadbirkorlikni boshlashda qulay sharoit yaratadi. Chunki bu tarmoq nisbatan kam mablag' talab etadi, moslashuvchan ish shakllariga ega va ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, ayollarning oila

bilan uyg'un tarzda mehnat faoliyatini olib borish imkonini beradi. Shu bois, mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilik tashkilotlari tomonidan aynan xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb masalaga aylangan.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Yevropa Ittifoqi, hamda Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro institutlar ham ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, bu yo'nalishda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlamoqda. Mahalliy darajada esa hokimliklar huzurida tuzilgan "Ayollar maslahat kengashlari", "Biznes ayollar assotsiatsiyasi", "Tadbirkor ayollar markazlari" kabi tuzilmalar amaliy yordam beruvchi muhim institutlarga aylanmoqda.

Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat va jamoatchilik tashkilotlarining o'rni, ularning o'zaro hamkorlik mexanizmlari, mavjud muammolar hamda ularni hal etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada mahalliy boshqaruv tizimi orqali ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilg'or tajribalar o'rganilib, amaliy takliflar ilgari suriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ularni xizmat ko'rsatish sohasiga keng jalb etish va bu jarayonda mahalliy hokimiyat hamda jamoatchilik tashkilotlarining o'rnini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar so'nggi yillarda dolzarb masalaga aylandi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar, milliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. [1, 2]

Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, Jahon banki (World Bank, 2023), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO, 2022), hamda BMTning "UN Women" tuzilmasi tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy boshqaruv tizimlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Tadqiqotlarda ayollarning biznesdagi ishtirokini kengaytirish uchun hududiy darajada moliyaviy resurslarga teng kirish imkonini yaratish, mahalliy darajada biznes-inkubatorlar va mentorlik tizimini rivojlantirish zarurligi qayd etilgan (OECD, Women in Business Report, 2021). [3, 4]

Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribasida ham xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda mahalliy hokimiyatlarning faol roli muhim hisoblanadi.

Masalan, Germaniya va Fransiya “Local Women Business Councils” (Mahalliy ayollar biznes kengashlari) orqali ayollar uchun grantlar, o‘quv kurslari va marketing yordam ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Janubiy Koreya, Malayziya va Hindistonda esa jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlikda “Women Empowerment Hubs” markazlari tashkil etilib, xizmat ko‘rsatish sohasida kichik bizneslarni rivojlantirishga katta turtki berilmoqda. [4]

O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlari ham bu borada e‘tiborga molikdir. Jumladan, I. Karimov (2018), N. Abdullayeva (2020), Sh. Ismoilova (2022) va M. Jo‘raev (2023)larning ilmiy ishlarida ayollar tadbirkorligining iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik omillari tahlil qilingan. Ularning fikricha, ayollarni biznesga jalb etishda mahalliy hokimiyatlar tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, masalan, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va soliq yengilliklari muhim ahamiyatga ega. [5, 6]

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasida 2019–2024 yillarda amalga oshirilgan davlat dasturlarida — xususan, “Har bir ayol – tadbirkor”, “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” hamda “Yoshlar va ayollar bandligini ta‘minlash” milliy strategiyalarida xotin-qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va ularga xizmat ko‘rsatish sohasida zarur infratuzilmani yaratish masalalari belgilab berilgan. Ushbu hujjatlar doirasida mahalliy hokimliklar huzurida “Ayollar maslahat kengashlari” tashkil etilib, ularning asosiy vazifasi tadbirkorlikni boshlash istagidagi ayollarga maslahat, trening va moliyaviy ko‘mak ko‘rsatishdan iborat bo‘ldi.

Jamoatchilik tashkilotlarining roli ham adabiyotlarda keng yoritilgan. Masalan, “Tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi”, “Biznes ayollar klubi” va “Ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazlari” kabi tashkilotlar mahalliy darajada ijtimoiy sheriklik mexanizmlari orqali ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda muhim platformaga aylangan. Bu tashkilotlar nafaqat trening va maslahat xizmatlarini, balki biznes tarmoqlanishiga, raqamli marketingga o‘rgatish, onlayn-savdo platformalariga kirish imkonini yaratishda ham faol ishtirok etmoqda.

Xorijiy adabiyotlarda qayd etilishicha, xotin-qizlar tadbirkorligini samarali rivojlantirish uchun mahalliy boshqaruv, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor o‘rtasidagi “uchburchak hamkorlik” (triple collaboration) tizimi muhim natija beradi. Bunday modelda hokimiyat muvofiqlashtiruvchi, jamoatchilik tashkilotlari targ‘ibotchi, biznes sektori esa moliyaviy va amaliy qo‘llab-quvvatlovchi rolni bajaradi. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat va jamoatchilik tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi — iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikni kengaytirish, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va gender tengligini mustahkamlashda

hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli, ilmiy tadqiqotlarda bu yo‘nalishda tizimli yondashuvni ishlab chiqish, tajriba almashish va mahalliy boshqaruv amaliyotini modernizatsiya qilish zarurati alohida ta’kidlanadi. [7]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilik tashkilotlarining o‘rni, roli hamda ular o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, tahlil va sintez, taqqoslama tahlil, induksiya va deduksiya, statistik hamda SWOT tahlil usullari tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi barcha omillar – iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, institutsional va psixologik jihatlar tizimli tarzda o‘rganildi. Mahalliy hokimiyat, jamoatchilik tashkilotlari va xususiy sektor o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar bir butun boshqaruv mexanizmi sifatida tahlil qilindi. Bu yondashuv xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda mavjud kuchli va zaif tomonlarni kompleks baholash imkonini berdi. [7, 8]

Mazkur usul yordamida O‘zbekistonning xizmat ko‘rsatish sohasidagi mavjud holati, ayollar tadbirkorligining hozirgi darajasi va mahalliy boshqaruv tizimi faoliyati o‘rganildi. Turli manbalar, davlat statistik ma’lumotlari, ilmiy maqolalar, hamda xalqaro tashkilotlarning hisobotlari asosida muammoli jihatlar ajratib olindi va ularning yechim yo‘llari sintez qilindi. Tadqiqotda O‘zbekiston tajribasi Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya va Polsha kabi mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslab o‘rganildi. Xorijda xotin-qizlarni xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb etish, ularni moliyaviy, tashkiliy va axborot jihatdan qo‘llab-quvvatlashda mahalliy hokimiyatlarning o‘rni tahlil qilindi. Bu solishtirma yondashuv O‘zbekiston sharoitida samarali modelni ishlab chiqish uchun asos yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, “Ayollar daftari”, “Har bir ayol — tadbirkor” dasturi hamda tegishli vazirlik va idoralar ma’lumotlari asosida ayollarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi bandligi, ularning daromad darajasi, tadbirkorlikdagi ishtiroki, yangi ish o‘rinlari soni kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Masalan, 2024-yil yakunlariga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning 34 foizini ayollar tashkil etgan. Shuningdek, 2023–2024 yillarda ayollar uchun 150 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilganligi aniqlangan.

Mazkur metodlar yordamida alohida holatlardan umumiy xulosalar chiqarish (induksiya) va nazariy asoslardan amaliy takliflarga o‘tish (deduksiya) amalga oshirildi. Masalan, ayrim hududlarda (Toshkent, Farg‘ona, Samarqand viloyatlari)

ayollar tadbirkorligining muvaffaqiyatli tajribalari umumlashtirilib, ularni boshqa hududlarda joriy etish bo'yicha konseptual tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasining xizmat ko'rsatish sohasi tanlandi. Tadqiqot predmeti esa — mazkur sohada xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat va jamoatchilik tashkilotlarining tashkiliy-iqtisodiy o'rni, mexanizmlari va hamkorlik yo'nalishlaridir.

Tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish sohasida ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash siyosatini takomillashtirish, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini optimallashtirish, hamda jamoatchilik tashkilotlarining rolini kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin. Shuningdek, bu natijalar oliy o'quv yurtlarida iqtisodiyot, menejment va ijtimoiy fanlar yo'nalishlarida o'quv-uslubiy material sifatida qo'llanishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilik tashkilotlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Mazkur jarayon mamlakatda ayollarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash hamda ijtimoiy faolligini oshirishda muhim mexanizm bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari asosida viloyat, tuman va shahar hokimliklarida "Ayollar daftari", "Tadbirkor ayol" dasturlari hamda mahallabay ishlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Ushbu dasturlar orqali minglab xotin-qizlarga grantlar, imtiyozli kreditlar va o'quv kurslari orqali o'z biznesini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratildi.

Masalan, 2024-yilda respublika miqyosida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan ayol tadbirkorlar ulushi 28 foizdan 34 foizgacha oshgani kuzatilgan. Bu esa mahalliy boshqaruv organlarining ayollarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etishdagi faol ishtirokini ko'rsatadi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreya, Turkiya, Polsha kabi davlatlarda mahalliy hokimiyatlar va nodavlat tashkilotlar ayollar biznesini rivojlantirishda innovatsion platformalar, mentorluk tizimlari va mahalliy grant dasturlari orqali faol yordam ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida esa bu yo'nalish endilikda shakllanib bormoqda. Solishtirish natijalariga ko'ra, xorijiy mamlakatlarda mahalliy hokimiyatlar ayollarni nafaqat moliyaviy, balki marketing, raqamli savodxonlik va huquqiy maslahat bilan ham qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois, O'zbekistonda ham mahalliy darajada ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini diversifikatsiya qilish zarur.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkor ayollarning:

- 41,3 foizi – maishiy xizmatlar sohasida;
- 26,7 foizi – ta'lim va sog'liqni saqlash yo'nalishida;
- 18,4 foizi – axborot va kommunikatsiya xizmatlarida;
- 13,6 foizi – turizm va madaniyat sohasida faoliyat yuritmoqda.

Mahalliy hokimiyat organlarining ayollar tadbirkorligi uchun ajratgan mablag'lari esa 2021-yildagi 420 mlrd so'mdan 2024-yilda 1,1 trln so'mga oshgan. Bu o'sish natijasida xizmatlar sohasida ayollar bandligi 17 foizga ko'tarilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyatlar faoliyati iqtisodiy faollikni oshirish, oilaviy farovonlikni ta'minlash hamda jamiyatda gender tenglikni mustahkamlashda strategik omil bo'lib xizmat qilmoqda. Mahalliy kengashlar huzurida Ayollar masalalari bo'yicha komissiyalar, Jamoatchilik kengashlari hamda kasaba uyushmalari ayollarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surmoqda. Bu holat davlat siyosatining mahalliy darajada barqaror amalga oshirilishiga yordam bermoqda. Quyidagi jadvalda ayrim davlatlar tajribasi keltirilgan:

1-jadval

Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorlar ulushi (2021–2024-yillar, %)⁵¹

№	Yil	Umumiy tadbirkorlar soni (ming)	Shundan ayollar ulushi (%)	O'sish sur'ati (%)
1	2021	182,4	27,1	—
2	2022	196,8	29,5	+8,8
3	2023	211,2	31,9	+7,9
4	2024	228,6	33,8	+9,3

Tahlil shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda xotin-qizlar ishtirokidagi kichik biznes va xizmat ko'rsatish korxonalari soni izchil oshmoqda. 2024-yilda mamlakat bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasidagi ayol tadbirkorlar ulushi 33,8% ni tashkil etdi. Ulardan katta qismi go'zallik saloni, tikuvchilik, ta'lim, sog'liqni saqlash, IT va marketing xizmatlari yo'nalishida faoliyat yuritmoqda. Ko'rinib turibdiki, 2021–2024 yillar davomida xotin-qizlar tadbirkorligi 6,7% ga o'sgan bo'lib, bu natijalarga erishishda mahalliy hokimiyatlarning ayollar uchun

⁵¹ Statistik ma'lumotlar asosida tahlil (2021–2024-yillar, %)

grantlar, imtiyozli kreditlar, tadbirkorlik markazlari tashkil etish tashabbuslari muhim rol o'ynagan.

2-jadval

O'zbekiston va ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasining taqqoslamasi⁵²

№	Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	Turkiya	Janubiy Koreya
1	Ayollar tadbirkorligi dasturlari	“Ayollar daftari”, “Tadbirkor ayol”	“KOSGEB Women Entrepreneurship Program”	“Women Startup Support Center”
2	Mahalliy grantlar	Hokimliklar huzuridagi ayollar fondlari orqali	Tadbirkor ayollar jamg'armalari orqali	Innovatsion grantlar orqali
3	Mentorlik va trening tizimi	Asosan davlat organlari tashabbusi bilan	Xususiy sektor ishtirokida	Universitet va biznes markazlari hamkorligida
4	Raqamli platformalar ulushi	Endilikda shakllanmoqda	O'rta darajada rivojlangan	Yuqori rivojlangan

Tahlil natijasida aniqlandiki, xorijiy mamlakatlarda ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan xususiy sektor hamkorligi muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida ham shu yo'nalishni kuchaytirish zarur.

3-jadval

Xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat va jamoatchilik tashkilotlarining ishtirokiga oid kuchli, zaif, imkoniyat va tahdid omillari (SWOT tahlil)⁵³

Kuchli tomonlari	Zaif tomonlar
1. Davlat tomonidan ayollarni qo'llab-quvvatlash siyosatining mavjudligi; 2. Mahalliy hokimiyatlarda ayollar masalalari bo'yicha maxsus bo'limlar faoliyati; 3. Jamoatchilik tashkilotlarining keng tarmog'i; 4. Xizmat ko'rsatish sohasida ayollarning mehnatga layoqatliligi.	1. Mahalliy darajada ayollar tadbirkorligi bo'yicha koordinatsiya sustligi; 2. Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi; 3. Marketing va raqamli savodxonlik darajasining pastligi.
Imkoniyatlar	Tahdidlar
1. Raqamli iqtisodiyot va onlayn platformalar rivojlanishi; 2. Xalqaro tashkilotlarning grant dasturlari;	1. Iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya, siyosiy risklar; 2. Ijtimoiy stereotiplar va gender tenglikdagi

⁵² Muallif ishlanmasi

⁵³ Muallif ishlanmasi

3. Ayollar uchun mo'ljallangan kredit liniyalari va subsidiyalar tizimi.	muammolar; 3. Pandemiya dan keyingi xizmat ko'rsatish bozorida gi raqobatning kuchayishi.
--	--

SWOT tahlil natijalariga ko'ra, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat va jamoatchilik tashkilotlari o'rtasida yanada samarali hamkorlikni kuchaytirish, raqamli xizmatlardan foydalanishni kengaytirish va resurslardan foydalanishda shaffoflikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasi O'zbekiston iqtisodiyotida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun eng qulay yo'nalishlardan biridir. Chunki bu tarmoq kam kapital talab qiladi, oilaviy sharoitga moslashuvchan, ijtimoiy ahamiyatga ega va ayollar uchun o'zini-o'zi band qilishning muhim manbai hisoblanadi.

Mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilik tashkilotlari ushbu sohada ayollar faolligini oshirishda bevosita hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Ularning hamkorlikdagi faoliyati — ayollarning biznes g'oyalarini ilgari surish, moliyaviy resurslardan foydalanish, o'quv-trening dasturlari va maslahat xizmatlarini tashkil etish orqali sezilarli natijalar bermoqda. O'tkazilgan tahlil natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

— Mahalliy hokimiyatlarning ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashdagi faoliyati so'nggi yillarda tizimlashtirilgan shaklga ega bo'lib, "Ayollar daftari", "Har bir ayol – tadbirkor", "Ayollarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" kabi mexanizmlar orqali samarali natijalar bermoqda.

— Jamoatchilik tashkilotlari, xususan, "Biznes ayollar assotsiatsiyasi", "Tadbirkor ayollar markazi", "Oila va xotin-qizlar qo'mitasi" kabi tuzilmalar ayollar tadbirkorligining ijtimoiy asoslarini mustahkamlab, ularning huquqiy, psixologik va iqtisodiy savodxonligini oshirmoqda.

— Xizmat ko'rsatish sohasida ayollarning bandligi va daromad darajasi oshayotgan bo'lsa-da, hududlar kesimida imkoniyatlar teng emas. Aholi soni yuqori, infratuzilmasi nisbatan rivojlanmagan viloyatlarda bu borada muammolar saqlanib qolmoqda.

— Mahalliy boshqaruv organlari, nodavlat sektor va xususiy biznes o'rtasida barqaror hamkorlik mexanizmlarini yanada kuchaytirish, ayniqsa raqamli infratuzilmani kengaytirish orqali ayollar faoliyatini soddalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatini yanada samarali yo'lga

qo'yish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, mahalliy hokimiyat organlari huzurida "Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha hududiy kengashlar" tashkil etilishi lozim. Ushbu kengashlar orqali tadbirkor ayollarga moliyaviy, huquqiy, maslahat va marketing xizmatlarini bir markazda taqdim etish mumkin.

Ikkinchidan, jamoatchilik tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokida ayollar uchun mentorlik dasturlari, tajriba almashish tarmoqlari hamda raqamli savodxonlik kurslari muntazam yo'lga qo'yilishi zarur.

Uchinchidan, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan ayollarga raqamli platformalar orqali onlayn grant, kredit va subsidiyalarga murojaat qilish tizimi joriy etilishi, byurokratik to'siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, mahalliy darajada ayollar tomonidan yaratilayotgan xizmat turlarini targ'ib etuvchi marketing ko'mak markazlari tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu ayollar biznesining bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

Beshinchidan, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda hududiy ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash jamg'armalarini kengaytirish va ularga grant loyihalari asosida investitsiyalar jalb etish lozim.

Oldinchidan, xizmat ko'rsatish sohasida ayollar faoliyatini rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari, ijara to'lovlarida chegirmalar va eksport faoliyatiga qo'shimcha rag'batlar belgilanishi maqsadga muvofiq.

Yettinchidan, ayollarni oilaviy tadbirkorlik va xizmat sohasida faol ishtirok etishga undovchi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda motivatsion loyihalar yo'lga qo'yilishi kerak.

Shunday qilib, xizmat ko'rsatish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat va jamoatchilik tashkilotlarining faol hamkorligi iqtisodiy faollikni oshirish, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va barqaror rivojlanishga erishishning muhim omilidir. Shu yo'nalishda tizimli yondashuv, innovatsion dasturlar va raqamli imkoniyatlarni kengaytirish orqali ayollar tadbirkorligining yangi bosqichiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2000 yil 25 mayda qabul qilingan. 2012 yilda yangi tahriri qabul qilingan.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 – yil 11 – maydagi "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora – tadbirlari" PQ – 5113 son Qarori.

3. “Aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 6 may PQ-2960 son Qarori.

4. World Bank. (2023). Women, Business and the Law 2023: Removing Barriers to Economic Inclusion. Washington, D.C.: The World Bank Group.

5. Vohidov A. (2021). Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirishda institutsional omillar. T.: Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №4, 45–52-betlar.

6. Qodirova G. (2022). Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari. T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti.

7. Tursunova N. (2023). Xizmat ko‘rsatish sohasida ayollar bandligini kengaytirish yo‘nalishlari. Samarqand davlat universiteti ilmiy jurnali, №2, 60–68-betlar.

8. Jo‘rayev M. (2022). Ayollar iqtisodiy faolligini oshirishda innovatsion strategiyalar. T.: Iqtisodiyot va ta’lim jurnali, №3, 72–80-betlar.

9. Qaror: “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг жамиятдаги фаоллигини оширишга оид 2022–2026 йилларга мўлжалланган давлат дастури тўғрисида” // Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори, 2022 йил 7 март, №ПҚ–87.

10. World Bank. Women, Business and the Law 2023. – Washington, DC: World Bank Group, 2023. – 145 p.

11. Халқаро меҳнат ташкилоти. Аёлларни тadbirkorликка жалб этишда тўсиқлар ва имкониятлар. – Женева: ILO, 2021. – 67 б.

12. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.

13. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.

**Холиқулов Анвар Нематович -
СамИСИ “Иқтисодий таҳлил ва
статистика” кафедраси мудири, и.ф.н.,
профессор.**

**Туризм ва меҳмонхона соҳасида холимлар бошқарувининг мазмуни,
турлари ва улардан самарадорликни оширишда фойдаланиш йўллари**

Аннотация: мақолада туризм ва меҳмонхона соҳасида кадрлар менежментининг мазмуни, турлари ва улардан самарадорликни оширишда фойдаланиш йўллари, ҳамда “бошқарув қарори”, “Туризм соҳасида бошқарув қарори”, “Меҳмонхона хўжалигида бошқарув қарори” тушунчалари моҳияти ёритиб берилган.

Калит сузлар: Туризм, меҳмонхона, бошқарув қарори, туризм соҳасида бошқарув қарори, Меҳмонхона хўжалигида бошқарув қарори

Abstract: the content, types of personnel management in the field of tourism and hotels and ways of using them to increase efficiency, as well as the essence of the concepts "management decision", "management decision in the tourism sector", "management decision in the hotel industry" are explained in the article.

Key words: Tourism, hotel, management decision, management decision in the field of tourism, management decision in the hospitality industry.

Кириш. Барча соҳалар сингари туризм ва унинг таркибий қисми бўлган меҳмонхона соҳасида ҳам кадрлар менежментини такомиллаштириш бугунги кунда объектив заруратга айланди. Чунки, иқтисодий-ижтимоий жараёнлар шиддат билан ўзгариб, такомиллашиб бораётган бир паллада, уни бошқарадиган барча иқтисодий механизмларни ва унинг таркибий қисми бўлган менежмент ҳам такомиллашишни талаб қилади. Шу туфайли мазкур масаланинг асосий йўналишларини қараб чиқиш, уларнинг соҳа самарадорлигини оширишга таъсирини ўрганиш ўта долзарб масалалар сирасига киради.

Аммо туризм ва меҳмонхона соҳасида менежментининг мазмуни ва турлари ҳамда унда кадрлар менежментининг ўрни ўзимизга хос тарзда жуда кам тадқиқ қилинган. Иқтисодий адабиётларда ҳам ушбу масалалар кам ёритилган. Буларни инобатга олиб, мазкур соҳада самарадорликни оширишда менежментнинг роли қандай, унинг мазмуни нималарни, қандай масалаларни қамраб олади, уларнинг қандай турлари мавжуд, унда кадрлар менежментининг ўзига хос хусусиятлари нималардан иборат, деган саволларга жавоб беришга ҳаракат қиламиз.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Иқтисодий адабиётларда менежерлар

тўртта функцияни бажаради, деб таъкидланади. Буларга режалаштириш, ташкиллаштириш, мативлаш ва назорат қилиш функцияларини киритади⁵⁴. Менежернинг асосий вазифаси қарорларни қабул қилишда ва уларнинг бажарилишини таъминлашда ана шу функциялардан келиб чиққан ҳолда ёндошишни тақозо қилади. Бу функциялар бевосита туризм ва меҳмонхона хўжалиги соҳасида фаолият олиб бораётган менежерларга ҳам тегишлидир. Шунинг эътирофи этиш керакки, ҳозирги пайтда иқтисодийни бошқариш масаласи ҳам кундан-кунга такомиллашиб бормоқда.

Хизмат кўрсатиш соҳаси, айниқса туризм ушбу масалада ўта жиддий ўзгаришларни талаб қилмоқда. Шу туфайли соҳа менежерлари ўта зийрак ва билимдон бўлишликларини талаб қилмоқда. Улар бошқаришдаги ҳар қанда нозик ўзгаришларни ҳам илғаб оладиган бўлишлари лозим. Чунки мамлакатимизга келган туристлар дунёнинг барча бурчакларидан ташриф буюрадилар. Улар ҳамма ўзгаришлардан баҳобар одамлар бўлиши табиий. Уларни эски усуллар билан кутиб олиш ёки уларга эскича ёндошиш бугунги кун талабига мутлоқа тўғри келмайди.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот жараёнида жамлаш, гуруҳлаш, индукция ва дедукция, таҳлил ва синтез ҳамда иқтисодий таҳлилнинг анъанавий усуллари қўлланилди.

Таҳлил ва натижалар. Соҳада самарадорликни оширишга қаратилган қарорни қабул қилиш ва унинг ижросини таъминлаш жараёни мураккаб кўпбосқичли жараён экан. Шу туфайли менежер ишининг самарадорлиги айнан самарали қарорларни қабул қилиш қобилияти билан белгиланади. Қарорни қабул қилиш жараёни, таъкидланганидек, ижодий жараён бўлиб, у бошқарув фаолиятининг асосий мазмунини ўзида қамраб олади. Демак, бошқарув жараёнларида, айниқса ушбу субъектнинг самарадорлигини оширишда, бошқарув қарорларини қабул қилишнинг аҳамияти катта экан, унинг мазмуни нималардан иборатлигини ҳам назарий жиҳатдан қараб чиқишни тақозо қилади.

Бу борада анча адабиётлар нашр қилинган. Аммо бошқарув қарорининг мазмуни ва ундан келиб чиқадиган таърифи бўйича тадқиқотлар ҳамон етарли эмас. Шу туфайли бевосита туризм ва меҳмонхона хўжалигида бошқарув қарорларини таъриф беришдан олдин, унинг умумий таърифимизни беришни мақсадга мувофиқ, деб топдик. Бошқарув қарори дейилганда, бирорта соҳани бошқариш ва самарадорлигини ошириш учун бир-бири билан узвий боғлиқ бўлган, мантиқий кетма-кетликка эга бошқарув жараёнларини тартибга

⁵⁴Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. – 3-е изд, испр. – Мн.: Новое знание, 2002. – С. 212.

соладиган бошқарувчилар меҳнатларининг мажмуи тушунилади.

Мазкур таърифни назарий жиҳатдан асослаш учун қуйидагиларни таъкидлашни мақсадга мувофиқ, деб топдик. Биринчидан, бошқарув қарори дейилганда, бирорта соҳани бошқариш ҳақида гап кетмоқда. Демак умумий таъриф фақат битта соҳага тегишли бўлмасдан, барча соҳаларни қамраб оладиган бўлиши лозимлигидан далолат беради.

Иккинчидан, жараёни бошқариш учун улар бир-бири билан узвий боғлиқ бўлган, мантиқий кетма-кетликка эга бўлиши керак. Агар улар мантиқий кетма-кетликка эга бўлмаса ва бир-бири билан узвий боғлиқ бўлмаса, бошқарувда яхлитликни таъминлаб бўлмайди. Яхлитлик бўлмаган жойда тизим бўлмайди. Тизим бўлмаса мос равишда тизимли ёндошишга ҳам путр етказилади. Пировардида барча ҳаракатлар бефойда бўлиб қолади. Шу туфайли мазкур масалада мантиқий кетма-кетликка алоҳида аҳамият берилишини тақозо қилади. Ана шундай мантиқий кетма-кетлик соҳада самарадорликни ошириш учун ҳам узлуксизликни таъминлайди.

Учинчидан, бошқарув жараёнларини тартибга солиш учун ўзига хос меҳнат керак бўлади. Чунки бошқарувга қаратилган меҳнат асосан ижодий меҳнат бўлиб, уни бошқа меҳнат турлари билан алмаштириш қийин. Шу туфайли бошқариладиган жараёни умумий тарзда бошқариш учун фақат бошқарувчиларнинг бошқарув меҳнатидан фойдаланилади. Бу меҳнатнинг мажмуи бошқаришни таъминлаш имконини беради. Буни бевосита туризм ва меҳмонхона хўжалиги соҳасига ҳам қўллаш мумкинлигини инобатга олиб мазкур таъриф билан чегараланиш етарли, деб ўйлаймиз.

Аммо ушбу таърифни бевосита туризм соҳасига қўллашда ундаги “бирорта соҳа” деган сўзнинг ўрнига туризм соҳасини қўллашни инобатга олиш мумкин. Туризм соҳасида бошқарув қарори дейилганда, ушбу соҳани бошқариш ва самарадорлигини ошириш учун бир-бири билан узвий боғлиқ бўлган, мантиқий кетма-кетликка эга бошқарув жараёнларини тартибга соладиган туризмни бошқарувчилар меҳнатининг мажмуи тушунилади. Бизнинг фикримизча, мазкур таърифга изоҳнинг ҳожати йўқ. Чунки, юқорида унинг назарий асоси келтирилганлиги етарли, деб ўйлаймиз.

Ушбу таъриф бевосита меҳмонхона хўжалигига ҳам дахлдордир. Аммо унинг айрим хусусиятлари ва номидан келиб чиқиб, уни ҳам алоҳида келтиришни мақсадга мувофиқ, деб топдик. Меҳмонхона хўжалигида бошқарув қарори дейилганда, ушбу соҳани бошқариш ва самарадорлигини ошириш учун бир-бири билан узвий боғлиқ бўлган, мантиқий кетма-кетликка эга бошқарув

жараёнларини тартибга соладиган меҳмонхона хўжалигини бошқарувчилар меҳнатининг мажмуи тушунилади. Ушбу таъриф мазмунан бир хил бўлсада, туризм билан меҳмонхона алоҳида субъектлар бўлганлиги туфайли уларга алоҳида беришни мақсадга мувофиқ, деб топдик.

Туризм ва меҳмонхона хўжаликларида бошқарув қарорлари ҳам бажариш муддати бўйича турли даврларга ўз ичига олади. Кўп қарорлар, одатда жорий даврга мўлжалланган бўлади. Булар қисқа муддатли, яъни бир йилгача бўлган даврда бажарилиши таъминланиши лозим бўлган қарорларни ташкил қилади. Кўпгина адабиётларда бир йилдан ортиқ вақтга мўлжалланган қарорларни узоқ муддатда бажариладиган қарорлар, деб юритилади. Бундай қарорларни бир йилдан уч йилгача даврни қамраб олишига қараб ўрта муддатли қарорлар, деб аталишига қўшилаемиз. Узоқ муддатли қарорлар тўрт ва ундан ортиқ муддатга мўлжалланган бўлади. Булар меҳмонхона ёки туризм соҳасининг стратегиясини белгиловчи самарадорлигини оширишга қаратилган қарорлар бўлиб ҳисобланади. Шу жиҳатдан барча қарорларнинг турларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир.

Бошқарув қарорларининг навбатдаги йўналиши қамраб олиш даражаси бўйича таснифланади. Бунда қарорлар, юқорида таъкидланганидек, умумий, яъни мазкур субъектда фаолият кўрсатадиган ҳамма ходимларга тегишли қарор бўлиб ҳисобланади. Масалан, туризм ва меҳмонхона хўжаликларида иш самарадорлигини ва сифатини оширишга қаратилган қарор. Бу ҳамма ходимларга тегишлидир. Бироқ, ушбу соҳада ҳам айрим мутахассисларга, бўлимларга тегишли қарорлар ҳам бўлиши мумкин. Масалан, ўз вақтида иш ҳақини беришга эришиш, бу асосан бухгалтерия ходимларига тегишли. Ёки кадрлар малакасини ошириш графигини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш. Бу бевосита кадрлар бўлими ходимларига тегишлидир ва ҳ.к. Бундай мазмундаги қарорлар қисман аҳамиятга эга бўлган қарор бўлиши мумкин.

Бошқарув қарорларини мураккаблиги бўйича ҳам таснифлаш мумкин. Бу ҳолда мураккаб ечимга эга бўлган қарорларни инобатга олиш лозим. Бундай қарорларни бажаришда раҳбарлар, менежерлар, мутахассисларнинг ҳамкорликдаги ҳаракатлари лозим бўлади. Акс ҳолда ушбу қарорни бажариш имконияти бўлмайди. Масалан, ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатишни модернизация қилиш жараёни. Бунинг учун мазкур қарорнинг бажарилишига оддий механикдан тортиб раҳбаргача, бухгалтердан тортиб, молиявий менежергача ҳамма ходимларнинг жалб қилинишини талаб қилади. Шу билан бирга туризм ва меҳмонхона хўжаликларида оддий ечимга эга бўлган қарорлар

ҳам бор. Ушбу қарорларнинг ечими оддий. Масалан, булар жумласига ходимларнинг навбатчилигини белгилаш ва уни таъминлашга қаратилган қарор ёки ходимларнинг сменасига ўзгартиришлар киритиш бўйича қабул қилинадиган қарорлар кабиларни келтириш мумкин. Буларнинг барчаси мазкур субъектларда самарадорликни оширишга қаратилган бўлиши лозим.

Бошқарув қарорларининг навбатдаги йўналиши, уларнинг доимийлиги бўйича таснифланишидир. Бунинг бир йўналиши такрорланадиган қарорлар бўлиб ҳисобланади. Бундай қарорлар вақти-вақти билан такрорланиб туради. Масалан, ҳар йили мазкур субъект фаолиятида самарадорликни оширишга қаратилган режани тузиш ва тасдиқлаш бўйича қабул қилинадиган қарор. Ёки йил (чорак) якулари бўйича ҳисоботни тақдим этишга қаратилган қарорнинг қабул қилиниши кабиларни таъкидлаш жоиз. Мазкур гуруҳ таркибида бир марталик қарорларнинг борлигини ҳам инобатга олиш лозимдир. Булар бир марта қабул қилинади ва бажарилади. Унга кейинчалик умуман қайтмаслиги мумкин. Масалан, туризм соҳасига оид дунё миқёсида ташкил қилинган конференция делегацияларини кутиб олиш, уларни жойлаштириш ва жўнатиш билан боғлиқ тадбирларни қамраб оладиган қарорларни келтириш мумкин.

2. **Подготовка преподавателей** к использованию Lumio посредством специализированных курсов и тренингов, направленных на эффективное применение цифровых инструментов.

3. **Разработка смешанных форматов обучения**, сочетающих традиционные методы преподавания с интерактивными цифровыми ресурсами, что позволит повысить мотивацию и вовлечённость студентов.

4. **Адаптация Lumio в рамках национальной стратегии цифровизации образования** («Цифровой Узбекистан – 2030»), учитывая задачи по внедрению инновационных технологий и повышению конкурентоспособности выпускников на глобальном рынке труда.

Таким образом, Lumio можно рассматривать как перспективный инструмент модернизации системы экономического образования, способствующий формированию критического мышления, развитию аналитических навыков и повышению качества профессиональной подготовки студентов.

Список литературы

1. Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030». – Ташкент: Министерство юстиции Республики Узбекистан, 2020. – 64 с.

2. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2023. – 410 p.

3. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 472 p.

4. Ибрагимова Г.Г. Реализация цифровой стратегии Узбекистана в сфере образования. // *Цифровая трансформация*, 2023.

5. Юлдашев Б.Ш. Интерактивные образовательные системы и их влияние на учебную мотивацию студентов экономических направлений. // *Финансово-экономический вестник*, 2023.

Komilova Mukarram Qobiljonovna

SamISI katta o'qituvchisi

ORCID: 0000-0001-8799-413

Aktamova Surayyo

SamISI MR-425 guruh talabasi

MA'NAVIY YUKSALISH TARG'IBOTCHILARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi. Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishida tarixiy sharoit, shuningdek Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g'oyasini ilgari suradilar. Jadidlar milliy birlik, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo'llarini izlaganlar. Ushbu maqolada yuqorida qayd etilgan fikrlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Turkiston, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo'jayev, So'fizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat Jadidchilik, milliy ko'tarilish, matbuot, muxtoriyat, milliy g'oya;

Abstract: This article examines the emergence of the Jadid movement in the Turkestan region. It explores the historical conditions that led to the development of Jadidism in Turkestan, as well as the ideas advanced by Turkestan Jadids to liberate the people from backwardness and religious superstition, to reform the principles of Sharia, to spread enlightenment among the population, and to achieve national autonomy. The Jadids sought ways to renew and elevate society through national unity and spiritual-educational reforms. The article discusses these ideas mentioned above.

Keywords: Turkestan, Behbudiy, Fitrat, Chulpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloni, Munavvarqori, Fayzulla Khojaev, Sofizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat, Jadidism, national awakening, press, autonomy, national idea.

KIRISH

XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma'rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid'atlarni isloh qilish fikri paydo bo'la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar. Jadidizm (arabcha "jadid" so'zidan olingan bo'lib "yangi" degan ma'noni bildiradi). O'sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya'ni feodal-o'rta asrchilik, diniy fanatizm

ruhida bo'lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko'p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi [1]. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Turkiston xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning birinchi choragidagi davr o'zining nihoyatda sermazmun va inqilobiy suronliligi, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos yo'nalishi edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida Jadidchilik harakatining tarixiy tashkil topishi obyektiv ochib berildi. Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda jadidchilar maktabi va ularning harakatlarini mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot jarayonida Abdulla Avloniyning "Tarjimai xol" Tanlangan asarlar 2-jildlik va Munavvarqori Abdurashidxonning "Qizil O'zbekiston" nomli asarlari metodologik manba sifatida olindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugun biz yuzma-yuz bo'lib turgan milliy g'oya asoslari, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidchilarimiz tomonidan ham kun tartibiga qo'yilgan va qizg'in muhokama qilingan edi. Ma'rifatga ehtiyoj, ilm-fanni egallash g'oyasi millatning ko'pchiligi tomonidan anglanishi kerak. Darhaqiqat, jadidchilarimiz olib borgan barcha ishlar, matbuotning yo'lga qo'yilishi, "usuli jadid" maktabi nazariyasi va amaliyoti, teatrchilik, hammahammasi shunga xizmat qildirildi. Shu tariqa har bir g'oyaning milliy g'oyaga aylanishi, jadidchilarimiz fikricha ikki shartni taqozo etadi. 1. G'oya millatning tub, asl ehtiyojlaridan, turishturmushidan, asosiy an'analaridan, o'zligidan va tabiiyki, imkoniyatidan kelib chiqmog'i lozim. 2. Mazkur g'oya millat tomonidan anglanishi, his qilinishi, boshqacha aytganda, ongiga joylashib, yuragidagi o'tga aylanmog'i, so'ngsiz ishtiyoq hosil qilmog'i kerak. Turkistonda jadidchilik harakatining faol tashkilotchi – ishtirokchilari haqida to'xtaladigan bo'lsak, bular: Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy,

Saidahmad Siddiqiy – Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jaev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Abdulvohid Burxonov, Sadridin Ayniy, Abudulqodir Muxiddinov (Buxoro), Obidjon

Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho‘lpon, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm)lar nomini birinchilar safida keltirishimiz mumkin.

Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, “Usuli qadim” ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiy yo‘lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko‘rish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi, milliy qushin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma‘rifatchilarining Turkiston o‘lkasida ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo‘lsada milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o‘lkadagi maxalliy xalqning ongiga o‘z ta‘sirini o‘tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga milliy-ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffak bo‘ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma‘rifatchilik g‘oyalari tarkala boshladi, yangi ta‘lim-tarbiya shaxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targibot, jadidchilik harakati rivoj topdi [2]. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko‘plab ma‘rifatchilar yetishib chiqdi.

Turkistonda jadidchilik harakati uch soha orqali faoliyat ko‘rsatdi.

- maorif (yangicha maktablar ochish, ta‘lim usulini yangilash),
- san‘at (badiiy adabiyot, teatr)
- matbuot. (gazeta jurnallar)

Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm-ma‘rifatli qilish bo‘lsa, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg‘unlashuvi natijasida, uzligini, o‘z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston jadidchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo‘lida katta ishlar qilindi.

Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishida tarixiy sharoit bilan birga, XIX asrning so‘nggi choragida uyg‘ongan ma‘rifatchilik, ma‘rifatparvarlik qarashlarining ta‘siri katta bo‘ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga e‘tibor bersak, marifatparvarlik mafkurasini

demokratik va milliy-vatanparvarlik harakatlarining g'oyaviy mazmunini tashkil etganligini ko'ramiz. Mamlakatimizda marifatparvarlik g'oyasining kelib chiqishiga asosiy sabab, birinchidan, rus istilochilik siyosatining chuqurlashib borishi natijasida paydo bo'lgan milliy ozodlik harakatlari, ikkinchidan, g'arbdan kirib kelayotgan demokratik harakatlarning istilochilar tomonidan bo'g'ib qo'yilishi, uchinchidan, millatparvar - fidoiy kishilarning qattiq takib ostiga olinganligi va xatto ularning qatl etila boshlaganligi edi.

Jadidchilik harakati vakillari o'zlarining ma'rifatparvarlik mafkurasiga bir tomondan o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan demokratik g'oyalarni: ilm o'rganish, fan va texnika yutuqlaridan baxramand bo'lish, ilmiy-tabiiy fanlarni rivojlantirish, so'z va fikr erkinligini joriy qilish, demokratik davlat q'urilishiga asoslangan milliy davlatchilikni vujudga keltirish, milliy g'oyalar qatlamini shakllantirish, adabiyot va san'atning zamonaviy janrlarini rivojlantirish, ikkinchi tomondan mustamlakachilik siyosati ta'siri ostida o'z milliy qiyofasini yo'qotayotgan turkiy til va milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma'naviy-axlokiy takomillarni yanada kuchaytirish, milliy o'zligini anglash, milliy ong, milliy tafakkurni va diniy e'tiqodlarni mustaxkamlash kabi g'oyalarni asos qilib oladilar. Albatta bu vazifalarni amalga oshirishda an'anaviy islom dini, shariat asoslari va xadislar ham o'z ta'sir kuchini saqlab turgan ta'limotga suyanadilar.

Jadidchilar o'zlarining ilg'or g'oyalarini Xalq o'rtasida tarqatish uchun milliy matbaachilikni rivojlantirish orqali, zamonaviy ta'lim sistemasini joriy qilish, ilg'or g'arb mamlakatlariga maxalliy yoshlarni o'qishga junatish yo'li bilan amalga oshirishga harakat qildilar. Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g'oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi. Shu jihatdan o'zbek, va tojik xalqlarining mutafakkirlari Ahmad Donishning (1827 - 1897) «Navodir ul - vaqoe» asari diqqatga sazovor. Ahmad Donish o'z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, an'anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni ham podsho - hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchun adolatni mezon qilib olsa, san'atning gullab yashnashiga yo'l ochib bersa – xalq hayoti farovon bo'ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U, hukmdor donishmandlik fazilatiga albatta ega bo'lishi lozim, davlatning mohiyatini aql belgilaydi, degan xulosaga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat aholisigina ma'rifatli va yuksak axloq egalari bo'la oladi. Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko'rinishidir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg'onish va milliy ong yuksalishida katta rol o'ynagan. Jadidchilik g'oyalarini uning yorqin vakillaridan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo'jayev, So'fizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat kabilar g'oyat og'ir sharoitlarda targ'ib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini yerga urishga yo'l qo'ymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Ma'rifatchi jadidchilar og'ir moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviysiyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor to'yg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmlariga oldilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o'zlari dars berar, o'quv qo'llanmalari yozar, nashr etar va bu yo'lda jonbozlik ko'rsatar edilar. Bu yo'lda hatto o'z mablag'larini ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur.

Bugunda ma'rifatparvar-jadidchilarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma'rifatchi-jadidlarning nomlari tiklanayapti, tavallud topgan kunlari tantanali nishonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma'naviy, qadriyatlar sifatida xanuzgacha saqlanib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avloniy A. "Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., "Ma'naviyat", 1998 yil 288- bet".
2. Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston" 1927 yil, 7iyun. Ziyo uz. Com.
3. Qosimov B. "Milliy uyg'onish", T., "Sharq", 2004 yil, 53-bet.
4. Комилова М. Сравнительно-типологический анализ инвестиционной терминологии в узбекском и русском языках // МАКТАBGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI. – 2025. – T. 3. – №. 2.
5. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi // Xalq va demokratiya, 1992, 3-4-son.

6. Kobiljonovna K. M. Application Of Ways To Increase Efficiency In Learning The Russian Language //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2024. – T. 28. – C. 12-14.
7. Behbudiy B. “Behbudiy kutubxonasi”, “Oyina” jurnali 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil 14-bet.
8. K. Xoshimov, S. Nishonova “Pedagogika tarixi”. –T.:2005 yil 213 b.
9. Muhammadjonova L., Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O‘zMU. 2007.
10. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. -T.: Davr-press, 2006.
11. Sharq allomalari va ma’rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma’naviy-axloqiy qarashlari. G. Niyozov, Q. Axmedov, Q. Tojiboev O‘zbekiston 2010 yil.

BekmurodovAbbos Amiriddinovich

SamISI, dotsent v.b.

ORCID ID:0000-0003-0830-511X

abbos8506@gmail.com

Kamolov Mehriddin Xusniddin o‘g‘li

SamISI MK-K-122 guruh talabasi:

KAPITAL OQIMLARINI BOSHQARISH VA INVESTITSION RIVOJLANISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida Investitsiya faoliyati va olib borilayotgan siyosat to‘grisida fikr yuritiladi. Hozirgi kundagi investisiyalarni qaysi sohalariga ko‘proq kiritilyotgani haqida ma’lumotlar beriladi

Kalit so‘zlar: Investitsiya faoliyati, investitsiya siyosati, asosiy kapital, loyiha, banklar, taminot, mahalliy biznes, davlat byudjeti, markaziy bank.

Kirish. Bugungi kunda har qanday davlat va korxona iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlashda investitsiya faoliyatining ahamiyati ortib bormoqda. Investitsiya iqtisodiyotning turli sohalarida yangi loyihalarni moliyalashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik yangilanishlarni amalga oshirish hamda ijtimoiy va infratuzilma obyektlarini rivojlantirish orqali o‘shishga xizmat qiladi. Shu bois, investitsiya jarayoni nafaqat korxona darajasida, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish salohiyatini

kengaytirish va mehnat unumdorligini yaxshilash kabi masalalarda ham muhim vosita sifatida qaraladi. Investitsiya faoliyati o'z ichiga moliyaviy va moddiy resurslarni ma'lum bir muddat davomida maqsadli ravishda joylashtirishni oladi. Bu faoliyatning samarali bo'lishi esa to'g'ri tanlangan investitsiya siyosati bilan bevosita bog'liqdir. Investitsiya siyosati – bu korxona yoki davlat darajasida investitsiya jarayonlarini rejalashtirish, ularni moliyalashtirish manbalarini aniqlash, xavf-xatarlarni baholash va investitsiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvdir. Shu tariqa, investitsiya siyosati nafaqat resurslarni oqilona taqsimlashga, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida investitsiya faoliyati va siyosatini o'rganishning dolzarbligi, global raqobat, innovatsion texnologiyalar, moliyaviy bozorlardagi o'zgarishlar hamda davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan izohlanadi. Shu bois, korxona va davlatning investitsiya strategiyasini shakllantirishda mavjud imkoniyatlarni aniqlash, risklarni baholash va resurslarni samarali taqsimlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu ishda investitsiya faoliyati va investitsiya siyosatini o'rganish jarayonida turli ilmiy-tadqiqot usullari va metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini shakllantirish uchun birinchi navbatda mavjud ilmiy adabiyotlar, O'zbekiston va xorijiy olimlarning ishlanmalari tahlil qilindi. Bu orqali investitsiya faoliyatining mohiyati, uning iqtisodiyotdagi roli, turli shakllari va strategik ahamiyati aniqlangan. Shuningdek, nazariy tahlil yordamida investitsiya siyosatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari va uning barqaror rivojlanishga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot jarayonida korxona va davlat investitsiyalariga oid normativ-huquqiy hujjatlar, strategik rejalar, davlat dasturlari hamda korxona hisobotlari o'rganildi. Bu esa investitsiya jarayonlarini tartibga soluvchi qonunlar, soliq va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari hamda investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tahlil qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, investitsiya faoliyati va siyosatining iqtisodiyotga ta'siri kausal va induktiv tahlil usullari orqali o'rganilib, sabab-natija bog'liqligi va umumiy xulosalar chiqariladi.

Adabiyotlar tahlili.

Investitsiya faoliyati va investitsiya siyosatini o'rganish bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu masala iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida keng o'rganilgan. O'zbekiston olimlari, xususan, A. Xasanov, S. Yoqubov, M. Tursunov va boshqa tadqiqotchilar milliy iqtisodiyot sharoitida investitsiya jarayonlarini tahlil qilgan. Ularning ishlarida investitsiya faoliyatining iqtisodiy

o'sish, texnologik yangilanish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishdagi roli alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga, investitsiya siyosatini shakllantirishda davlatning tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi mexanizmlari ham muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

O'zbekiston tajribasiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda investitsiya faoliyati ko'pincha banklar va moliya institutlari orqali amalga oshiriladigan kredit va moliyaviy resurslarni yo'naltirish jarayoni sifatida talqin etilgan. Shuningdek, sarmoyalarni ijtimoiy va infratuzilma loyihalariga jalb qilish orqali iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari ham keng yoritilgan. Milliy olimlar asarlarida, jumladan, investitsiya siyosatini belgilashda risklarni baholash, resurslarni samarali taqsimlash va uzoq muddatli rivojlanishga erishish mexanizmlari muhim deb ko'rsatiladi.

Jumladan, R. Brealey va S. Myers, A. Damodaran va J. Berk kabi mutaxassislar investitsiya faoliyati va qaror qabul qilish jarayonlarini global moliya bozoridagi amaliy tajribalar orqali yoritadilar. Ularning ishlari investitsiyalarning rentabelligi, risklarni diversifikatsiya qilish, kapital bozorlarida samarali strategiyalarni qo'llash hamda investitsiya qarorlarini nazariy va matematik modellarda tahlil qilishga asoslangan. Xorijiy tadqiqotchilar nazariyasi milliy tajribani global kontekstga joylashtirish, ilg'or usullarni tatbiq etish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili milliy va xorijiy tajribalarni solishtirish imkonini beradi, u orqali O'zbekiston sharoitida investitsiya siyosatini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Bu tavsiyalar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, resurslarni oqilona taqsimlash va investitsiya jarayonlarining samaradorligini maksimal darajada oshirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar.

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya faoliyati va investitsiya siyosatini o'rganish natijalari ko'rsatdiki, milliy iqtisodiyotda investitsiya resurslarining samarali taqsimlanishi va ularning turli sohalarga yo'naltirilishi mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, 2020–2025 yillarda milliy investitsiyalar hajmi o'sish sur'atiga ega bo'lib, eng yuqori ko'rsatkichlar sanoat va qurilish sohalarida qayd etilgan. Shu bilan birga, xizmatlar sohasi va ijtimoiy infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan investitsiyalar ham sezilarli darajada ortib bormoqda. Solishtirma tahlil natijalari milliy va xorijiy tajribalarni qiyoslash imkonini berdi. Xorijiy davlatlar, xususan, rivojlangan iqtisodiyotlarda investitsiya siyosati aniq strategiyalar, risklarni diversifikatsiya qilish va ilg'or moliyaviy mexanizmlarga asoslangan bo'lsa,

O'zbekistonda bu jarayonlar hali ham rivojlanish bosqichida ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, milliy tajribada innovatsion loyihalarga sarmoya jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish istiqbollari mavjudligi ko'rsatildi.

1-jadval.

Manba	Investitsiya hajmi (mlrd so'm)	Ulush (%)
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	321 154	72 %
Korxona va tashkilotlar mablag'lari	71 067	16 %
Aholi mablag'lari	26 180	6 %
Respublika budjeti	17 745	4 %
Tijorat banklari kreditlari va boshqa mablag'lar	8 950	2 %
Jami	445 096	100 %

Yuqoridagi jadvalda shu ma'lumki, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar manbalari tarkibi tahlil qilinsa, eng katta ulush xorijiy investitsiyalar va kreditlarga to'g'ri keladi, ular jami investitsiyalarning 72 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich milliy iqtisodiyotdagi xorijiy sarmoya va xalqaro moliyaviy manbalarning muhimligini ko'rsatib, sanoat, qurilish, transport va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish orqali ishlab chiqarish va texnologik modernizatsiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Mahalliy korxona va tashkilotlar mablag'lari esa investitsiyalarning 16 foizini tashkil etib, xususiy sektor va biznesning iqtisodiy rivojlanishga o'z hissasini qo'shayotganini namoyon etadi. Bu mablag'lar asosan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va logistika loyihalariga yo'naltiriladi. Aholi sarmoyalari jami investitsiyalarning 6 foizini tashkil qilib, ko'chmas mulk, kichik biznes va investitsiya jamg'armalariga jalb qilinadi. Bu holat aholining iqtisodiy faolligini va moliyaviy savodxonligini oshirish zaruratini ko'rsatadi. Respublika byudjeti mablag'lari jami investitsiyalarning 4 foizini tashkil etib, strategik loyihalar, davlat dasturlari, ijtimoiy infratuzilma, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalariga yo'naltiriladi. Nisbatan kichik ulushi bo'lishiga qaramay, budget mablag'lari davlatning investitsiya siyosatini amalga oshirish va strategik yo'nalishlarni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari jami investitsiyalarning 2 foizini tashkil etib, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyati barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lsa-da, investitsiya siyosatini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha choralar talab etiladi. Jumladan, risklarni baholash tizimini rivojlantirish, ilg'or moliyaviy va texnologik tajribalarni tatbiq etish, shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish investitsiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarda xorijiy investitsiyalar va kreditlar yetakchi rol o'ynagan bo'lsa, mahalliy korxona mablag'lari va aholining sarmoyalari ham sezilarli ulushga ega. Davlat byudjeti va tijorat banklari kreditlari nisbatan kichik ulushni tashkil qilgan bo'lsa-da, ular strategik loyihalarni amalga oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, investitsiya siyosatining samaradorligi va milliy iqtisodiyotdagi rivojlanish sur'ati ko'proq xorijiy sarmoyaning jalb qilinishiga bog'liqligi aniqlangan.

Investitsiya jarayonlarini yanada samarali qilish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish zarur:

1.Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish – chet el sarmoyadorlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, soliqlar bo'yicha imtiyozlar va investorlarni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish.

2.Mahalliy biznesning rolini oshirish – korxona va tashkilotlar mablag'larini investitsiya jarayonlariga jalb qilish, xususiy sektor loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish.

3.Davlat byudjeti mablag'larini strategik loyihalarga yo'naltirish – infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va ekologik loyihalarni moliyalashtirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash.

4.Bank kreditlash tizimini rivojlantirish – tijorat banklari va moliyaviy institutlar orqali kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish.

5.Investitsiya siyosatini takomillashtirish – uzoq muddatli strategik rejalashtirish, risklarni baholash tizimini kuchaytirish va ilg'or xalqaro tajribalarni tatbiq etish.

Yuqoridagilarni amalga oshirish orqali O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish, milliy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xasanov, A. *Investitsiya faoliyati va milliy iqtisodiyot rivoji*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Yoqubov, S. (2021). *O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiya siyosati*. Toshkent: Moliyaviy tadqiqotlar markazi.
3. Tursunov, M. *Investitsiyalar va strategik rejalashtirish*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *Investitsiyalar va moliyaviy barqarorlik bo'yicha hisobot*. Toshkent.
5. Brealey, R., Myers, S. (2020). *Principles of Corporate Finance*. New York: McGraw-Hill Education.
6. UzDaily. (2025). *Toshkent leads Uzbekistan in fixed capital investment in 2025*. uzdaily.uz
7. UzDaily. (2025). *Uzbekistan's investments in fixed capital nearly tripled over the last five years*. uzdaily.uz

BekmurodovAbbos Amiriddinovich

SamISI, dotsent v.b.

ORCID ID:0000-0003-0830-511X

abbos8506@gmail.com

Yo'ldoshev Zuhridin Otabek o'g'li

Boltayeva Jasmina Samandar qizi

SamISI mk-k-122 guruh talabalari

**INVESTITSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTITISHDA TIJORAT
BANKLARINING O'RNI.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada investitsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklarining tutga o'rni, banklarning investitsion faolligini yanada kengaytirish, uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish hajmlarini oshirish va ularni mamlakatimiz iqtisodiyoti rovojiga qo'shayotgan hissasi ko'rib chiqiladi. Investitsion loyihalarni tijorat banklari tomonidan kreditlar orqali moliyalashtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Tijorat banlari, investitsion loyihalar, xalqaro moliya institutlari, investitsion faollik, innovatsiyalar, kredit operatsiyalari, kapital, startaplar.

Kirish. Bugungi kunda respublikamiz tijorat banlarining investitsion faolligini kengaytirilishini yanada rag'batlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalashga, yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalash hajmlarini oshirish maqsadida ularning resurs bazasini mustahkamlanishini yaqqol kuzatishimiz mumkin. Mamlakatimiz iqtisodiyotini texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida ishlar jadal rivojlanmoqda. Bank kreditlari iqtisodiyotning muhim tarmoqlari rivojlantirilmoqda, yangidan-yangi korxonalar tashkil etilmoqda va aholi uchun qo'shimcha ish joylari yaratilmoqda, ilg'or texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlar joriy etilayotganligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida bank-moliya tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari nafaqat kredit beruvchi moliyaviy institut sifatida, balki investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchisi, strategik hamkor va moliyaviy maslahatchi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ular investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, uzoq muddatli kreditlar ajratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, lizing, loyiha moliyalashtirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali iqtisodiyot rivojiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, bank tizimini liberallashtirish, kapital bozorini rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tijorat banklarining investitsiya loyihalaridagi rolini yanada kuchaytirdi. Ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, energetika va xizmatlar sohasida yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining ishtiroki tobora ortib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan, investitsiya loyihalarini rivojlantirishda tijorat banklarining o'rni, ularning moliyaviy mexanizmlari, imkoniyatlari hamda muammolarini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur mavzuni tahlil qilish O'zbekiston Respublikasi bank tizimining investitsiya jarayonlaridagi ahamiyatini chuqur anglash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot investitsiya loyihalarini rivojlantirishda tijorat banklarining o'rnini aniqlash va baholashga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy

va amaliy tahlil uyg'unligiga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimida amalga oshirilayotgan investitsiya jarayonlarining xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida iqtisodiy nazariya, investitsiya nazariyasi, moliyaviy vositachilik konsepsiyasi hamda bank kreditlash va loyiha moliyalashtirishga oid ilmiy qarashlar olindi. Ushbu nazariy qarashlar tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi institutsional rolini aniqlashda qo'llanildi.

Adabiyotlar tahlili.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining o'rni masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda O'zbekiston va xorijiy olimlar tomonidan turli nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari investitsiya jarayonlarida moliyaviy vositachi sifatida emas, balki iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim institutsional subyekt sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi roli, asosan, milliy iqtisodiyot sharoitida tahlil qilinadi. Jumladan, E.A. Nozimov o'z ilmiy ishlarida tijorat banklari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini batafsil o'rganib, bank kreditlari, lizing va boshqa moliyaviy instrumentlarning real sektorni rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslab beradi. Muallifning ta'kidlashicha, banklar investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda nafaqat mablag' ajratuvchi, balki loyiha samaradorligini baholovchi va risklarni boshqaruvchi subyekt sifatida ham faoliyat yuritadi.

I. Kamilovanning tadqiqotlarida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari va muammolari yoritilgan. Muallif O'zbekiston bank tizimida uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi, kredit risklarining yuqoriligi va investitsiya loyihalarini baholashda tajribaning cheklanganligi banklarning investitsion faolligini susaytiruvchi omillar ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u xorijiy banklar tajribasini joriy etish, loyiha moliyalashtirish (project finance) mexanizmlarini kengaytirish orqali banklarning investitsiya jarayonlaridagi rolini kuchaytirish mumkinligini asoslab beradi.

N. Olimova tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligini baholashga alohida e'tibor qaratib, bank kapitalining yetarliligi va kredit portfeli sifati investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan isbotlaydi. Uning fikricha, banklar investitsiya siyosatini uzoq muddatli strategiya asosida olib borishi iqtisodiyotda barqaror o'sishni

ta'minlaydi. Shuningdek, N. Ergashova banklarning investitsion-kredit salohiyati va uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilib, bank resurslarining ko'payishi investitsiya faolligining oshishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Shuningdek, J. Schumpeter tijorat banklarini innovatsiyalarni moliyalashtiruvchi asosiy institut sifatida ko'rib, bank kreditlari yangi texnologiyalar va innovatsion investitsiya loyihalarining amalga oshirilishida hal qiluvchi rol o'ynashini asoslab bergan. Uning fikricha, banklar iqtisodiy rivojlanishning "harakatlantiruvchi kuchi" bo'lib, ular orqali investitsiyalar real sektorni tubdan o'zgartiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston olimlari tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdagi rolini milliy iqtisodiyot sharoitida amaliy jihatdan yoritgan bo'lsa, chet el olimlari ushbu jarayonni nazariy va institutsional jihatdan asoslab bergan. Mazkur ilmiy qarashlarning uyg'unligi tijorat banklarining investitsiya jarayonlaridagi o'rnini chuqurroq anglash va ularni rivojlantirish bo'yicha samarali takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida tijorat banklarining ishtiroki so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Bank tizimida olib borilayotgan islohotlar, kredit resurslarining ko'payishi va moliyaviy xizmatlar turlarining diversifikatsiyalashuvi investitsiya jarayonlarining jadallashuviga xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda asosiy manbalardan biri bo'lib, investitsiya loyihalarining uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlamoqda.

Avvalo, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari sanoat va infratuzilma loyihalarining rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalar bank kreditlari hisobiga moliyalashtirilmoqda. Bu holat ishlab chiqarish hajmining oshishiga, mahsulot tannarxining pasayishiga hamda korxonalar moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, tijorat banklarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini investitsiya faoliyatiga jalb etishdagi roli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Banklar tomonidan imtiyozli kreditlar, lizing operatsiyalari va kafillik mexanizmlarining qo'llanilishi tadbirkorlarning investitsion faolligini oshirib, hududiy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, aholi daromadlari oshmoqda va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik

ta'minlanmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, tijorat banklari xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ham muhim vositachi sifatida maydonga chiqmoqda. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari milliy iqtisodiyotga zamonaviy boshqaruv tajribasi, ilg'or texnologiyalar va qo'shimcha moliyaviy resurslarni olib kirishga xizmat qilmoqda. Bu esa O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, uzoq muddatli resurslar yetishmasligi, kredit risklarining yuqoriligi, ayrim loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda yetarli tajribaning mavjud emasligi banklarning investitsiya faolligini cheklab qo'ymoqda. Shuningdek, garov ta'minoti bilan bog'liq talablarning qat'iyligi ayrim tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslarga kirishni qiyinlashtirmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi natijalarga kelish mumkin: birinchidan, tijorat banklari investitsiya loyihalarini rivojlantirishda asosiy moliyaviy tayanch sifatida namoyon bo'lmoqda; ikkinchidan, bank kreditlari hisobiga amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishiga va raqobatbardoshlikning oshishiga xizmat qilmoqda; uchinchidan, banklar faoliyatini yanada takomillashtirish, xususan, loyiha moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish va risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Umuman olganda, o'tkazilgan tahlillar tijorat banklarining O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini rivojlantirishdagi o'rni strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ularning investitsion faolligini qo'llab-quvvatlash va mavjud muammolarni bartaraf etish orqali mamlakat iqtisodiy o'sishini yanada jadallashtirish mumkin.

1-jadval.

Quyida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hamda tijorat banklarining ulushi keltirilgan.

Ko'rsatkich	Miqdori (mlrd so'm)	Ta'rif
Asosiy kapitalga investitsiyalar (2025, yanvar–iyun)	273 429,9	Barcha moliyalashtirish manbalari bo'yicha jami
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar orqali investitsiyalar ulushi	2,4 %	Investitsiyalar manbalari tarkibida
Tijorat banklari investitsiya kreditlari hajmi (taxm.)	6 562,3	$273\,429,9 \times 2,4\% \sim 6\,562,3$ mlrd so'm)

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki 2025-yilning birinchi yarmida jami asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar 273 429,9 mlrd so'm bo'lib, shundan tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari orqali olingan investitsiyalar ulushi 2,4 %ni tashkil qilgan. Bu taxminan **6 562,3 mlrd so'm** miqdorida bo'lib, tijorat banklarining investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun jalb qilgan asosiy mablag'laridan biridir.

Xulosa va takliflar.

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan investitsiya kreditlari hajmi yildan-yilga oshib bormoqda va ular asosan sanoat, qishloq xo'jaligi, infratuzilma hamda kichik biznes loyihalariga yo'naltirilmoqda. Bu holat bank tizimining investitsiya faolligi ortib borayotganini hamda banklarning iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlariga faol hissa qo'shayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida uzoq muddatli resurslar yetishmasligi, kredit risklarining yuqoriligi va ayrim loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashdagi kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklarining investitsiya loyihalaridagi roli nafaqat kredit ajratish bilan cheklanib qolmay, balki loyiha tashabbuskorlariga moliyaviy maslahat berish, risklarni baholash va investitsiya jarayonlarini monitoring qilish orqali ham namoyon bo'lmoqda. Biroq, amaldagi bank amaliyotida loyiha moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi banklarning investitsion salohiyatini to'liq ishga solishga to'sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, investitsiya loyihalarini rivojlantirishda tijorat banklarining rolini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, tijorat banklarida uzoq muddatli investitsiya kreditlari resurs bazasini kengaytirish, jumladan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish va bank obligatsiyalarini chiqarish orqali investitsiya resurslarini jalb etish maqsadga muvofiqdir. Bu banklarning uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Bank tizimining rivojlanish ko'rsatkichlari. – www.cbu.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–429-son qarori. (2024). Tijorat banklari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. – Lex.uz
3. Karimov, D. (2023). Tijorat banklari va investitsiya faoliyatining o'zaro aloqasi. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali

4. Statistika agentligi huzuridagi Departament. (2024). Bank krediti va investitsiyaviyoqimlarstatistikasi. – www.stat.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **Bank tizimi va kreditlash statistik ma’lumotlari.** – Toshkent, 2021–2025 yillar.
6. Nozimov E.A. **Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining o‘rni** // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar.
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. **Asosiy kapitalga investitsiyalar bo‘yicha statistik to‘plamlar.** – Toshkent, 2021–2025.
8. Olimova N. **Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni oshirish yo‘llari** // Iqtisodiy tadqiqotlar.
9. Ergashova N. **Banklarning investitsion-kredit salohiyati va iqtisodiy o‘sishga ta’siri** // Moliyaviy tahlil jurnali. – Toshkent, 2023.